

# O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH G'OYASINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

# MONOGRAFIYA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 316:323.1(575.1)

NORBO‘TAYEV ISLOMBEK MUSURMONOVICH

# O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH G‘OYASINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

MONOGRAFIYA

Toshkent – 2023

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 31137

## Annotatsiya

Mazkur monografiya mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy yuksalish g'oyasini falsafiy nuqtai nazardan ta'riflash va tavsiflash orqali uning mazmun-mohiyatini va o'ziga xos jihatlarining umummetodologik asoslarini ochib berishda jamiyatimizning istiqlol yillaridagi milliy yuksalishi va unga ta'sir ko'rsatgan jarayonlar tadrijini tahlil qilish, shu bilan birgalikda mustaqillik davrida jamiyatning milliy yuksaltirish omillari va tamoyillari bilan bog'liq faoliyatning ustuvor yo'nalishlari va takomillashib borish mexanizmini tahlil qilishdan iborat.

**Tuzuvchi-muallif:** **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD) I.M Norbo'tayev**

**Taqrizchilar:** **F.f.b.f.d (PhD), v.b dots, V.O.Sapayev**

**F.f.b.f.d (PhD), dots, T.J Xo'janova**



# KIRISH

**Monografiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda taraqqiyot yo'lidan borishga harakat qilgan har qanday xalq va davlat o'zining milliy tiklanish, rivojlanish hamda yuksalish tamoyillarini belgilashi – insoniyat tarixi va tamaddunining asosiy qonuniyatlaridan biridir. Bu jihatdan umuminsoniy tamoyillar asosida jamiyat taraqqiyotiga xos milliy tiklanish jarayonining tadrijiy va uning natijasida milliy yuksalish bosqichiga o'tilishi, davlatlar rivojining bugungi yangi takomil bosqichining qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari, jamiyat hayotining yangilanish mexanizmini optimallashtirishga doir yaxlit konseptual asoslarning o'rni va roli nihoyatda dolzarb bo'lib borayotganligini ko'rsatadi.

Dunyo xalqlari milliy taraqqiyotiga doir tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmi va yangi asrning birinchi choragida jadal amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, II Jahon urushi natijasida chuqur tanazzulga uchragan, lekin qisqa muddatda qaddini tiklay olgan davlatlar, "To'rt Osiyo yo'lbarslari" – Janubiy Koreya, Singapur, Honkong va Tayvan, "Ikkinchi to'lqin yo'lbarslari" – Indoneziya, Malayziya, Vyetnam, shuningdek Xitoy va Hindiston kabi davlatlar tajribasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday mamlakatlarning o'ziga xos milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari taraqqiyot yo'li, mazkur sohadagi islohotlari va erishgan yutuqlari butun jahonda e'tirof etilgan.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari jumladan Janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlarining dunyo taraqqiyotiga ulkan xissasini alohida aytrib o'tishimiz zarur. II jahon urushidan keying davrlarda bularning keng rivojlanish yo'liga o'tganligi va buning natijasida misli ko'rilmagan taraqqiyotiga erishganiga bugun barcha guvoh hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillik arafasida sobiq totalitar tuzumdan eng ko'p jabr tortgan, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli eng og'ir respublika edi. Istiqlolning dastlabki yillari o'ziga xos milliy tiklanish davri bo'ldi – qisqa muddatda g'alla va neft mustaqilligiga erishildi, ijtimoiy ta'minot yaxshilandi, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochildi. Harakatlar strategiyasi 2017 - yilda qabul qilinishi bilan jamiyat

hayotida yangi davr – milliy yuksalish davri boshlandi. O'zbekistonning ushbu taraqqiyot yo'lini, qariyb o'ttiz yillik natijalarni, jamiyatimiz hayotida erishilgan yutuqlar va vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini chuqur o'rganish, bu bo'yicha kelajak uchun muhim natijalar beradigan keng ko'lamli izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi PF-60-son "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021- yil 26- martdagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5040-son, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarorlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoyishi va ushbu mavzuga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu Monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.



MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **Kirish**.................................................... | 3 |
| **I BOB. MILLIY TIKLANISH VA YUKSALISH JARAYONLARINI FALSAFIY TADQIQ QILISH MASALALARI**.............................. | 15 |
| 1.1-§. «Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalari, ularning o'zaro aloqasi va ijtimoiy-falsafiy tahlili............................ | 16 |
| 1.2-§. Mustaqil taraqqiyot yo'li – O'zbekistonning milliy tiklanishi va yuksalishining asosiy omili ........................................ | 28 |
| **I bobga oid xulosalar**............................................... | 41 |
| **II BOB. MUSTAQILLIKNING DASTLABKI O'N YILLIKLARIDA MILLIY TIKLANISH ASOSLARINI YARATISH JARAYONI** ................ | 44 |
| 2.1-§. Milliy tiklanish davrining jamiyatimiz yuksalish poydevorini yaratishdagi ahamiyati............................................... | 44 |
| 2.2-§. Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari........................................... | 58 |
| **II bobga oid xulosalar**............................................... | 74 |
| **III BOB. O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HOZIRGI YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH G'OYASINING AMALIYOTI VA TAKOMILLASHISH MEXANIZMI** ........................................ | 76 |
| 3.1-§.Jamiyat rivojining yangi bosqichidagi islohotlar va o'zgarishlar - milliy yuksalish va taraqqiyot omili ........................................ | 76 |
| 3.2-§. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston jamiyatining milliy yuksalish imkoniyatlari va istiqbollari.................................... | 90 |
| 3.3-§. Taraqqqiyot strategiyasi – milliy yuksalishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ........................................................ | 105 |
| **III bobga oid xulosalar**............................................... | 119 |
| **XULOSA**.................................................... | 121 |
| **FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**...... | 125 |

# I BOB. O'ZBEKISTONNING ISTIQLOL DAVRIDAGI MILLIY TIKLANISH JARAYONINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Yurtimizda mustaqillik yillaridagi milliy tiklanish jarayonlarida amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichidayoq o'ziga xos bir malaka shakllandiki, unga ko'ra insonni, unga farovon hayot tarzini yaratishni maqsad qilib qo'ygan sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotinig poydevorini ma'naviyat, axloqiylik va madaniyat tashkil qilmog'i lozimligiga amin bo'ldik. O'z navbatida inson manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilayotgan bozor iqtisodi sharoitida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash muhim tarixiy zaruriyat bo'lib qolishiga yana bir karra ishondik. Shunday zarurat amaliy ahamiyat kasb etishining muhim omili va hayotbaxsh manbai esa ma'naviyat, axloqiylik va madaniyat hisoblanadi. Mustaqillik davrida orttirgan tarixiy, kerak bo'lsa asrlarga tatigulik tajribamiz bu qadriyatlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashimizga imkon berdi. Mazkur ma'naviy qadriyatlarimizni asrab avaylash, bu ma'naviy xazinadan mumkin qadar ko'proq odamlarni bahramand etish nechog'lik muhim ekanligi anglab yetildi.

Tadqiqotimiz milliy tiklanish va yuksalish yo'lini inkor qilishni emas, balki dialektik inkorni, ijtimoiy rivojlanish bosqichlarida erishilgan yutuqlarning eng qimmatli, eng muhim jihatlarini saqlagan holda yangilanishni taqozo etishini yaqqol isbotlaydi. Bu jihatdan, O'zbekistonni mustaqillikka erishganidan keyingi ilk islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq tiklanish bosqichi – 1991-2016- yillar mamlakatimiz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega tarixiy davrdir.

Tabiiyki, O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining hozirgi yangilanish davrida asosiy e'tibor amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni yagona maqsad – milliy yuksalish sari yo'naltirishga qaratildi. Shu ma'noda, harakatlar strategiyasi milliy taraqqiyotimizning yangi davrini boshlab berdi.



## 1.1. «Milliy tiklanish» va «milliy yuksalish» tushunchalari, ularning o'zaro aloqasi va ijtimoiy-falsafiy tahlili

Milliy ruh jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa bo'lib, milliy yuksalishni taqozo etadi va milliy tiklanishning natijalarini aks ettiradi. Xuddi shunday XX asr oxirida mustaqillikka erishgan xalqimiz istiqlolning dastlabki davridayoq milliy tiklanishga kirishdi. Bu jihatdan istiqlolning ilk yillaridayoq islohatlarni amalga oshirilayotgani o'ziga xos milliy tiklanishning boshlanishi edi, desak o'sha davr hayoti haqiqatini ifodalagan bo'lamiz. Mazkur davr oralig'ida qo'lga kiritilgan natijalarni hisobga olgan holda bu davrni mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy tiklanish bosqichi va yurtimizning bugungi kundagi yuksalishi uchun muhim asoslarni yaratgan rivojlanish yillari sifatida tavsiflash mumkin.

Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab barcha sohalarda yangilanishlar ro'y bergani, «milliy qadriyatlar», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor», «milliy tiklanish», «milliy o'zlikni anglash» kabi atamalar ommalashib borgani ham ushbu jarayonning tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizga tadbiqan olganda «Milliy tiklanish» tushunchasi shakllanishi va namoyoni bo'lishi, u bilan bog'liq jarayonlarning umumiy qonuniyatlari va milliy xususiyatlarini anglash, bu boradagi ijtimoiy-falsafiy asoslarning ahamiyatini idrok qilish zarur vazifalardan biriga aylangani shubhasiz. Xalqimizning ma'naviy salohiyati yildan-yilga oshib bormoqda, yuksalish jarayoni muttasil davom etmoqda.[1] Darhaqiqat, milliy tiklanish g'oyasi davr ruhini aks ettiradi va ijtimoiy shart-sharoit bilan bog'liqlikda shakllanishi tarixiy taraqqiyot ko'rsatib bermoqda.

«Vatanimiz mustaqilligining o'tgan qisqa tarixiy davrda erishilgan natijalar sobiq ittifoqdan keyingi istiqlol yillarida mamlakatimizda o'ziga xos milliy tiklanish va yuksalish jarayonlari ro'y berganidan dalolat beradi. Ushbu davrda amalga oshirilgan tiklanish va yuksalish yo'lidagi keng ko'lamli faoliyat, yangilanishlar va islohotlarni milliylik va umuminsoniylik mezonlari, tarixiy

---
[1] Абдурахмонов М., Отамуротов С. Маънавий салохият. – Тошкент: ЎзМУ, 2009. – 30-31 б.

haqiqat va xolisonalik tamoyillari asosida tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega»[2]. Mustaqillikka erishilishi zamirida yangi bosqichda milliy tiklanishga o'tildi va mamlakatimiz hayotida tub o'zgarishlar bo'lganligini qayd etish lozim.

O'zbekistonning mustaqilligi yillarida «Milliy tiklanish» tushunchasi shakllanishi va uning amal qilishi uchun asos bo'lgan istiqlol va taraqqiyoti dasturi, rivojlanish yo'nalishlari, ustuvor vazifalarini anglab olishda quyidagilar nihoyatda muhim ahamiyatga ega:

**Birinchidan**, Tub o'zgarishlar, yangilanish va islohotlar yo'lini tanlagan O'zbekistonning milliy tiklanishi uchun eng murakkab vazifalardan biri o'sha davrda butun mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, tadrijiy rivojlanish yo'lidan sobitqadamlik bilan borishdan iborat edi. Sobiq ittifoq tarqalishi ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan o'sha davrda bunday barqarorlikni ta'minlash mamlakat hayotining eng zarur sharti bo'lgani shubhasiz.

"Inson umuman jamiyat g'oyalarsiz va g'oyalar tizimidan tashkil topgan mafkurasiz yashay olmaydi. Har bir inson maqsadsiz yashay olmaganidek va umuman jamiyatning konkret tarixiy ko'rinishi – mamlakatlar ham maqsadsiz va uzoqqa mo'ljallangan strategik mo'ljallarsiz yashay olmaydi. Ushbu qonuniyatga bo'ysunmaslik inson faoliyatining buzilishiga va mamlakatning parokanda bo'lishiga olib keladi"[3].

**Ikkinchidan,** strategik ahamiyatga ega bunday muhim masalalar tahlilida mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar va tub o'zgarishlar sarhisobi o'sha davrda milliy tiklanish uchun nihoyatda zarur asoslarni shakllantirilganidan dalolat beradi. Birinchi prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, faqatgina iqtisodiy munosabatlarni qaytadan modernizatsiyalashgina siyosiy islohatlarni amalga oshirish hamda milliy shakllanish va yuksalish uchun zarur asoslar yaratish imkoniyatini bermaydi.[4]

---

[2] Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. 327 б.
[3] Ахмедов.И.Н Миллий ғоя шаклланишиб ривожланиши ва амал килиши конуниятларининг ижтимоий фалсафий жиҳатлари (Ўзбекистон мисолида). Фалсафа фанлари бўйичп фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарканд. 2020. 20 б.
[4] Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. 327 б.



**Uchinchidan,** mustaqil yurtimizda «Milliy tiklanish» tushunchasi shakllanishida istiqlolning dastlabki yillariga ta'sir o'tkazgan va sobiq ittifoqdan bir muddat meros qolgan markazlashgan rejalashtirish va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish ham zudlik bilan ro'y beradigan voqea emas, balki bir necha bosqichlardan iborat uzluksiz jarayon ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ittifoqdan qolgan totalitar iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotining tabiati o'rtasida katta farq bo'lganligi bois, o'tmish tizimi zaminida bozor munosabatlarini shakllantirish asta-sekin, bosqichma-bosqich yuz berishiga harakat qilindi. Shu nuqtai nazardan, islohotlar jarayonida ijtimoiy ongni e'tiborga olish, ijtimoiy ruhiyat bilan hisoblashish zaruratini anglash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.[5]

**To'rtinchidan,** darhaqiqat, mustaqillikning o'sha davriga xos milliy tiklanish jarayoni bozor munosabatlari tadbirkorlikni rivojlantirishni, kishilarda mulkka egalik tuyg'usini tiklash choralarini ko'rishni taqozo etardi. Bunda ishbilarmonlarning o'z mulki, dehqonning o'z yeri bo'lishi, ular o'z mehnati bilan yetishtirgan mahsulotining haqiqiy egasi bo'lishiga imkon yaratish muhim sanalardi. O'sha davrda mulkchilik munosabatlarini qaror toptirishda kishilar ong-tafakkuridagi o'zgarishlar sekinlik bilan yuz berishini inobatga olish nihoyatda zarur edi.

Shu nuqtai nazardan, o'sha davrda mamlakatimiz fuqarolari ongi va qalbida «Milliy tiklanish» tushunchasi va tuyg'usini samarali shakllantirish uchun kishilardagi boqimandalik kayfiyatini yo'qotish uchun tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish, ishbilarmonlarga iqtisodiy erkinlik berish vazifasini hal qilish zarur edi. Shundagina, kishilar ongida shakllantirilgan sovet qadriyatlari o'rnini mulkdorlik hissi egallab, xususiy mulkdorlar, kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning faol harakatlantiruvchi

---

[5] Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Президент Ислом Каримов тарафдорининг танкидий мулоҳазалари. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2001. -367 б.

kuchiga aylanishi uchun, demak milliy tiklanishning moddiy asoslarini yaratish va mustahkamlashi uchun muhim zamin hozirlanar edi. [6]

Bu jihatdan, «Milliy tiklanish» umumiy tushuncha bo'lib, odamlar o'rtasidagi normal axloqiy munosabatlar o'zaro hurmatga, bir-biriga yordam berishga ham asoslanganligi barchaga ayon. Mustaqillikning o'sha davridagi milliy tiklanish uchun ma'naviy-axloqiy jihatdan halollik, samimiylik, batartiblilik, faxrlanish va mardlik, prinsipiallik va shu kabi boshqa xususiyatlarini saqlash, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etgani ham ma'lum.[7]

Ma'naviy-axloqiy barkamol inson yaxshilikni yomonlikdan, adolatni adolatsizlikdan, haqiqatni yolg'ondan, jasurlikni qo'rqoqlikdan, samimiylikni soxtalikdan, or-nomusni beorlikdan, baxtni baxtsizlikdan farqlaydi va mamlakat tiklanishi uchun vijdonan mehnat qiladi. Bu borada umuminsoniy tamoyillar va milliy xususiyatlar uyg'unligiga erishish uchun Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi kabi xalqaro hujjatlar e'tirof etilgani, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va qator qonunlar qabul qilingani bejiz emas. [8]

Xalqimiz istiqlolning ilk davridagi milliy tiklanish jarayoniga butun jahondagi o'zgarishlar bilan birga Markaziy Osiyoda ham keskin o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgani alohida ta'sir kuchiga va muhim ahamiyatga molik omillardan biri bo'lgan edi. Bu quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

**Birinchidan**, XX asrning so'ngiga kelib jahon sotsialistik boshqaruv tarqalib ketdi, SSSR barham topdi, ular o'tmishga aylandi. Ular o'rniga ko'plab tashkiliy o'zgarishlar ro'y berdi, siyosiy transformatsiyalar va yangilanishlar amalga oshdi.[9] Jumladan, biz yashayotgan mintaqada ham tub o'zgarishlar bo'ldi, ittifoqdosh mamlakatlar mustaqil davlatlarga aylandi.

---

[6] Абулқосимов Ҳ.П, Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. /Монография. -Т.: «Университет», 2015. ISBN –Б.54

[7] Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур: (ХХ аср сабоқлари ва XXI аср истиқболлари). –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. – Б. 112

[8] Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. https://constitution.uz/uz/pages/humanrights; Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. https://lex.uz/docs/111189; «Фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти-ҳаракатлар ва қарорлар устидан судга шикоят қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. https://lex.uz/docs/116757

[9] Жумаев Р.З. Политическая система РеспубликиУзбекистан: становление развития.-Т.: Фан, 1996



O'sha davrda Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan bugun yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu joydagi yalpi xavfsizlikka mintaqaviy, milliy, mahalliy mojarolar, diniy ekstremizm va jangari separatizm tahdid solayotgan edi. Bunday qarama-qarshiliklarda chetdagi ayrim yirik mamlakatlarning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish, kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirishi uchun olib borayotgan harakatlari ham o'z o'rniga ega bo'lganini nazardan qochirib bo'lmaydi.

**Ikkinchidan,** o'tgan asr so'nggi o'n yilligigacha ilgari Turon, Turkiston zamini sifatida yaxlit hudud ekanligi e'tirof etilgan mintaqa bir necha respublikalarga bo'lib yuborildi. Ayni paytda yagona sovet ittifoqi g'oyasiga alohida e'tibor qaratilinib, «SSSR – bizning umumiy vatanimiz» g'oyasi keng targ'ib qilindi.

O'tgan yuz yillik oxirida sobiq SSSR barham topishi bilan sharoit tubdan o'zgardi. Mintaqa davlatlari o'z istiqlol yo'lini belgilab olishi zaruriyatiga aylandi. Ular orasidagi munosabatlarni yangi davrga moslash, asosiy aloqalarni tiklash, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish zaruriyatini va imkoniyati paydo bo'ldi.

Mamlakatimizning milliy tiklanishiga tahdid tug'diruvchi sabablardan yana biri — mintaqa o'zining jo'g'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagani hududda joylashganligi bilan bog'liqligi edi. Zero, butun dunyo, Yevrora va Osiyo kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan energiya, gaz va neftga boy konlar Markaziy Osiyoda joylashgan.

Buningi ustiga biz Sharq va G'arb mamlakatlarining manfaatlari bir-biriga mos kelmaydigan mintaqaning bir qismimiz va bizning hududimizdan ko'pgina qudratli mamlakatlar ham o'z manfaatlarini izlashi ham aniq va bu bugungi kunda ham davom etmoqda.

**Uchinchidan,** O'tgan asr oxiri va XXI asr boshlarida ham ba'zi sobiq ittifoqdosh mamlakatlarda eski tuzumni qumsaydigan turli siyosiy shiorlarni bayroq qilib olgan kuchlar saqlanib qolgan edi. Ular o'sha davrda mintaqaviy mojarolarni keltirib chiqarishdan manfaatdor bo'lib, istiqlol yo'liga o'tgan

xalqlarni o‘z ta’siriga olishga harakat qilishar edi. Ayni paytda jahondagi ba’zi ulkan davlatlar va ayrim siyosiy kuchlar ham mintaqaga qayta ta’sir ko‘rsatishga harakat qilishini ham alohida qayd etish lozim.[10]

Bu esa o‘z navbatida mintaqa xalqlari milliy yuksalish uchun doim tarixiy jihatdan salbiy rol o‘ynab kelgan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lgani ma’lum.

**To‘rtinchidan,** mintaqada yashaydigan xalqlar tarixi va taqdiri ba’zi-ba’zida sodir bo‘ladigan beqarorlik o‘choqlari ham katta ta’sirga ega. Keyingi o‘n yilliklarda Afg‘onistonning ana shunday beqarorlik o‘chog‘iga aylangani buning yaqqol nishonasidir. Bunday sharoitda bizning yurtimiz o‘zining butun imkoniyatlarini nafaqat o‘zi uchun, balki mintaqa tinchligi uchun ham ifodalashi lozimligi shubhasizdir. Istiqlolning ilk yillaridanoq bu omil bilan bog‘liq jarayonlar davlatimiz diqqat markazida turganining boisi ham shunda.[11]

Bugungi kun realliklari kontekstida shuni takidlash lozimki, alohida qayd qilingan barcha jarayonlarga biz yashayotgan mintaqadagi umumiy do‘stlikka putur yetkazishga qaratilgan harakatlar deb baho berish mumkin, albatta. Bunday harakatlarga nisbatan qarshi turish maqsadida o‘tgan davrda ko‘plab tadbirlar amalga oshirilgan.

Bu jihatdan o‘sha davrdagi milliy tiklanish amaliyoti uchun nihoyatda muhim bo‘lgan alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ushbu holat «milliy tiklanish» tushunchasining mazmun-mohiyatini bir qadar belgilaydigan omillar, ya’ni mamlakatning tashqi va ichki milliy siyosatiga taalluqli, ichki andozasidan kelib chiqqan g‘oyaviy konseptual, nazariy asosi va amaliy ziddiyatlarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb qilishdan dalolat beradi.

«Mustaqil O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki davrlaridan o‘z istiqboli sari tinchlik, millatlararo totuvlik yo‘lidan, ezgulik va samimiylik yo‘lidan bormoqda».[12] Millatimizning ma’naviy qadriyatlarini tiklash – yuksaklikka olib boruvchi yo‘ldir. Ma’naviy-madaniy sohadagi milliy siyosat bunga amaliy ta’sir

[10] Жўраев Т., Акобиров С. Миллий манфаатлар ва миллий хавфсизлик. –Т.: «Akademiya», 2007. -106 б.
[11] Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. –Т.: Akademiya, 2007. -252 б.
[12] Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 327 б.



ko‘rsatishi tarixda ko‘p bor isbotlangan.[13] Bu jihatdan alohida ta’kidlash joizki, «Milliy yuksalish» g‘oyasi mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijalariga erishishning samarali yo‘llari va imkoniyatlarini ham o‘zida aks ettiradi.

Xo‘sh, ushbu g‘oyaning asl mazmun-mohiyati, tayanch paradigmalari va umummilliy tamoyillari nimalardan iborat? Uning milliy biqiqlik va milliy mahdudlik, proteksionizm va izolyusionizm uchun asos bo‘ladigan ba’zi sarob g‘oyalardan farqi nimada? Bu borada shakllangan ayrim metodologik xulosalardan Yangi O‘zbekistonni barpo etish va islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq partiyaviy vazifalarni bajarishda nimalarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim?

Alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy-falsafiyi ma’noda «Yuksalish»g‘oyasi muayyan xalq yoki davlat tomonidan o‘z taraqqiyotining bir davridan ikkinchi davriga o‘tish yoki jamiyatdagi umrini o‘tab bo‘lgan tushuncha va tamoyillar, amaliy faoliyati mezonlari, ba’zi tartib-qoidalar hamda eskirgan ijtimoiy munosabatlarning tayanch paradigmalarini zamonaviy talablar asosida isloh etish va rivojlanishning yangi bosqichiga erishish jarayonini ifodalaydi va barqarorlikni ta’minlashgat xizmat qiladi.

“Barqarorlik deganda odatda: 1) jamiyat xayotining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uyg’unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar vakillarining hamkorligi va hamjihatligi tushuniladi. Falsafiy ma’noda, barqarorlik - bu tinchlik tufayli jamiyat hayotining qat’iy, doimiy, muqim, mustahkam, bir tekis tarzda faoliyat ko‘rsatish asosida rivojlanish imkoniyatlariga aytiladi. Tinchlik barqarorlikning o‘q ildizi bo‘lsa, barqarorlik tinchlikning hosilidir”[14].

Insoniyatning ko‘p asrlik tajribasiga ko‘ra, biror-bir mamlakatning bu jabhada tanlagan islohotlar strategiyasi o‘ziga xos bo‘lib, boshqa mamlakatning yuksalishi uchun aynan mos kelmaydi. Ayni paytda, ushbu sohada ham umumiy qonuniyatlar,

[13] Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. Т.: Маънавият, 2016. – 32 бет; Ибрагимов О. Ижтимоий ва маънавий соҳа – сиёсатнинг концептуал негизи. // «Санъат ва маданият масалалари ёшлар нигоҳида» мавзуидаги илмий-назарий конференцияси материаллари. Т.:-»Наврўз» нашриёти. 2016. – 91 б.
[14] Миллий ғоя ва мафкура / Яхшиликов Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Самарканд давлат ун-ти. -Тошкент: Фан, 2015. -218 б.

asosiy paradigmalar va ustuvor tamoyillar shakllangan. Shu bilan birga, mazkur g‘oyani amalga oshirishning har bir mamlakatga xos xususiyatlari bo‘lishi ko‘pchilik olimlar va mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan.

Shu ma’noda, qadimgi dunyoning dono faylasuflaridan biri Konfutsiyning «Yuksalish - ezgu maqsad, barqarorlik - unga erishishning shart-sharoiti, islohotlar esa uni ta’minlashning asosiy vositasidir» degan fikri har qanday yangi taraqqiyot davriga o‘tishning mazmun-mohiyatini lo‘nda ifodalaydi.

O‘z navbatida, xalqlar tarixining bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishining muhim jihatini aks ettirgan mazkur xulosaning, nafaqat ushbu faylasuf yashagan zamon, balki o‘z taraqqiyotining muayyan davrida islohotlarni amalga oshirishga bel bog‘lagan ko‘plab xalqlar va davlatlar faoliyatining asrlar davomida isbotlangan muhim tamoyillaridan biriga aylangani ham bejiz emas. Ana shunday tamoyillarni aks ettirgan huquqiy hujjatlar esa mamlakatdagi dekmokratik islohotlarning asosi va garoviga aylanadi. [15]

Dunyo xalqlarida «Yuksalish» tushunchasiga bir qator iboralarni qo‘shib ishlatish tajribasi ham to‘plangan. «Iqtisodiy yuksalish», «Ijtimoiy yuksalish», «Ma’naviy yuksalish», «Madaniy yuksalish» kabilar ana shu asosda shakllangan. Masalan, Fransiya, Germaniya, Shvesiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning II Jahon urushidan keyingi rivojlanishi uchun asos bo‘lgan va XX asr o‘rtalaridan boshlangan taraqqiyot strategiyalarida iqtisodiy yuksalish masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilgani ma’lum. Bu o‘z-o‘zidan, ushbu mamlakatlarning o‘sha davrdagi siyosiy leksikonida «iqtisodiy yuksalish» tushunchasining nisbatan ko‘proq ishlatilgani va u mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning umumiy va o‘zak iborasiga aylanganidan dalolat beradi.

Ba’zi taniqli xorijiy ekspertlar fikriga ko‘ra, «yuksalish» tushunchasiga «milliy» iborasi qo‘shib ishlatilganida, ko‘p hollarda, muayyan xalq yoki biron bir davlat taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari asosida rivojlanayotgani ham anglatiladi. «Milliy yuksalish» tushunchasi aniq bir xalq yoki mamlakatning milliy

[15] Мардаев Б. Давлат хомияти ва бошкарувни демократлаштириш. // Конституция – мамлакатимиздаги декмократик, либерал ислохотларнинг асоси ва гаровидир» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Т.: - Vneshinvestrom MChj нашриёти. 2014. – 58-63 б.



o‘zligi, o‘ziga mos taraqqiyot tamoyillarini yaxlit namoyon qiladi. «Milliy iqtisod», «Milliy bayroq», «Milliy valyuta» degan iboralar ham xuddi shunday o‘ziga xoslikni ifodalaydi.

Milliy biqiqlik va milliy mahdudlikning natijasi bo‘lgan «proteksionizm» bilan bog‘liq g‘oyalar esa muayyan mamlakatning o‘z qobig‘iga o‘ralgani hamda tashqi dunyodan ajralib qolganini anglatadi. [16]

Bundan farqli ravishda, bugungi kunda bizning mamlakatimizda «Yuksalish» g‘oyasining keng ma’nodagi tushunchasi qo‘llanilmoqda. Bizning nazarimizda «Yuksalish» – yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ezgu maqsad-muddaolarini aks ettiradi va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini ta’minlashga bel bog‘lagan umumxalq harakatining bosh g‘oyasini ifodalaydi. Uning ma’no-mazmunini belgilaydigan umuminsoniy tamoyillar va tayanch paradigmalar ham ana shu asosda shakllanmoqda, hayotimizdan va tafakkurimizdan mustahkam o‘rin egallamoqda.

Bu jihatdan, jamiyatimiz ijtimoiy hayotida yuzaga kelayotgan muhim o‘zgarishlar va yangilanishlar, xususan «Yuksalish» umummilliy harakatining shakllanishi va bugungi kundagi faoliyati ayni ana shu hayot talabini ifodalaydi.

Ma’lumki, keyingi yillardagi jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik muhiti shakllangani, davlatimizning shaffof va xalqchil siyosati tufayli, turli darajadagi davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar bilan birga, fuqarolik institutlari, nodavlat tuzilmalar faoliyati ham ijobiy natijalarga erishishga yordam bermoqda.

Mamlakatimizda yaqinda tashkil topgan va eng asosiy maqsadi fuqarolar, xorijda yashayotgan vatandoshlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, biznes hamjamiyati, akademik doiralar vakillarini, bir so‘z bilan aytganda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan kishilarni o‘z atrofida ixtiyoriy asosida birlashtirish hisoblanadigan «Yuksalish» umummilliy harakatining shakllanishi va bugungi kundagi faoliyati buning yaqqol misolidir.

Ushbu fuqarolik instituti O‘zbekistonni taraqqiy ettirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so‘ng

[16] Назаров К. Жахон фалсафаси комуси. 2 жилд. –Т.: Ўзб. файласуфлари миллий жамияти. 2020. – 90 б.

uni jamoatchilikka yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil topdi va faqatgina Toshkent shahrida o'z ofisiga ega «taraqqiyot strategiyasi» markazi hamda oliy ma'lumotli va xorijdagi nufuzli tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan 250 dan ortiq vatandoshimizni qamrab olgan Buyuk Kelajak ekspertlar kengashi kabi nodavlat tashkilotlarning ta'sirida va ularning maqsadlaridan kelib chiqib paydo bo'ldi.[17]

O'zbekiston rivoji uchun hissa qo'shmoqchi bo'lgan har qanday soha vakillari tashabbusini qabul qiladigan va siyosiy ruhdan xoli bo'lgan mazkur umummilliy harakatning eng asosiy maqsadi islohotlardan barchani birdek xabardor qilish, chekkaroq hududlardagi aholiga yetkazish, qiziqish uyg'otish va harakatga keltirish, shu bilan birga, ularning taklifini, muammolarini eshitadigan va muhokama qiladigan maydonni yaratib berish va shu orqali davlatga ishonchini mustahkamlashdan iboratdir.

«Yuksalish» umummilliy harakatining bu boradagi faoliyatida quyidagi yo'nalishlarning belgilab olingani esa mazkur jamoat tashkilotining amalga oshirayotgan ishlarining ko'lami va ahamiyatini ifodalaydi:

1) Aholi va ishbilarmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, jamoatchilik va biznes vakillarini o'ylantirayotgan muammo, to'siqlar va masalalarni aniqlash. Xususan, biznes vakillarining ehtiyojlari va talablarini o'rganish uchun ochiq muzokaralar o'tkazish, shuningdek hududlardagi investitsion muhitni yanada yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlash;

2) Keng jamoatchilik va biznes hamjamiyatini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi yuzasidan xabardor qilish, ularning fikr va takliflarini to'plash va umumlashtirish, ular asosida tahliliy axborotlar tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis palatalariga taqdim etish orqali fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish;

[17]«2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил7 февралдаги ПФ-494;



3) Davlat organlariga islohotlarning amalga oshirilishi, shu jumladan davlat va milliy dasturlarning bajarilishi bo'yicha murojaat va so'rovlarni kiritish, davlat organlarining ochiq kollegial yig'ilishlarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamalari va jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish, jamoatchilik monitoringi va jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish, jamoatchilik fikri so'rovlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

4) Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirish samaradorligi, shu jumladan davlat dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ijro etilishi, ijobiy va salbiy natijalarni o'rganish, amalga oshirilgan ishlarning sifatini baholash, davlat organlari va boshqalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan axborot asosida islohotlarning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlar umumlashtirish, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va ularni Prezident Adminstratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.

Xalq orasidagi muammolarni topib hal qilish va davlat miqyosidagi islohotlarni tushunarli tilda xalqqa, chet eldagi hamyurtlarimizga ham etkazish, ya'ni «Tepadan pastga va pastdan teraga» tamoyili asosida ishlaydigan mazkur harakat faoliyatida quyidagi yo'nalishlar ustivor bo'layotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda:

- butun xalqimizning iqtidori va salohiyatini, jamiyatimiz a'zolarining barcha qatlamlari imkoniyatlarini milliy yuksalish yo'lida safarbar qilish, ularni bu yo'lda birlashtirish va yakdil bo'lishiga erishish;

-demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarini monitoring qilish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish bu va harakatning boshqa faoliyat yo'nalishlari bo'yicha xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan uzviy aloqalarni o'rnatish;

- fuqarolarda mamlakatimizni rivojlantirishga bo'lgan dahldorlik hissini kuchaytirish, fuqarolarni yurtimizda ro'y berayotgan jarayonlarni anglash va muhokama qilishga jalb etish;

- barcha sohalarda eng ilg'or xorijiy davlatlarning aholi bilan o'zaro aloqa va fuqarolarning dolzarb muammolarini hal qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yishdagi

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 31137

tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston Respublikasida joriy qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish

Bularning barchasi, «Yuksalish» tushunchasi aslida bugungi jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishi va ushbu jarayonga xos umumiy muammolarni kreativ hal qilish yo'llarini izlab topish, islohotlarga daxldorlar safini yanada kengaytirishga yordam berishini yaqqol ko'rsatadi.

Zero ushbu tushunchaning ma'no-mantig'i ham ana shundan dalolat beradi.

Xullas, mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga doir faoliyatda mazkur masalalarning mohiyatini to'g'ri anglash va ular bilan bog'liq vazifalar yechimiga doir eng muhim va umumiy jihatlarga alohida diqqat-e'tibor qaratish zarur. Bunday umumxalq ahamiyatiga molik va butun jamiyat hayotining barcha sohalariga taalluqli umumiy masalalarga yengil-yelpi va tor doirada yondashmaslik, lozim. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining konseptual asoslari va paradigmalari shakllantirish nuqtai nazaridan, mas'uliyatni chuqur anglash, ushbu yo'nalishdagi umumxalq harakatining tarkibiy qismi sifatida faol harakat qilish zarurligini aslo yoddan chiqarmaslik darkor.[18]

Bu jihatdan, «Yuksalish» tushunchasi mamlakatimizda milliy tiklanish va yuksalish yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va faoliyaning asosiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

"Fuqarolik jamiyatini barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O'zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Davlat hokimiyati organlari tizimida Oliy Majlis Palatalari rolini kuchaytirish, davlatning ichki va tashqi siyosati bo'yicha muhim vazifalarni hal etish, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilishda Parlamentning huquq va vakolatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Biz yurtimizda

[18] Мавлонов Ж.Ё. Гражданское общество:от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ). Монография.- Т.: Истиқлол нури, 2014.



ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlab, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda Partiyalarning rolini oshirishga ko'maklashamiz"[19].

Ayni shu nuqtai nazardan, bu boradagi keng ko'lamli vazifalarning bajarilishi mamlakatimiz barqaror taraqqiyoti va yuksalishining muhim sharti, yurtimizda bir osmon ostida ma'lum bo'lgan barcha millat vakillari, bir siyosiy maydonda harakat qilayotgan partiyalar a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta.

## 1.2. Mustaqil taraqqiyot yo'li – O'zbekistonning milliy tiklanishi va yuksalishining asosiy omili

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'nggi davrni haqli ravishda mustaqil demokratik taraqqiyotimizning milliy tiklanish bosqichi deb ta'riflashga asoslar bor. Mustaqillik O'zbekiston xalqining o'z taqdirini haqiqiy egasi bo'lib yurtimizda huquqiy demokratik Davlat va kuchli fuqarolik jamiyatin barpo etish hamda munosib hayot kechirish imkoniyatini amalga oshirish uchun zamin yaratdi.[20]

Istiqlolning ilk yillaridagi milliy tiklanishga nisbatan tahdid manbalari orasida O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan ba'zi mamlakatlar qurshab turganligi ham alohida tahlilni talab qiladi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh bo'lganini ham nazardan qochirmaslik lozim. Mintaqaviy nizolarning ko'pincha terrorizmi va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy sur'atda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib borishi esa masalani yanada murakkablashtiradigan omillar sirasiga kiradi.

[19] Мирзиёев.Ш.М Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. - 592 б.
[20] Матёкубов Н. «Мустақиллик - тоғдек таянчимиз». // Миллий ғоя – бизнинг ғоя (Матн) / - Т.: «Турон замин зиё», 2016. – 43-46 б.

Xullas, o'sha davrda milliy tiklanish jarayoniga tahdid qiladigan omillar orasida xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlari siyosiy ekstremizm, jumladan, diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o'z ichiga olar edi.

Bu jihatdan, ayniqsa keyingi davrlarda geosiyosiy maqsadlarning ko'proq mafkuraviy siyosat bilan hamohang tarzda namoyon bo'layotgani yaqqol ko'zga tashlanadi.[21]

Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizdagi milliy tiklanish jarayoniga xalal beruvchi omillardan biri aynan ana shu jabhadagi xavf-xatarlar va tahdidlar bilan bog'liqligini anglatadi.

Shu sababga ko'ra, «O'zbekiston davlatining o'tgan yillarda jahon hamjamiyatiga uyg'unlashishiga harakat qilganini alohida ta'kidlashimiz lozim. Bunday uyg'unlashish mexanik jarayon emas, balki siyosiy, tashkiliy, moddiy, nazariy xatti-harakatlarni, mafkuraviy mustahkamlashni, o'tmish qadriyatlari bilan bir qatorda xalqimizning hozirgi intilishlarini ham hisobga olishni talab qiladigan murakkab dialektik jarayondir. Keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar va qarorlar, farmonlar va ayniqsa Prezidentimizning «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» kitobi buni yaqqol isbotlaydi, deyish uchun barcha asoslar bor».[22]

«Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy talqinida O'zbekistonning xalqaro munosabatida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi bilan bog'liq tadrijiy va dinamik jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi.

Insoniyatning keyingi asrladagi tarixi shundan dalolat beradiki, bunday jarayonga tortilgan mamlakat dunyoning mustaqil bo'g'iniga aylandi, milliy tiklanish hamda

[21] Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. Огоҳлик ва ҳушёрлик тамойиллари. Ш.Пахрутдинов, Т.Жўраев ва бошқалар. –Т., Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2008. 456 б.

[22] Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021; «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил7 февралдаги ПФ-494;«2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.https://lex.uz/docs/5841063.



yuksalish yo'liga qadam qo'yadi-yu o'z imkoniyatini va xalq iqtidorini ana shu sohadagi imkoniyatlarni voqeylikka aylantirishga sarflaydi.

Har qanday hodisani o'rganish, u vujudga kelgan shart-sharoitlarni, tarixiy rivojlanish jarayonida uning mazmunida yuz bergan barcha o'zgarishlar va boshqa shu kabilarni tadqiq etishini taqozo qiladi. Shuning uchun ham O'zbekistonning mustaqilligi davrida shakllangan «Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalari nuqtai nazaridan butun diqqatni shu bugungacha saqlab kelingan an'analar va urf-odatlarga nisbatan yangicha munosabat shakllanishini tadqiq etishga, shuningdek yangi urf-odatlar va an'analarning milliy tiklanish hamda xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi rolini aniqlash, milliy mentalitet va demokratik tafakkur dialektikasiga qaratish muhim ahamiyatga egadir.[23]

Bunday yondoshuv ularning mohiyati va funksional maqsadini tushunish uchun muhim uslubiy ahamiyatga molikdir. Uzoq yillar davomida yangi avlodda mehnat ko'nikmalari hosil qilish, yoshlarning mehnatini tartibga solish an'analar va urf-odatlarning muhim vazifasi bo'lgan.

Hozirgi vaqtda ushbu vazifa ishlab chiqarishning xarakteri o'zgarganligi, ta'lim tizimi va umumiy kasbiy tayyorgarlik mustahkamlanganligi sababli o'z ahamiyatini birmuncha yo'qotdi. Faqat hunarmandchilikda, xalq ustalarining faoliyatida va ayrim mexanizatsiya talab qilinmaydigan mahoratga bevosita mehnat faoliyati jarayonida erishiladigan qo'l mehnati bilan bog'liq ayrim boshqa sohalarda saqlab qolingan.

«Milliy yuksalish» nuqtai nazaridan an'analarning ta'sir doirasini toraytirib qo'yishi, ularning jamiyat hayotidagi rolini o'zgartirishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin. Albatta, milliy tiklanish jarayoni urbanizatsiya jarayonining ta'siriga uchrashi mumkin. Biroq, oila-turmush aloqalari anchayin barqaror, mahallaning odamlarga ta'siri kuchli bo'lgan, shahar va, qishloqning o'zaro mustahkam, aloqasi saqlanib qolgan, O'zbekiston sharoitlarida, an'analar to'liqroq saqlanib kelmoqda va shu tufayli xalq, turmushining etarli darajada, barqaror shakli ta'minlanmoqda.

[23] Малаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур: (XX аср сабоқлари ва XXI аср истиқболлари) –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. – Б. 112

Bu hol urf-odatlar, va an'analar (aksariyat qismi – 60 foizidan ortig'i qishloqlarda, yashovchi) xalq ma'naviy hayotiga ko'rsatadigan ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki kuchaytirish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ochiqlik va oshkoralik siyosati tufayli, endilikda, istiqlol yillarida dunyoda ro'y berayotgan voqealarni xolisona baholash, turli jarayonlarni ilmiy talqin qilish imkoni paydo bo'ldi.[24] Mamlakatimiz siyosiy va intellektual soha vakillari hozirgi zamon tahdidlarini teranroq anglagan holda mintaqa atrofida kechayotgan murakkab jarayonlarni to'g'ri tahlil eta boshladi. Shu nuqtai nazardan ushbu qism mustaqilligimizni dastlabki yillaridan e'tiboran milliy manfaatlar, milliy va mintaqaviy xavfsizlik hamda bugungi tahdidlar va ularga qarshi ogoh bo'lish haqidagi dalillar va misollar asosida yaratilgan.

Bu borada avvalo, istiqlolning ilk yillaridagi milliy tiklanish jarayoniga sobiq ittifoqdan qolgan ta'sirning o'rni va salbiy ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Darhaqiqat, sovet davlatida fuqarolar ustidan davlatning yoppasiga nazorati amalga oshiriladigan siyosiy tartibot o'rnatilgan edi. Bunday tuzum jamiyat va shaxs ustidan hokimiyatning yoppasiga nazoratini, butun ijtimoiy tizimning kollektiv maqsadlarga va yagona rasmiy mafkuraga bo'ysunishini o'zida ifoda etadi. Yagona mafkura hukmronligining o'rnatilishi esa, tabiiyki, plyuralizmni yo'q qilishni taqozo etardi. Aynan shu jihatdan ham totalitarizm tarixan halokatga mahkum tuzum sanaladi. Chunki bunday tuzum tobora tanazzulga uchraydi, unda tashabbuskorlik, fikrlar xilma-xilligi, muqobillik, tanlov imkoniyati bo'lmaydi. Demak, bunday tuzum dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olib, o'z vaqtida sifat jihatdan yangilanishga ham qodir emas. Chunki uning imkoniyatlari g'oyaviy dogmalar bilan cheklangan.

Darhaqiqat, sovet tuzumi yetakchilari jamiyatning barcha a'zolarida mutlaqo bir xil dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilganlar. Bunda davlat kishilarning

[24] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. - 567 б.



atrof dunyoga munosabati, jamiyatning tuzilishi va unda shaxsning o'rniga oid qarashlari hamda shaxsiy mayllarini belgilab berishga va boshqarishga harakat qilgan. [25]

Atrof dunyoga munosabat bolalikdanoq shakllanishi inobatga olinib, sovet davlatida ta'lim tizimidan kishilarga yagona mafkurani singdirish quroli sifatida foydalanilgan. Rasmiy mafkura har bir darslik va qo'llanmadan o'rin olgan, muqobil fikrlar esa mutlaqo bayon etilmagan, toki o'quvchi uning savollariga o'zgacha javoblar ham mavjudligi haqida bilmasligi kerak. Umuman olganda, inson totalitar jamiyatda yoshidan qat'iy nazar hamisha tarbiya obyekti bo'lib qolaveradi. Shunday qilib, xalqni yagona rasmiy mafkuraga bo'ysundirish xalqni boshqarish vazifasini osonlashtirar edi.

Sobiq SSSR va hozirgi mustaqil O'zbekiston milliy siyosatlarining nazariy-uslubiy tahlili va mazmuniga, tuzilishiga, siyosiy va huquqiy jihatdan ta'minlanishiga qiyosiy-taqqoslama yondashuvi mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davridagi tiklanish jarayoniga doir bir qator muhim jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

**Birinchidan,** SSSR milliy siyosati doirasida kadrlar masalalari ustuvor darajada partiya-davlat monoroliyasi va nomenklatura tizimi asosida hal qilingan. Bunda xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yuqori lavozimga tavsiya etish markaz tomonidan qat'iy ravishda reglamentlanib, respublika kadrlar tarkibi asosan aholining rus tilida so'zlashuvchi vakillari va mamlakatning boshqa mintaqalaridan ko'rsatilgan vakillar hisobiga ta'minlanib borilgan.

**Ikkinchidan,** agar sobiq SSSRning milliy siyosatida rasmiy muomala sohasida rus tilidan foydalanish va uni qo'llashni kengaytirishga ustuvorlik, rus tilini bilish shart ekanligi va bu hol millat hamda elatlarning rivojlanishiga daxldor ko'plab masalalar va muammolar hal etilishida hisobga olingan bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, milliy madaniyatni, ma'naviy muhitni ruslashtirish siyosati amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi xalqlarini rivojlantirishdagi yangi mafkura tub millatningi tilini davlat tili sifatida e'tirof etib, barcha tillarning, teng

[25] Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 327 б.

huquqliligi, boshqa millat, va elat vakillariga ta'lim olishda, kasb-hunari o'rganishda, o'z tilidagi, ma'naviy merosdan foydalanishda shart-sharoitlari va imkoniyatlar yaratish prinsiplariga tayanadi.

**Uchinchidan,** sobiq SSSRning milliy siyosatida diniy ahloqiy-etnik qadriyatlar va ma'naviy, ayniqsa, teologik meros madaniyatga zid ko'rinish sifatida tasniflanib, vijdon erkinligi va diniy e'tiqod kurashuvchan ateizm yordamida tiyib turilgan. Buning oqibatida turli millat va elatlarning vakillari o'z ma'naviyatining tarixiy ildizlaridan amalda begonalashtirilgan bo'lib, avvalgi avlod bilan aloqalari uzilib qolgan edi. O'zbekiston Respublikasining milliy siyosati haqida gapiradigan bo'lsak, bu siyosat diniy e'tiqodlar va oqimlarning serqirraligini saqlab qolishga, konfessiyalar va boshqa birlashmalarning erkin amal qilishiga, ularning ijtimoiy munosabatlar tizimida teng huquqliligini ta'minlashga, yangilanish jarayonida to'laqonli ishtirok etishiga, ma'naviyat, xalqning axloq udumlari qayta tiklanishiga qaratilgan. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar esa davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.[26]

**To'rtinchidan,** SSSRning milliy siyosati umumittifoq va baynalmilal an'analarga, millat va elatlarning turmushiga bir xildagi milliy qadriyatlarni joriy etishga xizmat qilar edi. Mustaqil yurtimizda o'z xalqining tarixi to'g'risidagi, milliy ruhiyati va fe'l-atvori, o'ziga xos mentaliteti haqidagi bilimlarni qayta tiklashga qaratilgan.

Istiqlol tufayli demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston jamiyat hayotida plyuralizmni qaror toptirish yo'lidan bordi. Totalitarizm asoratlaridan xalos bo'lishda siyosiy plyuralizm tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etar edi. Zero, siyosiy plyuralizm jamiyatda ko'pfikrlilik va qarashlar xilma-xilligining qaror topishini taqozo etar edi. Siyosiy plyuralizmni qaror toptirish jamiyatda turli g'oyalar, qarashlar, mafkuralar, konsepsiyalarning hamda ularni ilgari surgan siyosiy kuchlar, partiyalar va boshqa institutlarning erkin raqobati

[26] Маматқобилов Т. «Маънавий ислоҳотлар – давлат сиёсатининг устивор йўналиши». // Миллий ғоя – бизнинг ғоя (Матн) / - Т.: «Турон замин зиё», 2016. – 62-65 б.



muhitining yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qilardi.[27] Bu esa, o'zi navbatida, kishilarningi turfa xil manfaatlarini qondirish, samarali siyosiy qarorlar qabul qilishi mavjud nuqtai nazarlarni yanada boyitish, jamiyat hayotini yangilash imkonini berar edi.

Bu jihatdan, siyosiy plyuralizmi jamiyatda demokratiyaning yetukligi darajasi ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, plyuralizm tafovutlarni inkor etmagan holda siyosiy jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan qabul qilinadigan umumiy tamoyillar va qoidalar bo'lishini va ularga itoat etishni shartlab qo'yadi. Ayniqsa, fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik qaror topgan muhitda muloqot odobiga amal qilish, o'zgacha fikrlaydiganlar mulohazalariga hurmat bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jihatdan tadqiqotimiz «**Milliy tiklanish**» tushunchasi uzoq davom etgan mustabid tuzum davrida xalqning, millatning boy berilgan qadriyatlari, salohiyat va imkoniyatlarining qayta jonlanishi, moddiy va ma'naviy boyliklarning millatning mustaqil demokratik rivojlanish tarixining ma'lum bir bosqichida qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan tarixiy zaruriyat isifatidagi obyektiv tarixiy jarayon ekanidan dalolat beradi. Ayni paytda bu butun Markaziy Osiy mintaqasida yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik asosida rivojlanayotgan qardosh xalqlar uchun umumiy voqelik sifatida namoyon bo'ladi. [28]

Mustaqil taraqqiyotimizning keyingi yillari mobaynida Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga, milliy yuksalish davriga qadam qo'yildi. Bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlari tufayli xalqimiz hayotida talaygina o'zgarishlar ko'zga ko'rinmoqda, odamlarning dunyoqarashi, tafakkuri o'sib bormoqda. Demokratik islohotlarni yanada takomillashtirish fuqarolik jamiyatini

[27] Расулова Н.С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2008 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Тошкент: 2010. – 147 б.

[28] Мирзиёев Ш.М. Самарканд шахрида ўтган »Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, баркарор ривожланиш ва тараккиёт йўлидаги хамкорлик» мавзусидаги халкаро конференцияда сўзлаган нутки. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeev ning-sama-10-11-2017;

rivojlantirish bo‘yicha bir qator yangicha qadriyat va an’analar shakllanmoqda[29].

Bugungi globallashuv sharoitida milliy yuksalish tamoyillari tabiatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni jamiyat taraqqiyotining sharti sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish, uning manfaatlarini islohotlarning asosiy mezoni tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etdi.

Yurtimizda milliy tiklanishning asosiy omillaridan biri sifatida, ma’naviyat insoniylikka olib boradigan yagona yo‘l ekanligiga urg‘u berilib, mustaqil O‘zbekiston o‘z kelajagiga xuddi shu yo‘l — ezgulik va insoniylik yo‘li orqali borayotganligini alohida e’tirof etildi. Mamlakatimizning istiqlol davriga xos ma’naviyat strategiyasining mohiyati ana shunda, albatta.[30]

O‘z navbatida kelajagi buyuk davlatni barpo etish, yosh avlod tarbiyasi bilan birga ularni o‘stirib voyaga yetkazuvchi onalarga ham bog‘liqligiga e’tiborimizni qaratadi. Shu bois mamlakatimizda ayollarga jiddiy e’tibor qaratish, ularning mehnatini munosib taqdirlash, yoshlar kamoloti, jismoniy sog‘lom, ma’naviy boy va axloqan barkamol yoshlarni tarbiyalashdagi xizmatlarini qo‘llab quvvatlash muhimligiga jiddiy masala sifatida yondashiladi. Onalar to‘g‘risida, ularning farzandlari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni Prezidentimiz davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, ular to‘g‘risida qayg‘urishni davlatning muqaddas burchi, deb hisoblaydi.

Shu bois ham, mustaqillikning ilk yillaridanoq milliy tiklanish g‘oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri qilib ko‘rsatildi. Yoshlarning ma’lumot olish imkoniyatlari va umuman ma’naviy-intellektual darajasini oshirishga doir masalalar dolzarb ekanligi e’tirof etildi. So‘zsiz, xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishning zarur sharti, milliy tiklanishimizning muhim omili yoshlar tarbiyasidir[31].

[29] Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017, 491 б.; Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмокда. https://president.uz/uz/lists/view/4547;

[30] Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. - Т.: Маънавият, 2016. – 32 бет

[31] Музаффаров А. Ўзбекистонда таълим сиёсати ва ёшлар. // «Конституция – мамлакатимиздаги декмократик, либерал ислохотларнинг асоси ва гаровидир» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Т.: - Vneshinvestrom MChj нашриёти. 2014. – 83-85 б.



Tarixdan ma’lumki, har qanday jamiyat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga uning a’zolarining bilimi va shu bilim asosida shakllangan o‘ziga xos tajribasi bilangina erisha oladi. Xalqining maqsad va intilishlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ularning bilimi va tajribasiga tayangan millatning tiklanish g‘oyasigina amaliy ahamiyat kasb etadi, keng jamoatchilik tomonidan qo’llab quvvatlanadi. Boisi, savodli insongina ma’naviyatsiz, manqurt shaxsdan farqli o‘laroq yuksak ma’naviy qadriyatlar asosiga qurilgan va shu asosdan ozuqalanadigan, millatining kelajagini ta’minlashga qodir g‘oyaning asl mohiyatini chuqur anglashi mumkin bo‘ladi. Shu bois ham asarda aholining ma’lumoti darajasi, uning professional tayyorgarligi davlatimizning yangi asr arafasidagi ijtimoiy rivojlanishining o‘lchovi qilib belgilanadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning to‘g‘ri yo‘ldan borishi va muvaffaqiyatining asosiy kafolati qilib ko‘rsatiladi.

“Har bir mamlakatning tarixiy va tadrijiy rivojlanish jarayonidan ma’lumki, davlatning jadal rivojlanishi, xalqning farovon yashashi, oldinga qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishishida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari kafolatlanganligi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish darajasi, yaratib berilgan shart-sharoitlari, ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tiboriga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekiston yoshlarini siyosiy jarayonlarda ishtiroki etishi mamlakatning taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Yoshlarning ijtimoiy hayotda faollik darajasi oshmas ekan mamlakat hech qachon ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda rivojlanishi amri maholdir”[32].

Mutaqillikning ilk davridanoq, o‘zbek millatining muqaddas burchi sifatida, u bilan yangi jamiyat qurishda yelkama yelka turib mehnat qilayotgan va o‘z taqdirini O‘zbekiston taraqqiyoti bilan bog‘lab, birgalikda hayot kechirayotgan kam sonli xalqlarning taqdiri to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ularningi o‘ziga xos ma’naviy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolish uchun hamda o‘zligini namoyon

[32] Xudaynazarov A. Yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy jarayonlar subyekti sifatida // O‘zMU xabarlari. 2023. № 1/5. 203 b.

qilishi uchun teng sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish vazifasi dolzarb ahamiyatga ega ekanligi alohida e'tirof etildi.[33]

Darhaqiqat, xalqimizda azal azaldan tinchlik, millatlararo totuvlik va do'stlik g'oyasi, ularni o'z taraqqiyotining har bir bosqichida mustahkamlashga intilish hissi o'ziga xos bir fazilat bo'lib kelgan. Shu bois ham Prezidentimiz bu fazilatlarni avloddan avlodga o'tishiga, davlatimizning ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan chinakam demokratik, ko'p millatli davlat bo'lib qolishiga ishonch bildiradi. Zero, nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglagan va ularni milliy qadriyatlar barobar ulug'lay olgan millatgina o'z taraqqiyotida ko'zlagan maqsadiga erisha oladi.

Mamlakatimizdagi milliy tiklanish nuqtai nazaridan, istiqlol yillarida qo'lga kiritilgan natijalarni sarhisob qilishda O'zbekistonning o'tgan asr oxiri va bugungi asrning birinchi o'n yillikdagi mustaqil taraqqiyot yo'lini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin. Bunda 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan istiqlolimizning birinchi o'n yilligini qamrab olgan ilk bosqich hayotning barcha sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan davrdir.

Mazkur davrda amalga oshirilgan islohatlar uchun asos bo'lgan taraqqiyot yo'lining mazmun-mohiyatini o'rganishda, avvalo, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

**Birinchidan,** O'zbekistonning mustaqilligi oson va o'z-o'zidan qo'lga kiritilmadi, balki birinchi yurtboshimiz rahnamoligidagi xalqimizning sobitqadam va sermashaqqat faoliyatining natijasi bo'ldi. Shu ma'noda, istiqlol kimningdir in'omi emas, balki ko'plab kurashlar, muntazam hamda samarali faoliyat asosida qo'lga kiritilgan qonuniy natija, xalqimizning ulkan yutug'idir.

**Ikkinchidan,** bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning e'tirofiga ko'ra, istiqlolning ilk davridan boshlab amalga oshirila boshlagan o'zgarishlar va islohotlar o'z davridayoq muhim tashabbuslarga olib keldi.

[33] Алиев Б., Йўлдошев О., Қаххорова М. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. - Т.: «Иктисодиёт», 2011. – 39 бет.



**Uchinchidan,** O'zbekistonda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizasiya qilish davom ettirildi, hamda, ushbu jarayon hozirgacha amalga oshirilayotgan rejalar va dasturlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergani bilan muhim ahamiyatga molikdir desak ayni hayotiy haqiqatni ifodalagan bo'lamiz.

**To'rtinchidan,** o'sha davrda o'zini to'la oqlagan islohotlarning mashhur besh tamoyili ishlab chiqildi va joriy etildi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, shahar va qishloqlarimizning ko'rkamlashuvi, xalqimizningi turmush tarzi farovonlashib borishi ushbu tamoyilning naqadar to'g'ri ekanligini isbotlamoqda.

**Beshinchidan,** mazkur tamoyillar mamlakatimizni isloh etish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini yaratdi, dunyoda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davrida ham mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga turtki bo'ldi. Aynan ana shu tamoyillar asosida paydo bo'lgan «islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun» degan shior bugun hammamizning ongimiz va qalbimizga singib ketdi.

**Oltinchidan,** istiqlolning ilk davridan islohatlar boshlanmasidanoq xalqaro tajribalar bilan birga xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda milliy qonunchiligimiz hamda zamonaviy xalqaro huquqning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va qabul qilish ham davlatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Bu jihatdan yana quyidagilarni alohida ta'kidlash zarur:

Avvalo, mamlakatimizda o'sha yillarda shakllangan rahbariyat, ayniqsa Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning yurtimiz milliy tiklanishida o'z o'rni va ta'sirini e'tirof etishimiz lozim. Masalan, «Mustaqillik uchun kurash yillarida,- deb ta'kidlaydi A.Erkayev,- Birinchi Prezidentimiz ilgari surgan g'oyalar istiqlolning ilk davri islohotlarini amalga oshirishda muhim asos, ma'naviy manba sifatida namoyon bo'lganini alohida ta'kidlash lozim».[34]

[34] Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2017, 50-бет.

O‘zbekiston Resrublikasining SSSR tarkibidan chiqishi mustaqil milliy siyosatni ishlab chiqish imkoniyatini berdi. Bunday siyosatning asosiy prinsiplari Oliy Kengashning «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi bayonotida ifodalab berildi.[35] Ana shu hujjatlardagi qoidalarning ko‘pi keyinchalik o‘z tasdig‘ini topib, O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yildi. Yuqorida uqtirib o‘tilgan davlat hujjatlarining barchasida O‘zbekiston bundan buyon ham chinakam baynalmilal Respublika bo‘lib qolishi[36], millatidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar O‘zbekistonning suveren xalqini tashkil etishi[37] g‘oyalari ta’kidlandi va mustaqil milliy siyosatni amalga oshirishning asosini tashkil etdi.

O‘zbekistonning istiqlolining ilk davridayoq mustaqil ravishda milliy tiklanishi uchun amalga oshirilayotgan o‘z milliy siyosatini ishlab chiqish zarurati nafaqat resrublika aholisi tarkibining ko‘p millatli ekanligi bilan bog‘liq edi. Balki bunday tiklanish jarayoni uchun zarur va diqqatga sazavor omillardan biri, mintaqamizdagi geosiyosiy makonda millatlararo keskinlik manbalari mavjudligi taqazosi ham bo‘ldi.

Shu bilan birga, o‘sha davr boshidanoq, barcha fuqarolar uchun umumiy shart-sharoitlar yaratishga xalaqit qilingani, faoliyat intellektual salohiyatini maksimal darajada safarbar etish ehtiyojlari ham bunday yo‘l tutilgani har tomonlama maqbul bo‘lganidan dalolat beradi.

Ushbu davrga xos milliy tiklanish jarayoni bugungi kunda o‘z ahamiyatini to‘la-to‘kis namoyon qilmoqda. O‘z navbatida bu keyingi ishlarda islohatlar poydevori mustahkam bo‘lishidan dalolat beradi.[38]

Ushbu jarayonning ma’no-mazmunini belgilaydigan tub islohotlarni mamlakatimizda istiqlol yillarida mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ezgu intilishlarning mantiqiy davomi bo‘lmoqda, deyish mumkin. Bu bevosita zamon

[35]Правда Востока, 1991, 5 сентябр.
[36]Правда Востока, 1990, 4 ноябр.
[37]Конституция Республики Узбекистан, Т.,Узбекистон, 1992, 10-бет.
[38] Мирзиёев Ш.М. Халкимиз розилиги бизнинг фаоли-ятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2018; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халкнинг иши хам улуғ, хаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2019.



bilan hamnafas, hozirgi sivilizatsiya talablariga javob beradigan, bugungi kun milliy va dunyoviy ehtiyojlarini nazarda tutgan, jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari bilan milliy xususiyatlarimiz, qadriyatlarimiz, davlatchilik usul va uslublarimiz bilan uyg‘unlashib ketgan, sintezlashgan kuchli va qudratli siyosiy tafakkur bilan bog‘liq.

Bu jihatdan «Jamiyat – islohotlar tashabbuskori» degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotganligi va unga tayanib ish ko‘rilishi zarurligi ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi.

Muxtasar aytganda, mustaqillik yillaridagi islohotlarning dastlabki bosqichida davlat jamiyatni yangilashning haqiqiy tashabbuskori va bosh islohotchi vazifasini bajardi va shunday bo‘lib qolmoqda. Milliy yuksalish uchun asos bo‘lgan tiklanish bosqichining bu davrida to‘laqonli mustaqil taraqqiyot yo‘lini amalga oshirish, milliy davlatchiligimizni qayta tiklash vazifalari uddalandi. Mustaqil taraqqiyotimizning 1991-2016-yillari istiqlol yo‘lidan sobit qadamlik bilan borayotgan O‘zbekistonning milliy tiklanishi va yuksalishi roydevorini barpo etish sohasidagi jiddiy va puxta ishlar olib borilgan davr sifatida xalqimiz tarixidan munosib joy egallagani shubhasiz.

## I bobga oid xulosa

«Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalari muayyan taraqqiyot yo‘lidan borayotgan xalq yoki davlatning rivojlanish yo‘lidagi maqsad-muddaolarini, bu jabhada amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarning pirovard natijalariga erishishning samarali yo‘llari va imkoniyatlarini ifodalaydi.

Ayni paytda, «tiklanish» va «yuksalish» tushunchalariga «milliy» iborasi qo‘shib ishlatilganida, ko‘p hollarda, aniq bir xalq yoki mamlakatning milliy o‘zligi, o‘ziga mos taraqqiyot tamoyillari xalq yoki taraqqiyotining o‘zi rivojlanish yo‘lidan borayotgani va shu asosda taraqqiy etayotgani ham namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrda bizning mamlakatimizda «Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalari yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning

samarasini ta'minlashga bel bog'lagan umumxalq harakatining bosh g'oyasini ifodalaydi. Bu jihatdan, ushbu g'oya mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari, shu zaminda yashayotgan turli millat vakillari, siyosiy partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlarining umumiy manfaatlari va mushtarak maqsadlarini aks ettiradi.

Izlanishlarimiz natijalari istiqlol yillarida mamlakatimizda «Milliy tiklanish» va «Milliy yuksalish» tushunchalarining milliy ma'no-mazmunini belgilaydigan umuminsoniy tamoyillar va tayanch paradigmalar hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarning hosilasi sifatida namoyon bo'layotgani, hayotimizdan va tafakkurimizdan mustahkam o'rin egallab borayotganidan dalolat beradi.

Bu jihatdan, mamlakatimizda mustaqillikning ilk davridayoq xalqimizning tarixiy rivojlanish an'analari, umume'tirof etilgan demokratik prinsiplar, qolaversa, mamlakat milliy manfaatlarini o'zida ifoda etgani fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab chiqilgani bejiz emas edi. Ana shuning uchun ham yangi jamiyat asoslarini shakllantirish jarayoni bilan bog'liq umuminsoniy demokratik qadriyatlar faqat xalqaro tajribalarda sinovlardan o'tganligi uchungina emas, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham yuksalish yo'lidagi islohotlar jarayonlariga tatbiq etildi va ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirildi.



## II BOB. MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA MILLIY TIKLANISH ASOSLARINI YARATISH JARAYONI VA UNING USTIVOR TAMOYILLARI

Istiqlolga erishganimizdan so'ng milliy o'zligimizni anglash, g'urur va iftixor, or-nomus, umuminsoniy qadriyatlar, insoniy qadr-qimmatimizni yangi bosqichga ko'tarish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratdi. Mustaqillik tufayli qadrdon ona tilimizni, dinimizni, milliy qadriyatlar-u an'analarimiz qaytarib berildi. Ulug' tariximiz, milliy davlatchilik an'analari qayta tiklandi.

Ana shular asosida «Milliy tiklanish» deganda, xalq imkoniyatlarining o'zimizga, jamiyatimiz foydasi va istiqboliga xizmat qilishi, azaliy sharqona qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat-ehtiromning yanada kuchayib borishini, fuqarolarimizning emin-erkin, farovon yashashi, farzandlarimizning kamolotini tushuna boshladik. Ayni paytda, milliy g'urur, milliy ong, milliy tiklanish va yuksalish, odamlarda vatanrarvarlik hissining oshishiga turtki bo'ldi.

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'li va milliy tiklanishi jarayonida milliy o'zlikni anglash muhim ahamiyatga ega ekani shubhasiz. Zero, milliy o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ayni paytda bu omil milliy tiklanish va yuksalish yo'lidagi muhim ma'naviy talab ekanligi shubhasiz.

## 2.1. Milliy tiklanish davrining jamiyatimiz yuksalish poydevorini yaratishdagi ahamiyati

Mamlakatimizning mustaqilligi sharotida ro'y berayotgan milliy tiklanish va milliy yuksalish jarayoni bosqichma-bosqich, evolyutsion xarakterga egadir. Bu jarayon bilan bog'liq faoliyat, amaliyot va qo'lga kiritiladigan yutuqlar esa millatning rivojlanishi, takomillashishi va yuksalishi bilan baholanadigan o'zgarish va yangilanishlar, islohotlarning natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Milliy tiklanish bu – ma'lum bir davrga kelib mustaqillikni qo'lga kiritgan millat yoki elat hayotida, turmush tarzida sodir bo'ladigan, o'z istiqloli asosida ilgari boy berilgani imkoniyatlardan foydalanish, moddiy-ma'naviy, milliy demokratik taraqqiyotga tomon qaratilgan qadam, milliy yuksalishga qarab boradigan umummilliy faoliyat yo'nalishlarini va ushbu jarayonning ustivor tamoyillarini belgilaydi.

Jamiyat hayotining barcha jabhalari bilan bog'liq rivojlanish jarayoni milliy darajadagi tiklanish va yuksalishning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beradi.

Bunday tiklanish jarayoni nafaqat bozor iqtisodiyoti, balki adolatli davlat barpo etilishi, mamlakatni erkinlashtirish, mulkdorlar qatlamini, ya'ni o'rta sinf qatlamini yaratish, iqtisodiy - ijtimoiy tuzilmani shakllantirish, kadrlar siyosati, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy sohalarni mustahkamlash, yetuk barkamol avlodni tarbiyalash kabi keng ko'lamli sohalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur jarayonning xarakterli xususiyati shundan iboratki, hokimiyat qo'lga o'tgach, uning eski mexanizmlari sekinlik bilan evolyutsion tarzda yangilari bilan o'rni almashdi. Siyosiy jabhada qo'lga kiritilgan islohotlarga tegishli holda iqtisodiy-moliyaviy tizim, ma'naviy mafkuraviy salohiyat yanada rivojlantirildi. Bu boradagi milliy tiklanish va milliy yuksalish esa, mustabid tuzumi davrida qo'ldan boy berilgan xalqning milliy qadriyatlari, an'analari, bor imkoniyatlarning qaytadan jonlanishi, bilan bog'liq serqirra jarayon sifatida namayon bo'ladi, deyish uchun bugungi kunda barcha asoslar bor.



Ayni shu jihatdan ham, mustaqil demokratik taraqqiyotimizning 1991-2016-yillar davridagi rivojlanish bosqichi milliy tiklanish davri sifatida ta'riflanadi. Ayni paytda, mustaqillikning o'tgan davri milliy tiklanish va milliy yuksalish yillari bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, ushbu yillar millatimizning milliy o'zligini anglashi, milliy tiklanish, ma'naviy qadriyatlarning qad ko'tarishi bilan bog'liq mustaqil, erkin taraqqiyot darajasini ta'minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bu borada quyidagilar ushbu jarayonning ustivor yo'nalishlari, umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

**I. Milliy tiklanishning zarurligi**

| № | Yillar | Vaziyat | Yechimi |
|---|---|---|---|
| 1 | 1984-1989 | Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot bo'yicha SSSRda 12-o'rin | Iqtisodiyot tubdan isloh qilinishi kerak |
| 2 | 1989 | Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish SSSRdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past | Xalqning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasini rivojlantirish kerak |
| 3 | 1989 | Aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 40 foizni tashkil etadi | Xalq iste'moli mollarini keng miqyosda ishlab chiqish yo'lga qo'yilishi kerak |
| 4 | 1989 | Mehnat unumdorligi sanoatda 40 foiz, qishloq xo'jaligida ikki barobar orqada qolmoqda | Sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini paxta yakkahokimligidan qutqarish kerak |
| 5 | 1984-1989 | Daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish bo'yicha O'zbekiston eng oxirgi o'rinda | Daromad darajasi keskin ko'tarilishi zarur |
| 6 | 1984-1989 | Aholi go'sht, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. | Aholini xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash keskin oshirilishi darkor |
| 7 | 1989 | Kun kechirish uchun hozirgi kunda kamida 85 so'm zarur, biroq oylik daromadi 75 so'mdan oshmaydigan odamlar aholining 45 foizini tashkil etadi. | Oylik daromadni ko'tarish, kambag'allikni qisqartirish, xalq farovonligini oshirish shart |

**Birinchidan,** keyingi paytlarda umuman dunyo miqyosida, xususan Markaziy Osiyoda siyosiy muhitning murakkablashuvi sodir bo'layotgan voqealar ortida qudratli kuchlar borligidan dalolat bermoqda. Mamlakat ichki va tashqi siyosatiga muttasil yangiliklar kiritib borish va kechayotgan jarayonlarda milliy manfaatlar nuqtai nazaridan samarali faoliyat olib borish uchun davlatimiz rahbarining mintaqaviy mojarolarga, xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan fikrlari olim va mutaxassislar uchun dasturulamal bo'ldi. Shu bilan birga, Prezident Sh.Mirziyoyev o'zining xavfsizlik va barqarorlikka oid g'oyalari orqali har qanday jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti uchun avvalo tinchlik va barqarorlik eng ustuvor shart ekanligini uqtirib kelganlari nafaqat tashqi siyosatimizni, balki mamlakatdagi barqarorlikni ham belgilab berdi.

Dunyoning rivojlanayotgan va yosh mamlakatlariga tashqi tazyiqlar yildan yilga kuchayib, ular diniy ekstremizm, terrorizm, «demokratiya eksporti» sinragi turli ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda. Ayrim hollarda bir guruh fuqarolar bunday kuchlarning ta'siriga ham tushib qolish hollari ham bo'ldi. Ammo mamlakat rahbari bunday kuchlarning asl maqsadlarini chuqur anglagan holda tajovuzkor kuchlarning niyatlarini puchga chiqardi. Bunday puxta strategiya tufayli diniy ekstremizm, terrorizm singari usullar vositasida qilingan hujumlar yengib o'tildi.

O'tgan davr tajribasi endilikda hukumat va rahbarlar oldiga xavf xatarlarga qarshi oddiygina kurash emas, balki ularning oldini olish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Prezident asarlari mutaxassis olimlar, mutasaddi rahbarlarning dasturulamali, bu asarlarda ko'rsatib berilgan tinchlik va barqarorlik tamoyillari hukumatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidasi bo'lib qolmoqda. Xalq bu dunyoda kimning kim ekanligini anglay boshladi. Natijada o'tgan davr mobaynida xalqimizda tashqi ta'sirlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllana boshladi. Buning uchun esa avvalo rahbarlikni o'z zimmasiga olgan har bir shaxs milliy manfaatlar nima, uning chegarasi qanday, xavfsizlik va barqarorlikni



ta'minlashning eng samarali yo'li nimalardan iborat ekanligini chuqur anglash kerak.

**Ikkinchidan,** mustaqillik avlodi xavfsizlik va osoyishtalikni mustahkam harbiy qurollar yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan emas, balki tashqi mafkuraviy ta'sirlarga to'laqonli javob bera oladigan bo'lishi kerak. Buning uchun esa, u yetarli bilimga siyosiy salohiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har qanday fuqaro u qaysi lavozimda ishlamasin, u avvalo siyosiy jarayonlarni chuqur idrok eta bilishi kerak. Ushbu tadqiqot davlat rahbarining mazkur fikrini nazarda tutgan holda milliy ustuvorliklarning faqat birgina jihati – tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi bo'yicha, avvalo, rahbar xodimlar bilimini kuchaytirishga qaratilgan.

Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun xalqda ertangi kunga ishonch hissini mustahkamlash, iijtimoiy-siyosiy kurashlar mohiyati va maqsadini anglash ko'nikmasini hosil qilish, turli-tuman xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish, ularning oldini olish yoki chetlab o'tish tajribasini o'zlashtirish, barqarorlik, tinchlikni saqlab, unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarga qarshi qat'iy kurashish, barqaror rivojlanishning zamonaviy uslublarini muntazam o'zlashtirib borish va bu ko'nikmalarni yuksak darajada rivojlantirish, taraqqiyot omillarini aniqlay olish, uni himoyalash va sobit qadamlik bilan olg'a intilish kabi masalalarni yaxlit tarzda qamrab oluvchi milliy g'oyani shakllantirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Ko'p millatli mamlakatni ushbu masalalarga doimiy e'tibor qaratishga o'rgatish, buni asta-sekin hayot va turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish bugungi kunda taraqqiyotimiz uchun qilinayotgan barcha ishlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga asos bo'ladi.

Barqaror rivojlanish va taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatarlar to'g'risida mustaqillikning ilk o'n yilligida quyidagi holat mavjud edi. Garchand, XX asr oxiriga kelib SSSR barham torgan bo'lsa-da, dunyoda ziddiyatlar saqlanib qoldi. Turli xalqaro miqyosdagi mojarolar, mintaqaviy muammolar xilma-xil g'oyalar kurashi aslo tinib qolgani yo'q. Ilgari ikki xil

ijtimoiy-siyosiy hayot o'rtasidagi kurash o'rniga qator siyosiy kuchlar poligonlar kurashi kuchaydi. Yangi-yangi beqarorlik o'choqlari paydo bo'ldi.

**Uchinchidan,** yangi yuz yillikda mintaqaviy mojarolar qurolli harakatlar bilan emas, balki virus kabi sezilarsiz tarzda kirib keladi, o'zi kuchayib, qolganlarni holdan toydirib, farovon mintaqani tanazzul yoki portlash sari yetaklaydi. Buni hozirgi asr boshlari yaqqol ko'rsatib turibdi. Shuning uchun mintaqaviy mojarolarning salbiy oqibati to'g'risida ma'lum bir omillarini hisobga olishi, bu boradagi xatarlarni nazardan aslo qochirmaslik, turli aqidaparast, terrorchi va buzg'unchi kuchlarning tahdidlariga qarshi kurash ham butun xalqni qamrab olishi, ommaviy bo'lishi, ya'ni xalq mafkurasiga aylanishi lozim.

Mamlakatimizdagi barqaror rivojlanish va yuksalish uchun din sohalaridagi siyosiy va diniy yo'nalish faoliyati nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Islom niqobidagi ekstremistik guruhlar yoki ularni qo'llab-quvvatlayotgan boshqa siyosiy kuchlar qanday yo'l bilan bo'lishidan qat'iy nazar, Dunyo siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatish, xalqlar erishgan yutuqlarni chippakka chiqarib o'z ta'sir doirasiga tushirishga, siyosiy hokimiyatni egallab, o'zlarining siyosiy va huquqiy me'yorlarini joriy etishga harakat qiladi. Radikal guruhlar odamlar hamda madaniyatning yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini dastak qilib, o'sha ta'sirni hozirgi davrga moslashtirgan holda qayta joriy etishga intilmoqda, ya'ni barcha ellarni yagona islom boshqaruvi ostida birlashtirib, «farovon islom olamini yaratgan xalifalik» tiklash, unga kirmaganlarga qarshi jihod yoki muqaddas urush e'lon qilish yo'lidan bormoqda.

**To'rtinchidan,** rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, g'arb davlatlarining iqtisodiy va texnik taraqqiyot nuqtai nazaridan sharq mamlakatlariga ta'sir ko'rsatishga urinishi, shu mamlakatlarning moddiy iqtisodiy boyliklaridan foydalanish asosida ularni o'z ta'siriga tortishni turli uslublarda majburiy amalga oshirishga urinishi, islom mamlakatlarini mensimay ichki va tashqi munosabatlariga aralashishlari ham ular safining tobora kengayishiga shunday ruhdagi yangi guruh, oqimlarning yuzaga kelib tarqalishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada turli-tuman diniy murosasizlikni bayroq qilib olgan guruhlarda «islom



mamlakatlarini yagona boshqaruv ostida birlashtirish kerak», degan asossiz fikr tug'ilishiga zamin hozirlayapti. Bu esa asrlar davomida taraqqiyot yo'lidan borgan turli islom xalqlari diniy va dunyoviy urf-odatlari, e'tiqodlarini isloh qilish kerak, degan tushunchaga yo'l ochib, oqibatda qo'poruvchilik bilan shug'ullanayotgan diniy guruhlar va davlat o'rtasidagi qonli to'qnashuvga sabab bo'lyapti.

**Beshinchidan,** mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yana bir xavf ulkan va kuchli davlatdagi xos shovenizm bo'lib, bu ham kuchayishi mumkin bo'lgan xavflardandir.

Bugungi fan-texnika va axborot almashinish taraqqiyoti tobora yuksalayotgan XXI asrda diniy e'tiqodni yangi shakllarda namoyon bo'lmoqda. Bu illat hozirgi kunda jahonshumul qurolli kurashlar amalga oshiradigan usul ish bermagan taqdirda, tarixiy uslub, ya'ni qurolli harbiy tazyiq, bosib olish yoki majburan ta'sir doirasiga kiritish usullaridan ham foydalanilmoqda. Chunonchi, go'yoki biznes faoliyati, aslida esa maqsadi boshqa bo'lgan turli loyihalarga yoxud nodavlat tashkilotlar ta'sir doirasiga olish, ommaviy axborot vositalari yordamida provakatsion tashviqotlar uyushtirish orqali o'z g'oyalarini singdirish amaliyoti ham uning asosiy shakllaridandir. Rivojlangan davlatlardagi ayrim guruhlar tomonidan amalga oshirilayotgan bunday xatti-harakatlarning asl mohiyati to'g'risida bugungi rahbar to'g'ri tushunchaga ega bo'lish, dunyoqarashni ham aniq belgilab olishga yordam berishini bugungi O'zbekistonning har bir fuqarosi yaxshi bilishi lozim.

Hozirda davlatlarning mutlaq aksariyati ko'pmillatlidir. Shunga ko'ra, millatlar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar albatta bir davlat chegarasidan tashqariga chiqishi va mintaqa doirasiga yoyilishi nuqtai nazaridan tahlil etilishi kerak. Shunisi xarakterliki, etnik va milliy nizolar maqsadiga ko'ra, ichki yoki tashqi asosli bo'ladi. Ba'zan ichki asoslar sababli yuzaga kelgan nizolarga, ma'naviy, etnik, milliy yoki boshqa manfaatlar tutash va yaqin bo'lishiga qarab, tashqi sabablar ham aralashib ketadi. Oqibatda ichki nizolar davlat yoki mintaqa doirasidan chiqib, xalqaro maydonda davlatlararo tus oladi.

Ayni vaqtda, ularning tub asoslari ilmiy tahlil etilmagani tufayli, muammolarni bartaraf etish o‘rniga, ularni chuqurlashtirishga yo‘l qo‘yilmoqda.

**Oltinchidan,** bugungi O‘zbekistonning tabiiy sharoiti, totalitarizm davrida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xatolar oqibatida ekologik muammolar girdobiga qolgan. Shu nuqtai nazardan tabiatni asrash inson zimmasiga yuklangan buyuk vazifa ekanligini ommaviy anglash, bu vazifani bajarishga mumkin qadar hissa qo‘shishga urinishning an’anaga, inson huquqlarining azaliy qonuniga aylantirish bugungi kunning talabidir. Ayni paytda hozirgi kunda butun yer yuzida atmosfera bilan bog‘liq ko‘plab muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Kasalliklar, iqlimning buzilishi, yer osti boyliklaridan foydalanishdagi xatolar va uning oqibatlari, suv zaxiralari bilan bog‘liq muammolar, yadroviy sinov va chiqindilar keltirayotgan zararlarni ham xalq to‘g‘ri tasavvur etishi zarur.

U qolaversa jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi ayrim jihatlardir. Muammo nafaqat biz uchun, balki har qanday rivojlangan kuchli davlatning barqarorligi va taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kuchli tahdidlar sifatida qarash kerak. Taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavf-xatarlarni to‘g‘ri tushunib etish va haqqoniy tarzda xalqqa etkazish har bir fuqaro va rahbardan alohida bilim va keng ilmiy dunyoqarash talab etadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan O‘zbekistonda hech kim mamlakatimiz o‘z qobig‘iga o‘ralib qolishidan manfaatdor emas. Ya’ni O‘zbekistonning umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz yaxshi anglaymiz. Qolaversa, o‘zbek xalqi o‘z kelajagini taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda davlat va jamiyatni boshqarish ilg‘or usullarini hayotga joriy qilish orqaligina tasavvur etadi.

Bu esa bugungi taraqqiyot strategiyasining ifodasi bo‘lgan islohotlar jarayoniga, tinchlik va barqarorlik tamoyillari hamda tadrijiy demokratlashtirish siyosatiga to‘liq mos keladi.

**Yettinchidan,** bugungi kunda O‘zbekistonda tinchlik, osoyishtalik va barqaror taraqqiyot istiqbollarini to‘liq kafolatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Buning natijasida jamiyat a’zolarining fuqarolik mas’uliyati va burchini teran his qilishi, davlat va jamiyatga nisbatan mas’uliyatini anglab yetishi kuchayadi.

“Yana bir muhim masala – islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish bilan bog‘liq. Axborot sohasini rivojlantirish borasida o‘tgan davrda katta ishlar qilindi. Kelgusida jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy asoslari va moddiy bazasini yanada mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz izchil davom ettiriladi”.[39]

Shuni ham ta’kidlash joizki, demokratiyaning o‘zi bugungi kunda dunyoning ko‘pchilik mintaqalarida murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Bu hol avvalambor turli siyosiy kuchlarning demokratiyani turlicha talqin qilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Chunonchi, ayrim siyosiy kuchlar o‘z siyosiy mo‘ljallariga erishish uchun demokratiyaning haqiqiy mohiyatini o‘zgartirgan holda, uni ta’sir va tazyiq o‘tkazish vositasiga aylantirishga urinmoqda. Shu tariqa, keyingi paytda xalqaro munosabatlarda siyosiy makonni ko‘r-ko‘rona «sahnalashtirish»ga urinishlar ko‘zga tashlanmoqda. Bunda boshqa joyda ishlab chiqilgan «ssenariy»lar asosida muayyan mamlakat taraqqiyotini xohlagan andozaga tushirish amaliyoti kuchayib bormoqda. Eng noxush tomoni shundaki, bunday «ssenariy»larda demokratiya g‘oyasi shunchaki vosita sifatida qo‘llanmoqda. Tabiiyki, bunday hollarda «sinov maydoni» sifatida tanlangan mamlakatning milliy xususiyatlari, xalqining asriy ko‘nikmalari, xohish-irodasi, mentaliteti e’tiborga olinmaydi, aniqrog‘i, ular haqida mutlaqo tasavvurga ham ega emaslar.

**Sakkizinchidan,** xolisona nuqtai nazardan qaralganda, hozirgi vaqtda MDH hududidagi ayrim davlatlar suverenitetiga jiddiy tahdid dunyoning ko‘p mintaqalarida, xususan, «post-sovet» makonda «Rangli inqilob»lar aslida demokratiyaga qarshi qaratilgan harakat bo‘lib chiqmoqda. Zero, bu makkorona usul mustaqil davlatlarga tazyiq ko‘rsatishning pardalangan shaklidir. Demokratiyaga tabiiy jarayon sifatida emas, balki o‘z xohishiga bo‘ysundirish

[39] Мирзиёев.Ш.М Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. - 592 б.

strategiyasining quroli sifatida munosabatda bo'lish eski usul bo'lsada, zamonga moslashtirilayotgani ayrim kuchlarga qo'l kelmoqda.

Albatta, o'tish davrini boshdan kechirayotgan, demokratik tajriba va ko'nikmalar asta-sekin shakllanib kelayotgan mintaqalarda demokratiyalashuv murakkab kechadi. Bunday vaziyatda demokratik taraqqiyot jarayoniga nafaqat tashqi xavf-xatar, balki ichki omillar ham ta'sir etadi. Binobarin, demokratiyalashuv jarayoni yanada chuqur ildiz otishi va jamiyat xavfsizligi ta'minlanishi uchun mavjud hokimiyatning tazyiq va bosimlar qarshisida ojiz bo'lib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayrim mustaqil mamlakatlar, xususan, Gruziya, Ukraina va Qirg'izistonda yuz bergan voqealar shunday xulosa chiqarishga asos bo'la oladi.

Demak, tashqi ta'sirlardan himoyalanish, birinchi navbatda, jamiyatning o'ziga, uning davr talablari darajasiga ko'tara olish qobiliyatiga bog'liq. Demokratiyalashuv har bir xalqning o'zigagina xos ijtimoiy taraqqiyot mahsuli, demokratiya esa faqat tinchlik va barqaror taraqqiyotga olib keluvchi hodisa deb yondashilsa, hech qanday tashqi kuchlar o'z salbiy ta'sirini o'tkaza olmaydi. Demokratiyalashuv har bir mintaqaga xos ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini hisobga olgan taqdirda barqarorlikka xizmat qiladi. Masalaga bunday yondashuv tashqaridan eksport qilinayotgan «demokratiya model»larini ham va allaqanday «taraqqiyot yo'lini» ham ko'chirib olishga hech qanday hojat qolmaydi.

Demokratiya modellarining eksporti haqida gapirilganda ayrim diniy-ekstremistik kuchlarning urinishlari haqida ham to'xtalish joiz. Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, mamlakat taraqqiyotini chetga burib yuborishga urinayotgan ma'lum diniy harakatlar, allaqachon buzg'unchi, g'ayriinsoniy mohiyatini oshkora qilgan. Agar so'z chinakam demokratiya haqida ketadigan bo'lsa, unga nisbatan ochiq salbiy munosabat bildirish bilan hali hech kim obro' topgan emas. Chunki demokratiyani barcha istaydi, unga intiladi va unga qarshi biror-bir doktrinani muqobil sifatida qo'ymaydi. G'ayri insoniy qiyofasini namoyon etgan diniy ekstremistik kuchlargina shu yo'lni yoqlab chiqmoqda, kurashning eng nomaqbul, xufyona yo'lini tutadi.



Mamlakatimiz tarixida yangi bir tarixiy bosqichni boshlab bergan mustaqillikni mustahkamlash, milliy tiklanish, milliy yuksalish maqsadida uning moliyaviy-iqtisodiy fundamentini mustahkam qilish muhim ahamiyatga egadir. Holbuki, moliyaviy tomon bo'sh va mo'rt bo'lgan davlatning, millatning kelajagi buyuk bo'lmaydi.

Milliy tiklanish va milliy yuksalish tomon borishning yo'li bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy sohalarni yo'lga qo'yish va kengaytirishga qaratilgan masalalar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovningi «O'zbekistoning bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekistoni iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishi yo'lida» nomli asarlarida ta'riflandi. Ularda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning mohiyati, iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining (1991-1995 yy.) Yakunlari va saboqlari to'g'risida hamda iqtisodiy islohotlar navbatdagi ikkinchi bosqichining (1996-2000 yy.) Vazifalari keng ma'noda yoritib berilgan. Mazkur asarlarda ta'kidlanganidek, O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat, uning iqtisodiy mustaqillikka erishib, rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olishiga asos bo'ladigan imkoniyatlar mavjud.

Ushbu bosqichda yangicha tuzum uchun mustahkam moliyaviy-iqtisodiy fundament barpo etish borasida quyidagi bir nechta vazifalar ustivor qilib qo'yilgan edi. Bular quyidagicha tasviflangan:

- sobiq sovet jamiyati ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, iqtisodiy tanglikka barham berish, iqtisodiy hayotni barqarorlashtirish;

- respublikaning o'ziga xos sharoitlari, xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiy munosabatlarining mikroiqtisodiy negizlarini, ya'ni kichik va o'rta biznes tarmog'ini shakllantirish.

Mustaqil demokratik taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqqan holda ikkinchi bosqich deb olasak, milliy tiklanish yo'lidan ilgari qadam tashlash davri hisoblanadi.

Bu vazifalarning asosiy sirasiga xususiylashtirishni oxiriga etkazish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, milliy valyuta qadr-qimmatini balandga ko'tarish, moliyaviy-iqtisodiy strukturani o'zgartirish, xomashyo olib kelishda

tayyor mahsulot ishlab chiqarish sifatiga o'tish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash, qolaversa jahon bozori talablari darajasiga olib chiqish kabi jarayonlarga keng yo'l ochib berish nazarda tutilgani bejiz emas edi.

2000-yillar boshidan O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Respublikamiz islohotlarni har tomonlama chuqurlashtirishga, faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizasiya qilishga kirishdi.

O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab bergan mustaqilligimizni mustahkamlash, milliy tiklanish uchun uning iqtisodiy poydevorini yaratish, iqtisodiy asosini baquvvat qilish muhim va zarur edi. Chunki moddiy zamini bo'sh, iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan mamlakatning, xalq va millatning kelajagi bo'lmaydi.

Nafaqat bu, balki boshqa masalalarda ham, har bir partiyaning o'z dasturiy yondashuvi borligi demokratik hayotning fikrlar rang-barangligi haqidagi qoidasiga mosligi nuqtai nazaridan, balki bunga betoqat bo'lmasligimiz kerakdir? Ammo milliy tiklanish va yuksalish jarayonlarining jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotini ta'minlayotgan eng muhim jabha ekanligini nazardan qochirmaslik, bu boradagi bir tomonlama pozitsiyalarning asossizligini ham esdan chiqarmaslik ham burchimiz ekanini unutmaslik lozim.

«Mustaqillikka erishgani har bir mamlakati o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevrora mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklashi ham buning amaliy namunasidir. O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik sharoitiga xos shakllanish va yuksalish jarayonlari quyidagi omillarga asoslanadi:



- Sobiq tizim sharoitlarida xalqdan yiroqlashtirilgan tarixiy ma'naviy merosga murojaat qilish;
- Xalqning tarixiy xotirasini tiklash, unga soya solayotgan mafkura qatlamlariga, soxtaliklarga, buzib ko'rsatishlariga barham berish, - «sotsializm qurilishi» davrida begunoh qirib yuborilgan qo'mondonlar, adabiyot va san'at arboblarining nomlarini xalqqa qaytarish;
- G'oyaviy-tarbiyaviy va mafkuraviy ishda umumbashariy qadriyatlar bilan tanishish va ularni hisobga olish, ularning erksevar, adolatparvar, mehnatsevar va insonparvar, ochiq ko'ngil o'zbek xalqining milliy ustuvorliklari, mentaliteti bilan chuqur tabiiy aloqalarini aniqlash;
- Ijtimoiy darajada ham, norasmiy muloqotda ham nufuzi oshib borayotgan o'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamlash, Davlat tili to'g'risidagi Qonunning yangi tahririda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar vakillarining tillarini rivojlantirishga albatta ko'maklashish, ona tilida ta'lim olish va madaniy rivojlanishni ta'minlash ta'kidlanganligiga e'tibor qaratish;
- Sivilizatsiyalashgan bozorning axloqiy negizlari to'g'risida asoslar qabul qilish, binobarin bozor munosabatlari halollik, vijdoniylik, mas'uliyatlilik, zimmadagi vazifani bajarish burchi kabi axloqiy qadriyatlarsiz o'zining bunyodkorlik mohiyatini yo'qotishi mumkin;
- Milliy xususiyatlarini inkor etgan marksizmning aqidalari va mifologiyasiga barham berish negizida tarkib torgan va mustahkamlangan milliy mustaqillik mafkurasi;
- O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga aylangan ijtimoiy rivojlanishning tarix sinovidan o'tgan va bugungi kunda ham o'z samarasini ko'rsatayotgan prinsirlaridan foydalanish.

Xullas, tadqiqotimiz mazkur tamoyillar negizidagi mustaqil demokratik taraqqiyotimizning 1991-2016-yillardagi takomil bosqichini milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish uchun zamin tayyorlangan davr sifatida baholash imkonini beradi.

## II. Milliy tiklanish dinamikasi

| № | Yillar | Muammoning yechimi | Natijalar |
|---|---|---|---|
| 1 | 1991-1997 | Mamlakatimiz 1991-yilda mustaqillikka erishgan kundan boshlab bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli davlat barpo etish yo'lidan bordi. | Qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutildi |
| 2 | 1991-1995 | Davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat erkinligini kafolatladi, xususiy mulkni himoya ostiga oldi | 1,5 milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. |
| 3 | 1994 | Milliy valyuta muomalaga kiritildi. | O'zbekistonda Iste'mol savati qiymati 1998 yilda jon boshiga 2480 so'm 12 tiyinni tashkil etdi. |
| 4 | 1997 | Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi | Ta'lim tizimi tubdan isloh etildi. |
| 5 | 1991-1998 | Paxta monokulturasi tugatildi, paxta yetishtirish rejasi 700 ming tonnaga kamaytirildi. | Ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi. |
| 6 | 2013 | O'zbekiston nafaqat g'alla mustaqilligiga erishdi, balki g'alla eksport qiluvchi davlatga aylandi. | O'zbekistonda 2013 yil 7.6 million tonna g'alla yig'ib oldi. Bu mamlakat tarixida eng yuqori natija. |
| 7 | 1998 | Energiya mustaqilligiga erishildi | Ilgari elektr quvvatlari yetishmasligi tufayli 1500 MVt.gacha elektr energiyasini chetdan qabul qilingan. |
| 8 | 2002 | O'zbekiston Resrublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan - Qonunchilik Palatasi hamda Senatdan iborat bo'ldi. | 2002-yil 27-yanvar referendumi o'tkazildi. O'zbekistonning Konstitutsiyaviy qonuni 2002-yil 4-aprelda qabul qilindi |

Hozirgi vaqtda O'zbekiston istiqbolini barpo etish yo'lida shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruhlar tomonidan maqsad va manfaatlar birligini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish negizida jipslashishni anglash zarurati har



qachongidan ham ortib ketdi.[40] Bunday jipslashtiruvchi institut sifatida birinchi navbatda davlatning o'zi omilkor va tashabbuskor faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni paytda milliy yuksalishni ta'minlash uchun davlat odamlarda birgalikda faoliyat ko'rsatish hissini uyg'otishning, jamiyatda pishib yetilgan masalalarni hal etish uchun birlashishdan iborat yuksak maqsadlarga xizmat qilishning vositasi sifatida an'analar va urf-odatlarga katta e'tibor qaratmoqda, deb ta'kidlaganida ba'zi mutaxassislar har tomonlama haqiqatni ifodalagan.[41] Bunday milliy tiklanishni ta'minlaydigan faoliyat davlat tomonidan urf-odatlar va an'analar amal qilishi hamda rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, udum bo'lgan bayramlar va marosimlarni o'tkazishga homiylik qilayotgan korxonalar va tashkilotlarga imtiyozlar berish, moddiy rag'batlantirish va boshqa shu kabilar orqali mustahkamlanmoqda.

Respublikamizda milliy tiklanish va yuksalish yo'lida olib borilayotgan bunyodkor islohotlarning mohiyatini, mas'uliyatini anglash, ularning faol ishtirokchisi, tashabbuskori va yetakchisiga aylanib, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida mujassam etadigan yoshlarimiz ertangi kunimiz, kelajak istiqbolini belgilaydi. Zero, mazkur maqsadni amalga oshirishda sobitqadamlik bilan olg'a qadam tashlay oladigan, kuchli, bilimli va zukko fuqarolar safida bo'lish barchamiz uchun yuksak mas'uliyatga aylandi.

[40] Собирова З. Бозор иктисодиётива эстетик маданият. - Гулистон. 1999, №3. – Б. 18–19.
[41] Эркаев А. Маънавий эхтиёжнингюксалиши. - Мулокот. 1997, №4. – Б. 11–13.

## 2.2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari

Bizningcha, mustaqillik yillaridagi milliy tiklanish va taraqqiyot bosqichi hamda bugungi yuksalish yo'lini quyidagi 4 bosqichda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.[42]

1991-2000-yillarda, birinchi navbatda, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruviga, mafkuraviy yakkahukmronlikka barham berilib, milliy davlatchilik tiklandi, fuqarolik jamiyati asoslari yaratildi.

2001-2010-yillarda jamiyatda demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi, jarayon hayotida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi, islohotlar davom ettirildi.

2010-2016-yillarda ham ushbu jarayon davom etdi va demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrlarda mamlakatimizga Islom Karimov rahbarlik qildi va ko'p jihatdan taraqqiyot tamoyillarini belgilab berdi.

2017–2021-yillarda mamlakatimizda harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va tatbiq etildi. Ushbu strategiya – bu islohotlarni amalga oshirishning aniq mo'ljallangan yangi harakat dasturi sifatida amal qildi.

Bu jihatdan, 1991 – 2016-yillardagi milliy tiklanish va undan yuksalish jarayoniga o'tish odimlari va dinamikasi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotimiz ushbu xususiyatlarni quyidagilarda namoyon bo'lishi va bugungi kunlarga qadar namoyon bo'layotganini ko'rsatadi:

**Birinchidan,** milliy mustaqillikning dastlabki o'n yilliklar davrida, ya'ni davlatimizga birinchi Prezident I.Karimov rahbarlik qilgan yillarda, O'zbekiston jamiyatining milliy tiklanishi uchun zarur barcha sohalarida chuqur institusional o'zgarishlar amalga oshirildi: Kommunistik mafkura yakkahukmronligi o'rniga mafkuralar plyuralizmiga o'rin berildi;

**Ikkinchidan,** mamlakatimizning o'sha davrdagi milliy tiklanish, ma'naviy hayoti sohalarining shakllanishi turli xildagi ijtimoiy-madaniy va shaxsiy ehtiyojlar

42. Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.(o'quv qo'llanma). Q.Nazarov, A.Rahmonov va boshq. – Toshkent: O'FMJ, 2019, - B. 14-15.



bilan uyg'unlikda amalga oshganidan dalolat beradi. Shulardan kelib chiqqan holda bularga – madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, axloqiy-estetik, diniy ehtiyojlar kiradi. Shularning orasida ma'naviy-ma'rifiy omillar alohida muhim o'ringa ega hisoblanadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida ma'naviy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlari, maxsus institutlar paydo bo'ldi. Bularga, san'at, adabiyot, fan, ta'lim-tarbiya tizimi, axborot-kommunikatsiya sohalari kiradi.

**Uchinchidan,** mamlakatimiz taraqqiyoti uchun mustaqillik yillarida o'zlikni anglash, kelajak rejalarni belgilab olish, o'zimizni qaddimizni tik tutish va ulkan maqsadlarga etishishga qaratilgan islohotlar davri bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik biz uchun ko'pgina milliy-madaniy qadriyatlarimizni qaytardi. Eng asosiy ramz bo'lmish ona tilimizga ega bo'ldik. O'zbek tiliga davlat maqomining berishi ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea bo'ldi. E'tiqod va vijdon erkinligi qonuniy asosga, konstitutsiyaviy kafolatga ega bo'ldi. Hozirgi kunda uch mingyillik tariximizni qayta tiklashimizga imkon yaratildi. Mustaqillik sharofati bilan ko'pgina ta'qiq etilgan milliy-madaniy, tarixiy ma'naviy xazinamiz chashmalaridan beminnat bahramand bo'lish kabi imkoniyatlarga ega bo'ldik.

**To'rtinchidan,** millatimizning milliy-madaniy qadriyatlari, ulkan ma'naviy merosi ming yillar oralig'ida Markaziy Osiyo xalqlari uchun ulkan ma'naviyat manbai bo'lib kelgan. Ko'p yillar davom etgan mafkuraviy ta'qiqqa qaramasdan, millatimiz avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'z tarixiy, milliy qadriyatlarini, o'ziga xos va mos urf-odat, an'analarini saqlab qolishga erishdi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq ajdodlarimiz tomonidan asrlar oralig'ida yaratilgan bebaho merosni tiklash, kelgusi barkamol avlodlar uchun ushbu madaniy merosni qoldirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi muhim vazifaga aylandi. Milliy tiklanish, ma'naviy qadriyalarni tiklash, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi kabilardan iborat jarayonni o'z ichiga oladi.

**Beshinchidan,** mamlakatimiz siyosiy mustaqillikka erishganidan so'ng o'z taqdirining haqiqiy egasi, tarixining ijodkori, milliy madaniyatning o'z sohibiga aylanganligini his qildi. Biroq shuni aytib o'tish mumkinki, madaniy-milliy

an'analar, qadriyatlarni ham muqaddas diniy an'analarni qaytarish va tiklash, milliy o'zlikni anglash holati anchagina mushkul vaziyatlarda – eskicha imperiya tuzumi yakson bo'lgan va yangicha ijtimoiy munosabatlar rivojlanayotgan jarayonda sodir bo'ldi. Bu kabi holat o'z navbatida. o'ta mushkul yumushlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil sohalarni uyg'unlashtirish uchun tizimli ish faoliyatini yo'lga qo'yishni davr talabi taqazo qilar edi.

**Oltinchidan,** mustaqillikni tahlil qilinayotgan davrga xos milliy tiklanish jarayoni mamlakatimizda qonun ustivor bo'lgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalarini bajarish ehtiyoji bilan uzviy bog'liqligidan dalolat beradi. Bu boradagi tiklanishning asosiy mezonlaridan biri bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, diqqat qilindi.«O'zbekistoni Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar belgilab qo'yildi. Buni asosiy qonunimiz moddalarida fuqarolik jamiyatining asosiy prinsirial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin»[43].

**Yettinchidan,** o'tgan davrdagi milliy tiklanish jarayoniga xos xususiyatlardan biri yana shundaki, uni umumjahon shakllanishi jarayoniga mos holda harakatlanish, ilm-fan, texnologiya innovatsiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish orqali rivojlangan davlatlar sifatida o'rin olishga erishish va milliy iqtisodiyotimizning jahon bo'ylab iqtisodiy sohaga integrasiyalashuvi amalga oshgan jarayon deb aytish mumkin. Ushbu davrdagi islohotlar tufayli aholining turmush darajasi muayyan tarzda o'sishiga olib keldi. Bu borada ayniqsa ijtimoiy soha, aholini iqtisodiy-ijtimoiy quvvatlashga ajratilgan mamalakat harajatlari 5 barobardan oshdi. Respublika byudjeti xarajatlarining yarmidan ko'pisi aynan shu ijtimoiy sohaga ajratildi. Jumladan, 2004-2019-yillar mobaynida umumta'lim maktablarini shakllantirish umummilliy davlat dasturi amalda o'z tasdig'ini topdi. Ushbu bosqichlar innovatsion davrning boshlanishiga zamin yaratdi, deb qayd

43. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.



etishadi. Aynan shu davrni O'zbkistonning demokratik islohotlar yo'lidagi taraqqiy etgan industrial rivojlanish davriga qadam qo'yishi va fuqarolik jamiyati asoslarining rivojlanib borishi vaqti tarzida talqin etiladi.

Mamlakatimiz milliy tiklanishiga doir bunday xususiyatlarni barcha sohalarda ko'rish, kuzatish mumkin. Bu borada tiklanish odimlariga doir misollar va dalillarga murojaat qilishning o'ziyoq ushbu jarayonning zalvori va qamrovini, ayni paytda esa, muayyan masalarning yechimlariga katta e'tibor berish zarurligidan dalolat beradi. Masalan, O'zbekistonlik mehnat migrantlarining dunyoning ayrim davlatlari hududidagi ahvoli xususida bir necha yillardan buyon fikr yuritib kelinadi. Xususan, bugungi kunda chet elga jo'nab ketayotgan jami o'zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi, ya'ni 70 foizi Rossiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ular asosan qurilish (23%), savdo-sotiq (18%), qishloq xo'jaligi (12%), turli xil xizmat ko'rsatish (19%) va boshqa sohalarda mehnat qilishmoqda. Ayol migrantlar esa savdo-sotiq va uy ishlariga (enagalik, uy xizmatkori, bog'bon) jalb etilganlar.

Mavjud ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davrda o'zbekistonlik mehnat migrantlarining dunyo mamlakatlari, xususan Rossiya Federasiyasi (RF) ga ketishiga bir qator omillar ta'sir etayotganligini, mazkur mamlakat hududida esa ularning huquqlarini buzilishi bilan bog'liq ba'zi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Tomonlar o'rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi munosabatlar 2007-yil 4-iyul kuni imzolangan «Rossiya federatsiyasidagi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblangan mehnat migrantlarining va O'zbekiston Respublikasidagi Rossiya Federasiyasi fuqarosi hisoblangan mehnat migrantlarining mehnat faoliyati va ularning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik qilish to'g'risida»gi, «Readmissiya to'g'risida»gi hukumatlararo bitimlar asosida tartibga solinadi. Mazkur bitimlarda mehnat migrantlarning huquqiy maqomi, ularning ijtimoiy muhofazasi, huquq va erkinliklarning kafolatlari, ikki davlatning noqonuniy migrasiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli

organlari, ularning vazifalari, shu soha bo'yicha o'zaro axborot almashish nazarda tutilgan.

RF federal migrasiya xizmati (FMX) ning ma'lumotlariga qaraganda, Rossiya hududida 2008-yilda 2 mln. O'zbekistonlik mehnat migrantlari faoliyat olib borgan, lekin 2009-yilda iqtisodiy inqiroz tufayli bu ko'rsatkich 1,5 mln. ga tushib qolgan. Shundan 2008-yilda 642 ming kishiga, 2009-yilda 400 mingdan ortiq kishiga mazkur davlatda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun tegishli ruxsatnomalar berilgan bo'lsa, tegishlicha 2008-yilda 1,4 mln.ga yaqin va 2009- yilda 1.1 mln. Mehnat migrantlari hech qanday ruxsatnoma olmasdan, ya'ni noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Respublikadan noqonuniy mehnat migrantlarning stixiyali tarzda RF ga ketishiga bir qator omillar ta'sir etadi. Jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) doirasida 1992-yil 13- noyabrda «MDH a'zo-davlatlari hududida ularning fuqarolarining vizasiz harakatlanishi to'g'risida» bitim imzolangan. Mazkur bitimning 4-moddasiga ko'ra, MDH davlatlari fuqarolari ularning hududlarida erkin harakatlanishi mumkin (Tojikistonda 2000-yildan vizali rejim o'rnatilgan).

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, resrublika aholisi tez ko'payayotgan davlatlardan biri hisoblanadi va yiliga 400 mingtaga, mehnatga layoqatli qismi esa 220 mingtaga o'smoqda.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonda iqtisodiy faol aholining (8 mln.) 05-06 foizi ishsiz sifatida ro'yxatga olingan bo'lsa, rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tmagan ishsizlar bilan qo'shib hisoblaganda bu ko'rsatgich 20 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham respublikada ishchi kuchini boshqa davlatlarga eksport qilishni kengaytirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Respublikada fuqarolarni chet elga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun yuboradigan bitta monopol davlat organi - Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha Agentlik mavjud bo'lib, ushbu muassasa orqali mehnat migrantlarning faqat 2-3 foizigina chetga ishga yuborilmoqda. Qolgan mehnat migrantlar o'zlari mustaqil ravishda, shuningdek, noqonuniy yo'llar bilan ishlash uchun ketmoqdalar



va bu bilan noqonuniy migrantlar oqimining ko'payishiga olib kelmoqda (birgina Tojikistonda rasmiy ravishda 24 ta Agentlik orqali tashqi mehnat migratsiyasi amalga oshiriladi).

Bundan tashqari, respublikada o'rtacha oylik ish haqi 300 dollar bo'lib, bu ko'rsatkich RF da 645 dollarni tashkil qiladi. Shu sababli mehnat migrantlar ko'proq pul topish maqsadida RF ga ketishgan. Aytish joizki, Rossiyadagi ish beruvchilar o'zbekistonlik mehnat migrantlarini ishlatishdan manfaatdor hisoblanadi. Bu holat esa mazkur mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazgan.

Bundan tashqari, noqonuniy mehnat migrantlar FMXdan davlat ro'yxatidan o'tmasdan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganliklari sababli ish beruvchilar mahalliy aholiga nisbatan ularga kam ish haqi to'laydi, ularning ish haqlaridan daromad solig'i (30%) va chet el fuqarosini ishga jalb qilganlik uchun olinadigan patent to'lovini to'lamaydi.

Shuningdek, RF federal soliq xizmatining ma'lumotlariga ko'ra, noqonuniy mehnat migrantlari tomonidan yetkazilayotgan to'g'ridan-to'g'ri zarar miqdori yiliga 7-8 mlrd dollarni tashkil qiladi. RF markaziy bankining hisobotiga qaraganda, ushbu davlatdan har yili MDH davlatlariga mehnat migrantlari tomonidan 10 mlrd. dollar (jumladan, O'zbekistonga 2,5-3 mlrd. dollar) dan ortiq pul mablag'lari chiqib ketmoqda.

Shu bilan birga Rossiyada o'zbekistonlik noqonuniy mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud.

Xususan, ayrim jinoiy guruhlar tomonidan O'zbekiston fuqarolarining RF ga avtobuslarda tashuvi amalga oshirilib, manzilga etib borilganda «vaqtincha ro'yxatdan o'tkazib berish» bahonasi bilan ularning pasrortlari olib qo'yilmoqda, natijasida fuqarolar u yerdagi ish beruvchilarga o'zlari istamagan holda tobe bo'lib, «odam savdosi» jinoyatining qurboniga aylanib qolmoqdalar.

Aksariyat holatlarda, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining Rus tilini yaxshi bilmasliklari ham ularni RF hududida vaqtincha ro'yxatdan o'tish va ishga joylashishlarida hamda o'z huquqlarini himoya qilishlariga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Soha mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, RF dagi o'zbekistonlik noqonuniy mehnat migrantlarining iqtisodiy-ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda ularga tibbiy xizmat ko'rsatish kafolatlanmagan. Shuningdek, ularning ko'pchiligi o'z kasbi va ma'lumotlaridan qat'iy nazar ko'proq qo'l mehnatiga asoslangan va mahalliy ishchilar uchun xavfli hamda og'ir bo'lgan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, RF dagi ish beruvchilarni o'z majburiyatlarini bajarishini nazorat qiladigan huquqiy va tashkiliy mexanizmning yo'qligi ish beruvchilar tomonidan o'zbekistonlik mehnat migrantlari huquqlarining buzilishiga zamin yaratmoqda (ish haqini bermaslik, g'ayriinsoniy munosabatda bo'lish, odam savdosi qurboniga aylanishi va boshqa holatlar). Noqonuniy migrantlar ish joyidan ayrilib qolmaslik va yurtlariga deportasiya qilinmasliklari uchun ham ish beruvchilarning ustidan sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishmaydi.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonning RF da tashqi mehnat migrasiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus organi yoki vakilning mavjud emasligi ham o'zbekistonlik mehnat migrantlari huquqlarining u yerda samarali himoya qilish imkoniyatini bermaydi (Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalarining RF da mehnat migrasiyasi bilan shug'ullanadigan vakillari mavjud).

Ta'kidlash joizki, hozirda o'zbekistonlik noqonuniy mehnat migrantlari tomonidan qasddan turli xil ko'rinishdagi qoida buzarliklar sodir etilishi holatlari davom etmoqda. Jumladan, Respublika huquq tartibot organlari tomonidan 2009-yilda noqonuniy ravishda Respublikadan chiqib ketayotgan va kirayotgan fuqarolar, ularning tashkilotchilariga nisbatan 1300 dan ortiq jinoyat ishlari qo'zg'atilgan bo'lsa, davlat chegara rejimini buzgan 181 nafar fuqaro esa ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Bundan tashqari, FMXning ma'lumotlariga ko'ra, 2009-yilda RF hududida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan 210 mingdan (2008-yilda 200 ming) ortiq o'zbekistonlik mehnat migrantlari aniqlangan bo'lsa, ulardan 2202 (2008 yilda 3898) nafariga nisbatan RF hududidan chiqarib yuborish (deportasiya) choralari qo'llanilgan.



Shuningdek, 2010-yilning birinchi yarmida RF da bo'lish qoidalarini buzgan 2249 nafar o'zbekistonlik mehnat migrantlari aniqlangan. 462 nafar migrantlar esa jinoyat sodir qilib, ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, 2474 nafar migrantlar RF dan deportasiya qilingan.

Umuman olganda, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra o'zbekistonlik mehnat migrantlarining ommaviy ravishda noqonuniy tartibda RF ga ketishi davom etgan. Bu boradagi faoliyatning huquqiy bazasi yaratilgan bo'lsada, uning amaliyotda qo'llanilishida tomonlarning tegishli migratsiya sohasidagi davlat idoralari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasida mehnat migrantlarining huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'yilgan.

Mazkur holatning saqlanib qolishi kelgusida o'zbekistonlik mehnat migrantlarning RF dagi ahvolining yanada yomonlashuviga olib kelishi mumkin edi. Natijada ularning ommaviy tarzda respublikaga qaytib kelishi, bu esa o'z navbatida Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy tanglikni vujudga keltirishi mumkinligi ham nazardan qochirilgani yo'q.

Keyingi yillarda, ushbu holatlarning oldini olish hamda o'zbekistonlik mehnat migratlarini huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishga harakat qilgani bejiz emas:

- RF dagi elchixonaga tashqi mehnat migrasiyasi masalalari bilan shug'ullanadigan alohida mutaxassis tayinlash;

-RF ning markaziy hududlarida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining vakolatxonalarini ochish (hukumatlararo bitimlarda nazarda tutilgan);

- chet elga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun fuqarolarni yuborish huquqiga ega bo'lgan (maxsus lisenziya asosida faoliyat ko'rsatuvchi) mintaqaviy agentliklarni tashkil etish;

- respublikada RF dagi bo'sh ish joylari to'g'risida barcha fuqarolar tanishish imkoniyatiga ega bo'ladigan ochiq ma'lumotlar bazasini tashkil qilish;

- mazkur davlatlarning ommaviy axborot vositalari orqali mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha davlatlararo bitimlar talablarini keng xalq ommasiga yetkazish.

Bularning barchasi 2000-2010-yillarda ham mazkur sohada mamlakatimizning milliy tiklanishi va yuksalishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning salmoqli bo'lganini anglatadi.

Avvalo ta'kidlash joizki, o'sha davrning dastlabki yillaridanoq ma'naviy hayot o'zgarishlarini mujassamlashtiradigan, birlashtiradigan va mustaqillik boshlab bergan yangi davr talablariga mos tarzdagi ijtimoiy tuzilmaga ehtiyoj sezila boshlagan edi. Bu ehtiyoj davlat darajasidagi ustivor siyosatning amaliy isboti sifatida 1992-yilda umuman yangicha bo'lgan ijtimoiy institut - Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, bu markazning viloyat, tumanlararo bo'limlari ochildi. Mazkur markaz o'zining ish faoliyatini sobiq ittifoq paytidagi «Bilim jamiyati»dan mutlaqo o'zgacha tarzda tashkil qilindi va natijada O'zbekistondagi milliy tiklanish va milliy yuksalishining shakllanish jarayoniga o'zining katta hissasini qo'shdi.

Milliy tiklanish, milliy yukalish va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi amalga oshirilgan bunday jarayonlarning hammasi aslida mamlakatimiz odamlarining mustaqillikka bo'lgan ishonchining ortib borishiga, eskicha tafakkur qilishdan yangisiga o'tishga o'rganish bilan bog'liq ishlarga diqqat – e'tibor qaratilgan edi.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon yurtimizning, milliy davlatchiligimizning xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan, O'zbekiston rahbarining 2006-yil 25-avgustda imzolagan qaroriga ko'ra Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyati hamda tarkibiy tuzilishi qayta ko'rib chiqildi. Lekin jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy soha bilan bog'liq jarayonlar bir joyda to'xtab qolmaydi, albatta.

Ma'lumki, keyingi yillarda milliy g'oya targ'iboti hamda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot yo'nalishida ishlarning ko'lami bir necha barobar oshdi, masalalar ko'lami va vazifalar zalvori kundan-kunga ortib bormoqda. O'zbekiston rahbarining 2017-yil 30-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini



oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori aynan ana shu jarayonning nihoyatda to'g'ri va o'z vaqtida anglanganini ko'rsatadi.[44]

Ushbu tarixiy muhim hujjatda alohida qayd etilganidek, mustaqillik davrida xalqimiz hayotida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi, milliy tiklanish va yuksalish sari jiddiy qoidalar qo'yildi. Bu davrda yangi avlod shakllandi, yurtimiz qiyofasi o'zgardi, aholini begona va buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik maqsadida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Ushbu ma'noda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazning joylardagi bo'limlari tomonidan kerakli vazifalar amalga oshirildi. Hozirgi kunda globallashib borayotgan tahlikali hayotda kuchayib borayotgan yangi tahdid, yovuzlikka qaratilgan tajovuz o'choqlari kengayib, yanada xatarli tus olayotganligi namoyon bo'lib bormoqda. Bular kabi holatlarning oldini olish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangicha darajaga ko'tarish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Ushbu sohada esa yig'ilib qolgan bir qator yechilmagan muammolarning yechimini topishni taqazo etmoqda va keyingi yillarda bu jabhadagi faoliyat davlatimiz strategiyasining tarkibiy qismiga aylanmoqda[45].

Davlatimiz rahbari qarorida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni, ishlarni tubdan isloh qilish va uning natijasini ko'rish, samaradorligini oshirish bo'yicha harakat dasturini ishlab chiqish, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda taniqli olimlar va jamoat arboblaridan iborat «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyati tuzilishi, «Tafakkur», «Jahon adabiyoti» va «Ma'naviy hayot» jurnallarining mazkur holatlarga jalb qilinishi shu sohadagi vazifa va faoliyatning samarali amalga oshishiga imkon beradi. Ushbu jarayonlardan tashqari, Xalq ta'limi vazirliklarining Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan birgalikda o'quv

[44]«Манавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳа ривожини янги босқичга кўтариш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, 2017 йил 30 июль. http://www.prezident.uz/uz/lists/view

[45]«2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил 7 февралдаги ПФ-494;«2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. https://lex.uz/docs/5841063

fanlari dasturlari mazmun-mohiyatini hozirgi davr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tubdan qayta ko'rib chiqish, qaytadan ishlab chiqish, kengaytirish va takomillashtirilgan dasturlar 2018-2019-o'quv yilidan boshlab amaliyotga tadbiq etilishi muhim vazifalardan biri ekanligi belgilab qo'yilishi ta'lim-tarbiya sohasini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, hozirgi davrda asosiy e'tibor amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni yagona maqsad – milliy yuksalish sari yo'naltirishga qaratildi. Shu ma'noda, harakatlar strategiyasi milliy taraqqiyotimizning yangi davrini boshlab berdi. Hozirgi bosqichni milliy yuksalishlar davri deb hisoblash mumkin. Milliy yuksalishga erishmoq uchun yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Mustahkam iroda, chuqur bilim, doimiy ijodiy faoliyat muttasil harakat kerak».[46] Shubhasiz, islohotlar jarayonida shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlikda ifoda etadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va qabul qilish fuqarolik jamiyatini barpo etish, ayniqsa jamiyat a'zolari ongi va tafakkurida chuqur demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Milliy demokratik taraqqiyotimizning ushbu bosqichi xususida keyingi paragrafda fikr yuritamiz.

Darhaqiqat, islohotlari jarayoni shaxs va jamiyat manfaatlari uyg'unlikda ifodalanadigan erkin demokratik jamiyat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqurroq o'rganish, ularni qabul qilish demokratik jamiyatni qurish, aholining siyosiy faolligini yanada kuchaytirish, ijtimoiy institutlarning ahamiyatini kengaytirish ham shu davrning muhim bosqichini belgilaydi.

Xalqimizning milliy yuksalishi va kelajagi, ko'p jihatdan, tarixiy qadriyatlarga sodiqlik, ularni tiklash va ko'z qorachig'idek asrab-avaylash tuyg'usiga asoslanadi. Bu borada xalqimizga xos asriy an'analar shakllangan. Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik rivojlanishning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.[47]

46. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. - Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 5.
47. Каримов И.А. Хавфсизлик ва баркарор тараккиёт йўлида. Том 6 -жилд.-Т.:»Ўзбекистон», 1998.



Hozirgi davrga kelib fuqarolar ma'naviyatini yangi bosqichga ko'tarishiga diqqat qaratilayotgani bejiz emas. Ushbu yo'nalishda Davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan va 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan harakatlar strategiyasi istiqlol yillaridagi davlat siyosatining bardavom bo'lganidan dalolat beradi. Bu borada, ayniqsa yoshlarga e'tibor tobora kuchayib borayotgani ushbu jarayonning asosiy mohiyatini ko'satib bergan edi.[48] Respublikamiz istiqlolining ilk yillaridan boshlab, ya'ni 1991-yil 20-noyabrda Sobiq ittifoq Respublikalari ichida eng birinchilardan bo'lib yoshlarga doir qonun ishlab chiqilishi buning isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan qonun hujjatlari tizimi shakllantirildi. Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va davlat dasturlari kabi yoshlarga oid ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bularning barchasi yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganidan dalolat beradi.

Yoshlarga oid davlat siyosati, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishning ilk qadamlariga «Sog'lom avlod uchun» jamoat tashkiloti jamg'armasining tashkil etilishi, davlatimizning «Sog'lom avlod uchun» deb atalgan ordenining ta'sis etilishi kabilar ham yaqqol misol bo'la oladi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishning samarali yo'llari va usullarini hayotga joriy etishda barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishga qaratilgan – ta'limni yangicha asosda tashkil etishning bir qator huquqiy asoslari yaratildi. 1997-yilda «Ta'lim to'g'risida» Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Maktablar, litsey va kollejlar ochildi. Oliy o'quv yurtlari yangicha asosda tashkil etildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta'lim islohotini o'tkazishdanu asosiy maqsad, ta'limning vazifalari, dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi. Mazkur dasturning eng asosiy

48«2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил7 февралдаги ПФ-494.

mazmun-mohiyatiga ko'ra «Sobiq ittifoqdan qolgan eski uslublarga barham berish, ta'lim tizimini milliy g'oya asosida tashkil etishdan iborat vazifa belgilab olingan edi. Bundagi eng asosiy vazifa yangi avlodni tarbiyalashning zamonaviy tizimini shakllantirish bo'ldi»[49]. Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan 2004-yil 9-iyulda «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasiningu qarori e'lon qilindi. Ushbu yo'nalishdagi keng ko'lamli islohotlar strategiyasi belgilab olindi. Unga ko'ra «butun ta'lim tizimi qayta qurilib moddiy-texnik ta'minoti yangi bosqichga chiqishi yuksak malakali avlodni tarbiyalash tizimini tashkil etishi zarurligi ko'zda tutildi»[50].

Shubhasiz, «XXI asrni intellektual salohiyat asri deb e'tirof etar ekanmiz, kuchli bilim va tafakkurga ega, ma'rifatli yoshlargina Vatanimiz kelajagini bunyod etadi. Mustaqil O'zbekistonimizning buyuk kelajagini yaratuvchi qudratli kuch sifatida yoshlarimizga ishonch bildirar ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ularning bilimi va tafakkuriga alohida urg'u berish, yosh avlodni bilimli va yuksak iqtidorli insonlar sifatida tarbiyalab voyaga etkazishga e'tibor qaratish lozimligini bejiz ta'kidlamagan»[51].

Aholining o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2014-yilning yanvar oyining holatiga ko'ra, yoshlarning umumiy soni umumiy aholi sonining 60% ga yaqinini tashkil qilgan bo'lsa, hozirgacha bu ko'rsatkich o'sib borganini kuzatish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 1996-yil 17-arpeldagi PF-1425-sonli farmoniga ko'ra, resrublikamiz yoshlarining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati jamg'armasi tashkil etildi. Bu tashkilot o'zining faoliyatini kerakli darajada tashkillashtira olmagani bois 2001-yil 25-apreldagi ta'sis kengashida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati nodavlat notijorat tashkiloti

49. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарк, 1997, - Б. 40-41.
50. «2004-2009 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент:Иктисодиёт ва ҳуқуқ дунёси.-2004. -28(112)-сон, - Б. 5-8.
51. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.https://lex.uz/docs/5841063.



sifatida ta'sis etildi. Lekin afsuski, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etgani kabi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining o'tgan yillar mobaynida yoshlar masalalarini, avvalambor, ularning dolzarb muammolarini yechishdagi, yoshlar mavqeini oshirishdagi sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish zarurati 2017-yilga kelib «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Bularning barchasi istiqlolning ilk davridan hozirgacha ham yoshlarga oid siyosat davlatimiz faoliyatida katta o'rin tutib kelganini yaqqol ko'rsatadi va bu zamon talabini ifodalaydi.

Mana shu talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi. Mazkur qonunda shu sohadagi davlat siyosatining asosiy vazifalari o'z ifodasini torgan.

Xullas, bularning barchasi O'zbekistonning istiqlolga erishishi va mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan borishi milliy tiklanishning asosi sifatidagi tahlili o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi tiklanish jarayonlarining serqirra odimlarini yaqqol ifodalaydi. Ayni paytda bu o'tgan yillardagi islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad-muddaolari va ularning natijalaridan darak beradi. Ushbu natijalar esa, islohotlar bardavomligini, keyingi yillarda ham ularning davom ettirilishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga bularning hammasi O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi va mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan borishi taraqqiyotning negizi sifatidagi isboti o'tgan vaqt mobaynida davlatimiz tarixidagi tiklanish holatining mohiyatini, uning o'ziga xosligi va takomil bosqichilarini aniq isbotlar yordamida tadqiq etish, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy- ma'naviy-madaniy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning ma'nosi chuqurroq tushunib olish maqsadida bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni ham qayd etib o'tish lozimki, istiqlol yillarida milliy tiklanish va ma'naviy hayot masalasida amalga oshirilgan hamma ishlar uzoqqa mo'ljallangan ezgu maqsadga – Respublikamizda farovon turmush tarzini yaratish.

davlatimizning dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi nazarda tutilgan. Bu kabi murakkab va uzoq yo'ldagi ilk qadam sarhisob qilinganda 2010-yildan milliy tiklanishning yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi.[52]

Mazkur bosqichda amalga oshirilgan islohotlar va yangilanishlarning milliy tiklanish va ma'naviy hayotdagi evolyutsiyasi bugungi kunda davom etayotgan o'n yillikda mamlakatimizda ma'naviyatni takomillashtirish jarayonining tadrijiy tarzda amalga oshirilishi barobarida ifodalash mumkin.

Istiqlol yillaridagi milliy tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich tadrijiy tarzda amalga oshdi. Ushbu jarayonda xalq hayotida tub demokratik o'zgarishlar ro'y berdi, hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish va jamiyatni modernizatsiyalash dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi. Bu borada ayniqsa "fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi[53].

Hozirgi kunda mamlakat milliy tiklanish, milliy yuksalish va ma'naviy hayot tizimi faoliyatini samarali tashkil etish, mazkur sohadagi vazifa va ishlar unumdorligiga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida turli xil imkoniyatlarni qidirib topish va shu masalalardagi faoliyatning bardavomligini ta'minlaydi.[54]

Darhaqiqat, agar hozirgi kundagi yurtimizda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarga, bunyodkorlik ishlariga har birimiz o'zimizning shu Vatanda mustaqil sezmog'imiz uchun, bilim olmoq uchun, barcha imkoniyatlarimizni namoyon qilmoq uchun yaratilgan qulay sharoitlarga aqlan boqmoq, shuncha yoshlar uchun barpo etilgan o'quv maskanlarining kim uchun ekanligini anglash va bularga oqilona yondashish maqsadida o'zimizning bilim, ko'nikma va kelajakda yaxshi kadr bo'lish, vatanimizga sidqidildan xizmat qilib berish bilan javob bermog'imiz kerak.

[52] Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат килиш – энг олий саодатдир. –Тошкент. Ўзбекистон. 2015.
[53] Жалилов А. ва бошк. Фукаролик жамияти асослари.- Т.: Baktria press, 2015.
[54] «Фукароларнинг хукуклари ва эркинликларини бузадиган хатти-харакатлар ва карорлар устидан судга шикоят килиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/116757



Bu esa o'z navbatida, xalqimiz, millatimizning kelajak poydevorini qurish, O'zbekistondek buyuk mustaqil davlatning rivoji, ravnaqi Yangi O'zbekiston strategiyasida ko'zda tutilgan yaqin kelajakdagi yuksalish asosi sifatida xizmat qilishi lozimligini teran anglashimiz shart ekanidan dalolat beradi.

## II bobga oid xulosa

XX asr oxirida xalqimizning istiqlolga erishishi uning tarixida nihoyatda muhim voqea bo'ldi va bu yurtimizda yangi milliy tiklanish bosqichi, yangilanish davrini boshlab berdi. Istiqlol yillarida ko'hna tariximiz, milliy davlatchiligimiz, boy madaniy-ma'naviy merosimiz, muqaddas dinimiz, ona tilimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi, mehr-oqibat, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi xalqimizning ongi va qalbidan o'rin egalladi.

Bu davrga xos bo'lgan milliy shakllanish jarayonida xalqimizning ongu-tafakkurimizda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Milliy qadryatlarga e'tibor kuchaydi. Milliy o'zlikni anglash yangi bosqichga ko'tarildi.

Istiqlol yillarida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bozor munosabatlari shakllandi, mulkiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo'ladi. Har bir zamonning o'z zayli, qarashlari, munosabatlari, tafakkur tarzi bo'ladi. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, 2017-yil O'zbekistonning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi.

# III BOB. O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HOZIRGI YANGI BOSQICHIDA MILLIY YUKSALISH G'OYASINING AMALIYOTI VA TAKOMILLASHISH MEXANIZMI

Keyingi yillarda, ko'plab sohalarda tub o'zgarishlar va yangilanishlar joriy etilmoqda. Mamlakatimizda o'z umrini yashab bo'lgan eski paradigmalar chekinib, yangi davr boshlandi va ana shu jarayonda Uchinchi Renessans poydevori yaratilmoqda.

Bu jihatdan, aytish mumkinki, 2017-yil O'zbekistonning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bevosita zamon bilan hamnafas, hozirgi sivilizatsiya talablariga javob beradigan, bugungi kun milliy va dunyoviy ehtiyojlarini nazarda tutgan yangi davr bo'ldi.

Ushbu davrning yuksalish yillari sifatidagi jarayonlar uchun asos bo'lgani esa, jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari bilan milliy xususiyatlarimiz bilan belgilanadigan o'ziga xos jihatlariga mutanosib holda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

«Davlatimizning 2017-yildan boshlab amalga oshirayotgan harakatlar va taraqqiyot strategiyasi aynan ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilgani shubhasiz. Ularga ko'ra amalga oshirilgan ishlar davlatimiz taraqqiyotini butunlay yangi bosqichga ko'tardi va uning istiqbolini ta'minlaydi deyish uchun barcha asoslar yetarli, albatta».[55]

Bugungi islohotlarning o'ziga xos yo'l xaritasi bo'lmish Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat siyosati bilan bir qatorda, iqtisodiyotdagi yuksalishlarga katta ahamiyat qaratilar ekan, faqat shu bilan cheklanib qolinmasdan, ijtimoiy hayotning boshqa jabhalariga ham juda katta e'tibor qaratilgan, ya'ni islohotlarning kompleks xarakteri ta'minlangan.

[55]«2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил7 февралдаги ПФ-494; Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараккиёт стратегияси. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони .https://lex.uz/docs/5841063.



## 3.1. Jamiyat rivojining yangi bosqichidagi islohotlar va yangilanishlar - milliy yuksalish va taraqqiyot omili

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangiliklar jarayonida hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish va modernizatsiyalash bilan bog'liq ustivor vazifalarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Xuddi shu tiklanish jarayoni xalqimizning yuksak turmush tarzini, sabr-u toqat, mehr-u muravvat, mehnatsevarlik singari ijobiy xislatlarini namoyon qilish imkoniyatini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu esa, milliy tiklanish va yuksalish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda, nafaqat butun o'zbek xalqi mentaliteti, madaniyati va muloqot jarayonining ko'p jihatlarini, balki jamiyatdagi mavjud milliy g'oya tamoyillari va uning ma'naviy asoslarini ham qamrab oladi.[56]

Mazkur holat milliy tiklanishning bugungi qiyofasi, hozirgi zamon g'oyaviy asosi sinfiylik, partiyaviylik emas, balki butun bir boshli umumbashariy prinsiplarni ifodalaydi. Hozirgi davrga kelib milliy tiklanish jarayonida turli buzg'unchi g'oyalarning milliy o'zlikni anglashga salbiy ta'siriga yo'l qo'ymaslik, bu jabhada umuminsoniy tamoyillarga tayanishdek aniq maqsadlarga yo'naltirilgan.

Bu serqirra jarayon bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlarni rejali amalga oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining «2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.[57] Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bunga asos bo'ldi.

Xususan, ushbu strategiyada davlat va jamiyat hayotini isloh qilish rejalar majmuida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston birmuncha murakkab bo'lsa-da, eng to'g'ri yo'ldan, ya'ni jamiyat hayotining barcha jabhalariga bir-biriga bog'liq komponentlar sifatida yondoshib, ularning barchasini qamrab olgan kompleks islohotlarni amalga oshirish yo'lidan borayotir. Bu esa tariximizda, qolaversa, boshqa davlatlar tajribasida bugungi kunda kuzatilayotgan kamchiliklar, aniqrog'i,

[56] Абилов Ў. Миллий ғоя: маънавий омиллар.–Т.: Маънавият, 1999.
[57] Ташанов А.Д. Бузғунчи ғояларнинг миллий ўзликни англашга салбий таъсири. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2019. – 48 б.

isloh qilinayotgan sohani bunday yangilanishladan chetda qolgan boshqa sohalar orqaga tortishi mumkinligi kabi holatlarning oldini oladi.

Shu ma'noda, bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ham istiqlol yillarida mazkur yo'nalishdagi ezgu intilishlarning mantiqiy davomi bo'lmoqda, deyish mumkin.

«Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi – harakatlar strategiyasi reallikka aylantiradi. Chunki, shu asosdagi islohotlar fuqarolarni erkinlik va oshkoralikka ham da'vat etmoqda. Bunday xalqchil muhitda yashashga intilish esa xalqimizni har tomonlama mukammal, farovon turmush kechirishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, harakatlar strategiyasi demokratik taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur rivojlanish dasturi o'z vaqtida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan, davlatimizning dunyoda rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishini ta'minlab beradigan noyob hujjat hisoblanadi».[58]

«Unga tayangan holda ro'yobga chiqarilgan faoliyat o'z navbatida «Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi lozim» degan g'oyaga tayangan holda amalga oshirildi. Bunda hokimiyatning barcha bo'g'imlari xalq uchun xizmat qilishi zarurligi belgilab qo'yilgani esa, barcha faoliyat sohalarida ochiq-oshkoralik tamoyilini namoyon etish uchun aynan yaratildi. Mazkur masalada «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» gi qonun qabul qiliganining o'ziyoq buni isbotlash uchun asos bo'la oladi, albatta».[59]

[58]«2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил7 февралдаги ПФ-494 Фармони.
[59]Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. https:// lex.uz/docs/3089924; Сайлов тўғрисидаги қонун ҳужжатлари такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. https://lex.uz/docs/4497111.



O'zbekistonning bosh maqsadi bo'lmish o'tish davrining eng qiyin sharoitlarida odamlar jamoasini, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lgan, shu jumladan, mehnat faoliyatiga tayyorlash, ta'lim, tarbiyada o'z aksini topgan

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir fuqaroga dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligi, erkin shaxsiy fikrlash huquqini berdi. Lekin, bu hol mafkura bilan tub ildizlari Islom diniga borib taqaladigan milliy-madaniy turmush tarzining an'analari, qadriyatlari orasidagi o'zaro munosabatlarda hech qanday konfliktni keltirib chiqarmadi. Barkamol yosh avlodni komillik tomon, ularda Vataniga sodiqli hissini uyg'otish, ularda gumanizm xislatini tarbiyalash kabi ezgu fikrlardan boshladi. Etik-estetik me'yorlari, ilm-fanga bo'lgan qiziqishi yanada kuchaytirish barobarida yoshlarda ularni qamrab turgan atrof-muhit, odamlarga, tabiatga va Ona yurt deb atalmish Vataniga ulkan darajadagi munosabatni rivojlantirdi.

Mamlakatimizda qaror topgan etik, ma'naviy muhit sog'lomligi o'z navbatida o'sha munosabat asosida jonkuyarlik, dahldorlik, majburiyat, mas'uliyat hislarini o'zida mushtarak etgan vatanparvarlik ruhini qaror toptirdi. Shu kabi tuyg'ular o'zining tanasida g'urur-iftixor hissini, g'oyaviy sobitqadamlik, sodiqlikni uyg'un etgan holda inson uchun ulkan etik qadriyat sanaladi.

Ona Vatan muhabbati bilan qorilgan millatning irodasi, fidokorona xizmatlari, kuch-qudrati-yu vafosi asrlar osha tarix sinovlaridan o'tib kelmoqda. Shu zaminda millatimizning bir yoqadan bosh chiqarib, yeng shimarib ishlashi, ularning jipsligi, hamjihatliligi, ahil-inoqligi yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda butun insoniyat tarixida ayovsiz sinov bilan ro'baro' kelib turibmiz. Dunyo bo'ylab sayohat qilib yurgan, insonlarni tahlikaga solgan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish avj olgan pallada. Bu balo odamlarning tinchligiga, ayniqsa sog'ligiga putur etkazmoqda. O'zbek xalqi o'z davlat rahbari boshchiligida bu ofatga qarshi kurashishning eng samarali va oqilona yo'lini tanlab, dunyo e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Yurtboshimiz yakdilligimiz yana bir bora o'zining isbotini topib, sinovli kunlarda o'tkazayotgan bu baloga qarshi kurashish qanchalik mushkul, qanchalik

ahamiyatga ega ekanligini qayd etar ekan, birinchi navbatda milliy qadriyalarimizga sodiqlikni saqlab qolish shunchalik hayotiy zarur ekanligini tushuntirib o'tdilar. Darhaqiqat, milliy-madaniy, ma'naviy merosimizning o'chmas namunalaridan biri bo'lgan qanoat qilish, mehrli bo'lish, rahmdillik, hamjihatlik, bag'rikenglik kabi qadimiy fazilatlar biz tanlagan yo'lning eng ta'sirchan quroli bo'lishi kerak. Ushbu ona yurt, Vatan tuyg'usi va insonpavarlik bilan yanada mustahkam poydevor hisoblanadi.

Bugungi kunda xalq bilan muloqotning bir ko'rinishi sifatida mamlakatimizda «Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash» mavzusida keng miqyosda ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Unda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini fuqarolarimizga etkazish, bunyodkorlikka chorlash, shukuronalik hissini uyg'otish, ijtimoiy ma'suliyatni kuchaytirish, hududlarda pozitiv jamoatchilik fikrini, daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, o'zgarishlar va islohotlarga xayrixohligini oshirishdan iborat. Eng asosiysi, fuqarolarimizning kayfiyatini ko'tarish, mehr-oqibat, shukronalik, o'zaro yordam kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada kuchaytirishdir.

Ushbu masalada alohida ta'kidlaganidek, davlat organlarining aholi barcha qatlamlari bilan ishlash uchun o'zaro yaqin munosabatlar uchun shart-sharoit yaratilgani bu jabhadagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Ayni shu yo'nalishda «O'zbekiston Respublikasining keyingi yillarda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Elektron hukumat to'g'risida» va «Parlament nazorati to'g'risida» kabi qonunlari islohotlarning tizimliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda».[60]

Ayni paytda, aholi bilan ishlash, xalq orasiga kirishda barcha darajadagi rahbar xodimlar faoliyatida oshkoralik tamoyili asosida ish tashkil qilishayotgani,

[60]«Давлат хокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни. https://lex.uz/docs/2381133; «Электрон хукумат тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни. https://lex.uz/docs/2833860; «Парламент назорати тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни. https://lex.uz/docs/2929477.



bunda «Xalqni rozi qilish» g'oyasiga asoslanib ishlarni tashkil etilayotgani sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil nashrdan chiqqan «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» kitobida harakatlar strategiyasi asosida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun ana shu ulkan ahamiyatga molik o'zgarishlar jarayonining mazmun mohiyati, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati yorqin ifoda etilgan. O'zbekiston Prezidenti jonajon Vatanimizni yanada obod, xalqimizni baxtli – saodatli qilishdek muqaddas va zalvorli vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga, barqaror va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohotlarni amalga oshirishda mamlakatimizning jonkuyar lideri sifatida jonbozlik ko'rsatmoqda. Hozirgi bosqichni milliy yuksalishlar davri deb hisoblash mumkin. Milliy yuksalishga erishmoq uchun Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa, taraqqiyotning kafolatidir».[61]

«Bugungi kunda ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida shakllantirilgan kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma'no-mazmuni va ruhi mujassam etilishiga alohida e'tibor qaratilayotgani aslo bejiz emas»[62].

Ayni shu kunlarda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan har bir kunimiz xalqimizning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyatining yana bir amaliy namoyoni, erkin, ozod va farovon hayotimiz, g'uru-iftixorimiz timsoli sifatida yangi tariximiz solnomasiga tom ma'noda yorqin sahifa bo'lib kimoqda.

[61]. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ғафур, 2019. – Б. 5.
[62]Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.https://lex.uz/docs/5841063.

ahamiyatga ega ekanligini qayd etar ekan, birinchi navbatda milliy qadriyalarimizga sodiqlikni saqlab qolish shunchalik hayotiy zarur ekanligini tushuntirib o'tdilar. Darhaqiqat, milliy-madaniy, ma'naviy merosimizning o'chmas namunalaridan biri bo'lgan qanoat qilish, mehrli bo'lish, rahmdillik, hamjihatlik, bag'rikenglik kabi qadimiy fazilatlar biz tanlagan yo'lning eng ta'sirchan quroli bo'lishi kerak. Ushbu ona yurt, Vatan tuyg'usi va insonparvarlik bilan yanada mustahkam poydevor hisoblanadi.

Bugungi kunda xalq bilan muloqotning bir ko'rinishi sifatida mamlakatimizda «Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash» mavzusida keng miqyosda ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Unda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini fuqarolarimizga etkazish, bunyodkorlikka chorlash, shukuronalik hissini uyg'otish, ijtimoiy ma'suliyatni kuchaytirish, hududlarda pozitiv jamoatchilik fikrini, daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, o'zgarishlar va islohotlarga xayrixohligini oshirishdan iborat. Eng asosiysi, fuqarolarimizning kayfiyatini ko'tarish, mehr-oqibat, shukronalik, o'zaro yordam kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada kuchaytirishdir.

Ushbu masalada alohida ta'kidlaganidek, davlat organlarining aholi barcha qatlamlari bilan ishlash uchun o'zaro yaqin munosabatlar uchun shart-sharoit yaratilgani bu jabhadagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Ayni shu yo'nalishda «O'zbekiston Respublikasining keyingi yillarda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Elektron hukumat to'g'risida» va «Parlament nazorati to'g'risida» kabi qonunlari islohotlarning tizimliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda».[60]

Ayni paytda, aholi bilan ishlash, xalq orasiga kirishda barcha darajadagi rahbar xodimlar faoliyatida oshkoralik tamoyili asosida ish tashkil qilishayotgani,

[60]«Давлат хокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/2381133; «Электрон хукумат тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/2833860; «Парламент назорати тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/2929477.



bunda «Xalqni rozi qilish» g'oyasiga asoslanib ishlarni tashkil etilayotgani sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil nashrdan chiqqan «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» kitobida harakatlar strategiyasi asosida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun ana shu ulkan ahamiyatga molik o'zgarishlar jarayonining mazmun mohiyati, jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati yorqin ifoda etilgan. O'zbekiston Prezidenti jonajon Vatanimizni yanada obod, xalqimizni baxtli – saodatli qilishdek muqaddas va zalvorli vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga, barqaror va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohotlarni amalga oshirishda mamlakatimizning jonkuyar lideri sifatida jonbozlik ko'rsatmoqda. Hozirgi bosqichni milliy yuksalishlar davri deb hisoblash mumkin. Milliy yuksalishga erishmoq uchun Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa, taraqqiyotning kafolatidir».[61]

«Bugungi kunda ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida shakllantirilgan kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma'no-mazmuni va ruhi mujassam etilishiga alohida e'tibor qaratilayotgani aslo bejiz emas»[62].

Ayni shu kunlarda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan har bir kunimiz xalqimizning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyatining yana bir amaliy namoyoni, erkin, ozod va farovon hayotimiz, g'uru-iftixorimiz timsoli sifatida yangi tariximiz solnomasiga tom ma'noda yorqin sahifa bo'lib kimoqda.

[61]. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Тошкент: Ёшлар, 2019, - Б. 5.
[62]Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараккиёт стратегияси – Тошкент: O'zbekiston, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида»Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.https://lex.uz/docs/5841063

Yangi O‘zbekiston strategiyasi jamiyat taraqqiyoti va hayotining jabhasi uchun nihoyatda muhim va dorulomon ahamiyatga ko‘ra nihoyat darajada yangilanishlarga xizmat qiladigan muhim asosdir. Bu borada qabul qilinganidan keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlar yaratishdek modernizatsiya bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli *ijtimoiy-siyosiy* islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining faoliyatini ilg‘or demokratik va milliy yondashuvlar asosida amalga oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlar yaratishdek modernizasiya bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Bu strategik vazifalarning ilgari surilishi mamlakat rivoji uchun muhim bo‘lgan va xalqni rozi qilish uchun tizimli ishlarni amalga oshirishni taqazo etadi. O‘z navbatida bu keyingi ishlarda tashkil etilayotgan xalq qabulxonolari tizimi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ayni paytda Prezident vertual qabulxonalari amalga oshiradigan faoliyat bo‘yicha vazifalari va vakolatlarining belgilanishi muhim ahamiyatga ega

Prezident strategiyada siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat qilishdagi faoliyatga yangi imkoniyat yaratish uchun «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» ilgari qabul qilingan qonunni yangi tahrirda qabul qilish vazifasi belgilab olindi.

O‘z navbatida bunday yangi huquq ijodkorligi bo‘yicha vazifalarning o‘z vaqtida belgilab olinishi, xalq hokimiyatchiligining vujudga kelishida eng muhim talabdir. Zotan, jamoatchilik boshqaruvi davlat boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirishning yorqin ko‘rinishi. Aholining davlat boshqaruvi ishida faol ishtirokini ta’minlash aynan uni erkinlashtirishning asosidir.

Har qanday davlatning kuchli, huquqiy davlat ekanligi uning adolatli va qat’iyatli siyosati, ijtimoiy adolatni, haqiqatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosidagi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Aynan qonun doirasidagi erkinlik, qonun doirasidagi erkin faoliyat ishlab chiqarish madaniyatini



ham, turmush tarzi ma’naviy meyorlarini ham davlat boshqaruvi tamoyillarini ham qadriyatga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi qabul qilinguniga qadar, uning muhokamasi davrida va qabul qilinganidan so‘ng sud-huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2017-yil 12-aprelda «Sudlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual va Xo‘jalik prosessual kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonunlar qabul qilindi.

Ma’lumki, iqtisodiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili. Harakatlar strategiyasida ushbu masalaga alohida e’tibor berilib, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish uchinchi ustuvor yo‘nalish etib belgilandi. Jumladan, mamlakatni yangilashda iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish vazifalari belgilab olindi. Chunonchi, O‘zbekiston o‘tgan 26 yil mobaynida uzoq yillardan buyon yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini 8 % dan tushirmay keldi. U dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlarining birinchi beshtaligi tarkibida turibdi. Ana shu tarixiy yutuqni yanada rivojlantirish va iqtisodiy qudratli davlat maqomini saqlab qolish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadidir.[63]

Ijtimoiy sohani rivojlantirish - harakatlar strategiyasida alohida e’tiborda bo‘lib, to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash butun jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Istiqlol yillarida Respublikamizda ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar hajmi 5 barobar ko‘paytirildi, har yili ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat byudjetining qariyb ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YAIM tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy

[63] «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони https://lex.uz/docs/5841063

qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, ushbu soha qamrab oladigan yoshlar qatlami xalq himoyaga muhtoj qatlam bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar byudjet xarajatlar qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida 2016-yil 29-dekabrda «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» uning asosida dastur ishlab chiqildi. Prezident qaroridan kelib chiqib yangi strukturaviy tuzilma - Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qarori va uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-maydagi» Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 304-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-uiyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-sonli qarori ushbu tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifalarini belgilab berdi. 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining» Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 3775-sonli qarorida muammolar tanqidiy tahlil qilinib tegishli vazifalar belgilab berildi. 2019-yil 8-oktyabrda «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Pezidentning PF-5847-son farmoni bilan Respublika oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning maqsadli ko'rsatkichlari hamda 2019- yildan amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi qabul qilindi.[64]

[64] Мактабгача таълим тизимида фаолият кўрсатаётган ихтисослаштирилган мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида маълумот. https://mdo.uz/uzc/maktabgacha-talim-tizimida-faoliyat; Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. https://lex.uz/docs/5520855; Олий таълим тизимидаги устувор вазифалар белгиланди. https://president.uz/uz/lists/view/4424; «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон Фармониhttps://lex.uz/docs/4545884



«Yangi O'zbekiston strategiyasi» asarida Prezidentimiz ushbu yo'nalish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan va yuksak ahamiyatga molik vazifalarni belgilab bergan. Asarda mavjud muammolar tanqidiy tahlil qilinib, eng dolzarb vazifalar, xususan, akademik ilm-fanni va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, rahbarlar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi borasidagi aniq vazifalar belgilab berilgan».[65]

Har qanday mamlakatda jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta'minlashda eng avvalo, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishidir. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi. O'tmishdan ma'lumki, yurtimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o'zaro inoq va tinch – totuvlikda istiqomat qilishgan.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy davomi sifatida mamlakatmizning jahondagi ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqish ham muhim strategik vazifa sifatida belgilanganligini aytib o'tish lozim.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar o'zaro inoq, totuvlikda yashab kelmoqda. Respublika ko'p konfessiyali mamlakatdir, hozirda O'zbekistonda 16 ta konfessiyaga mansub 2 ming 243 ta diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida, mazkur konfessiyalarning emin-erkin faoliyati uchun barchasiga teng imkoniyatlar mavjud.[66] Ayniqsa, yurtimizda ko'rlab millat va elatlar madaniy markazlarining erkin faoliyat olib borayotganligi fikrimizning tasdig'idir. O'zbekistonda vijdon erkinligi, har kimning xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki qilmaslik huquqi to'liq ta'minlangan va qonuniy kafolatlangan. Mazkur holat, ko'p millatli, ko'p konfessiyali bo'lgan mamlakatda o'ziga xos yondashuv bo'lib, shu ma'noda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston o'ziga xos boy tajriba orttirganligini ta'kidlash o'rinlidir.

[65] Ш.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон. – 2017

[66] Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021

Mamlakatda ushbu omilni e'tiborga olgan holda, jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdagi muhim bosqich 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonuni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim voqelik bo'ldi. Ushbu Qonun mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish uchun davlat hokimiyati organlarini jamiyat oldida hisobotligini ta'minlaydi, fuqarolarning mijoz sifatida samarali va qulay davlat xizmati asosida o'z manfaatlarini qondirish, muammolarini hal etish imkoniyatiga erishadi, qonun yaratgan huquqiy erkinliklar fuqarolarning faollashuviga, ularning davlat boshqaruvi jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Muhimi, Prezidentning harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir islohotlari jarayoni xalq nazoratida bo'ladi, bu yo'ldagi og'ishlar yoki chetga chiqishlar jamoatchilik nazorati vositasida bartaraf etib boriladi. Mamlakatda jamoatchilik nazorati maqomi va nufuzini yuqori darajaga ko'tarilishi – bu davlatimizning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga moslashib borayotganligini anglatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyati va rahbarlar ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga nazariyada ham, amalda ham katta e'tibor qaratiladi. Bu nazorat turi fuqarolar, fuqarolik jamiyati tuzilmalari, xususan OAV orqali ta'minlanadi. Bunda fuqarolar hokimiyat organlari tomonidan huquq va burchlari buzilgani haqida shikoyatlar bilan chiqishi mumkin. Bunday nazorat muassasalarining vazifasi fuqarolarni amaldorlar o'zboshimchaligidan himoya qilishga qaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining O'PQ-474-son «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasida jamoatchilik nazoratining obyekti ko'rsatib o'tilgan.

«O'tgan qisqa davrda mamlakatimizda mustaqil fuqarolik institutlarini rivojlantirish va mustahkamlash, ularning erkin faoliyati kafolatlarini ta'minlash, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish, davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini



o'rnatish yuzasidan kompleks va izchil ishlar amalga oshirildi. Bu jabhada muhim hujjatlar qabul qilindi».[67]

«Davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlariga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqish, aholi bilan ochiq va manzilli muloqot olib borishning yangi samarali vositalari va mexanizmlarini joriy etish maqsadida har bir davlat organida, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar qoshida, barcha Respublika darajasidagi hokimiyat organlarida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek hozirgi kunda barcha tashkilotlar va muassasalarda ham jamoatchilik kengashlari tashkil etilmoqda. Asosiy masala qabul qilingan qonunlar, qarorlar va farmonlar asosida ularning faoliyatini kuchaytirish, mustaqilligini ta'minlash, ochiqlik va shaffofligini oshirishdan iboratdir».[68]

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish maqsadida davlat organlari va veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqishi va taqdim etishi belgilab qo'yildi.

So'ngi yillarda fuqarolarimiz adolatsizlikka, loqaydlikka, rasmiyatchilikka va turli sohalarda o'z huquqlarining poymol etilishiga duch keladigan holatlarga nisbatan sezgir va e'tiborli bo'lib borayotgani ular bilan hukumatning muloqoti va suhbatga tayyorligini tasdiqlaydi. Bu esa jamoat nazorati subyektlari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi aloqa xususiyatini o'zgartirish uchun ijtimoiy buyurtmaning mavjudligini ko'rsatadi.

Keyingi yillardagi belgilangan vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari mustaqil demokratik taraqqiyotning har bir yilida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va keyingi yilda bajariladigan ishlar dasturi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda

[67] «Ахолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизимини тубдан ислох қилиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, http://www.president.uz/uz/lists/view

[68] «Давлат хокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/2381133; «Электрон хукумат тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/2833860; «Парламент назорати тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси конуни https://lex.uz/docs/2929477

alohida muhim hujjat sifatidagi maxsus murojaatnoma bilan xalqqa murojaat qilish dunyoning ko‘rchilik taraqqiy topgan mamlakatlarida mavjud. Mustaqil O‘zbekistonning yangi tarixida bu amaliyot o‘zining ijobiy samaralarini berib kelmoqda.

Xullas, O‘zbekiston bugungi kunda o‘z Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida mustaqil taraqqiyotimizning o‘tgan davri moboynida to‘plangan tarixiy tajribalarga tayangan holda, uni yanada boyitish, takomillashtirish, rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. O‘tgan besh yillikda amalga oshirilgan xarakatlar strategiyasi bugungi taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar tayyorladi, deyish uchun hamma asoslar yetarli.[69]

### 3.2. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston jamiyatining milliy yuksalish imkoniyatlari va istiqbollari

Monografiyamizning yuqoridagi qismiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrini boshlab bergani alohida ta’kidlangan edi. Mamlakatimiz mustaqil demokratik rivojlanish yo‘lidan milliy tiklanish bosqichlarini o‘tib, milliy yuksalish sari yuz tutdi. O‘tgan mustaqillik yillarida boshdan kechirgan sinovlar, xalqimizning istiqlol yillaridagi irodasini va sobitqadamligini namoyon qildi. Bu esa o‘z navbatida bugungi islohotlar uchun zamin hozirlashga imkon bergani shubhasiz. O‘tgan besh yil mobaynida parlamentarizmni rivojlantirish va xalq hokimiyatini mustahkamlash, davlat boshqaruvi organlari hisobdorligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirildi. Mamlakatni boshqarish bilan bog‘liq davlat idoralari va hokimiyat tuzilmalari shakllanib amaliyotga qo‘llana boshladi.

[69] «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил 7 февралдаги ПФ-494; Мирзиёев Ш. М . Янги Ўзбекистон тараккиёт стратегияси . – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.https://lex.uz/docs/5841063



Xalqimizning siyosiy tafakkuri, siyosiy partiyalar faoliyati, fuqarolik institutlariga amal qilish darajasi ortib bordi. Qonun ustivorligi asosida inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o‘zgardi. Majburiy mehnat va bolalar mehnatini to‘liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani qabul qildik. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo bo‘lishimizning o‘zi ham olib borayotgan siyosatimizning yuksak xalqaro e’tirofidir.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada muhim qonun hujjatlari qabul qilindi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Iqtisodiyotda mamlakatni iqtisodiy izolyasiya, ya’ni yakkalanib qolish holatidan chiqarish hamda demografik o‘sish ko‘psatkichlariga mutanosib ravishda liberallashtirish ishlari olib borildi. Qisqa muddatda valyuta bozorini liberallashtirish, xalqaro tajribalarga tayangan holda yangi mazmundagi bank-moliya tizimi joriy etishga alohida ahamiyat berildi. Mulkiy plyuralizm darajasi ancha ortdi.

O‘zbekiston yangi tarixida 2019-yilda ilk bor kambag‘allikni kamaytirishga kirishildi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – «Temir daftar» tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali yuz minglab fuqarolarning bandligi ta’minlandi.[70]

Mavjud ta’lim tizimida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Eng yosh bolalar uchun maktabgacha ta’limdan tortib toki oliy ta’lim tizimigacha yangilanib bormoqda. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalari, xususiy maktablar ochilmoqda. Maktabgacha tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi yangilanib borishi muttasil davom etmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasini yanada isloh etish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktlari, tez tibbiy yordam xizmati, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini yanada yaxshilash

[70] Убайдуллаева Р. «2019 йил якунлари жамоатчилик фикри кўзгусида» // Ижтимоий фикр. Инсон хукуклари. – Тошкент, 2020. №1. – 25 б.

bo'yicha ishlar ham o'z samaralarini bermoqda.

«Shu bilan birga mamlakatimizda gender tengiligi, xotin qizlarning jamiyatidagi o'rni va ahamiyati masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi va «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va ularning amaliyoti bu boradagi ishlarning salmog'ini yaqqol ko'rsatadi».[71]

Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Eng nufuzli xaqaro tashkilot bo'lgan BMT tomonidan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasining aynan O'zbekiston taraqqiyotiga ko'ra qabul qilingani bog'liq emas. Yangi O'zbekiston rivojiga mos zamonaviy yoshlar avlodini tarbiyalab voyaga etkazish maqsadida ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ma'rifiy va ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarda eng yaqin qo'shni davlatlar bilan munosabatlar yaxshilandi, mustahkam o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga quyildi. Jahon hamjamiyati bilan aloqalar tobora mustahkamlanish yo'llari amalga oshirildi.

AQSh, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Evropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi.

«Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlar natijasida dunyo hamjamiyatida O'zbekistonga bo'lgan qiziqish va ishonch ortmoqda, Vatanimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda, yurtimiz xalqaro indekslarda yuqorilab bormoqda. Bu borada «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda».[72]

[71]«Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ва имкониятлар кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни // https://lex.uz/docs/4494849; «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни // https://www.lex.uz/docs/4494709

[72]«Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. https://lex.uz/docs/39149



Bu jihatdan, keyingi o'tgan yillardagi yuksalish jarayonini Prezidentimiz asarlari, xususan Oliy Majlisga Murojaatnomalari va shu asosda qabul qilingan Davlat dasturlari asosida tahlil qilsak ushbu strategik taraqqiyot yo'lining mazmunini, maqsad va yo'nalishlarini to'la-to'kis anglash va tasavvur qilish imkoni yanada kengayadi.

2017-yil 22-dekabrda Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisga taqdim etilgan ilk Murojaatnomadan boshlab mamlakatimiz Prezidentining har bir Murojaatnomasi, avvalambor, xalqimizning bunyodkorlik yo'nalishidagi orzu istaklari, ezgu maqsadlari ifodasiga aylanib qoldi.

Prezidentimiz o'zining har bir Murojaatnomasida birinchi navbatda o'tgan yilda amalga oshirilgan ishlar ko'lami, erishilgan natijalar tahlili bilan birga galdagi maqsad va vazifalarimiz, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, amalga oshirish chora-tadbirlarini aniq ravshan belgilab berilishi bilan ahamiyatlidir. Bir so'z bilan aytganda Prezidentimiz Murojaatnomalari mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida chuqur demokratik o'zgarishlar samaradorligini ta'minlashda oshkoralik va shaffoflikka qat'iy amal qilish borasida dasturi amal vazifasini o'taydi. Haqiqatda har bir Murojaatnomada mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilab berilgan.[73]

Xususan, «2018-yilda qabul qilingan davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 mlrd. dollarga teng 76 mingta loyihaning amalga oshirilganligi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan rejalarning amaliy natijasini ta'minlashga xizmat qildi. Quvonarlisi shuki, aholining real daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshdi. Hududlarni kompleks rivojlantirish sari yo'naltirilgan mablag'lar bilan bir vaqtda soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi, ya'ni 5,5 trillion so'm

[73]ЎзбекистонРеспубликасиПрезидентиШавкатМирзиёевнинг ОлийМажлисгаМурожаатномаси 22.12.2017 https://www.prezident.uz/uz/lists/view/1371; ЎзбекистонРеспубликасиПрезиденти ШавкатМирзиёевнинг Олий МажлисгаМурожаатномаси 28.12.2018//https://www.prezident.uz/uz/lists/view/2228; ЎзбекистонРеспубликасиПрезидентиШавкатМирзиёевнинг ОлийМажлисгаМурожаатномаси 24.01.2020 //https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3324

hududlarda qoldirildi. Bu ko'rsatkich 2017-yildagiga nisbatan 6 barobar, 2016-yildagiga nisbatan esa 32 barobar ko'p ekanligi quvonarlidir. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun ekanligini ta'kidlar ekan, Prezidentimiz xalqimiz turmush sharoitlarini uzluksiz yaxshilab borish ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini tashkil etishiga doimiy e'tibor qaratdilar. Ushbu maqsadda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga 3 trillion so'm mablag' ajratilib, natijada 416 ta qishloq zamonaviy qiyofaga kirdi».[74] Ayniqsa, «Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz» dasturlarining amalga oshirilishi aholini, ayniqsa, yosh avlod vakillarini ijtimoiy faollashtirishning muhim omiliga aylandi.

Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlashda Prezidentimiz avvalambor, barqaror iqtisodiy usishning muhim omil ekanligiga e'tibor qaratdi. Islohotlar natijasida bugun xalqning turmush tarzida aks etishi – samaradorlik belgisidir. Bunday samaradorlik kishilarning ijtimoiy turmushi, madaniyat va ma'rifat yuksakligi bilan belgilanadi. Oxir-oqibatda bunday o'zgarishlar tafakkur o'zgarishi, xalq ijodkorligi va tashabbuskorligi bilan uyg'unlashib boradi. Zero, iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar natijasida xalqimiz uchun munosib hayot tarzi va turmush sharoitlari yaratib berilayotgani amalga oshirilayotgan bunday jarayonlar hamda o'rganishlarning mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir».[75]

Prezidentimiz iqtisodiyot sohasida belgilangan vazifalar dolzarbligiga birlamchi e'tibor qaratadi. Jumladan, 2019-yilni «Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» deb nomlashni taklif qilar ekan, avvalo, investisiyalarni jalb qilish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarining jadallashtirilishi ko'zda tutilganligini ta'kidlab o'tdi. Iqtisodiy rivojlanish o'z navbatida ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi.

Shu tariqa iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish va undan ko'zlangan maqsadlarimiz bayon qilinar ekan, barcha sohalar qatori, iqtisodiy jabhadagi

[74]Халқ сўзи. 2018 йил, 29 декабрь.
[75]Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018, - Б. 121.



islohotlar jarayonida ham ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga tomon yo'l ochish, yashirin iqtisodiyotni barham toptirish, bu boradagi qing'irliklarga qarshi kurashni kuchaytirish, valyutani erkinlashtirish va nihoyat, iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlarning etakchisi va tashabbuskori – taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovasion tafakkuri uyg'un bo'lgan etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.[76]

Ana shu maqsad va vazifalarni amalga oshirish doirasida sohaga doir o'n bitta ustuvor yo'nalish belgilab berildi. Har bir yo'nalishda belgilangan rejalar, talablar va vazifalar iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliya va bank sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ayrim iqtisodiyot tamoillariga og'ishmay amal qilish bu sohadagi muhim maqsad va vazifalarni mazmunini belgilaydi.

Aynan ushbu maqsad va vazifalarning eng muhimlari bugungi kunda amalga oshirilayotgan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'z aksini topgan asosi bejiz emas. Ayniqsa bu maqsadlar mamlakatimiz rivojlanishining bugungi dialektika jihatdan qo'llab chiqadi.

Ushbu dialektika esa jamiyat taraqqiotining barcha sohalarini o'zaro aloqadorlikda va uslubiy bog'liqlikdagi g'oyaning nazardan qochirmaslik zarurligini aytadi. Shu sababdan ham mazkur maqsadlar o'zaro aloqadorlikda aniq belgilab berilgan.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz o'z Murojaatnomalarida harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha imkoniyatlar, shart sharoitlar hamda moddiy va ma'naviy manbalarni belgilab bergan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2021-yil taqdim etgan navbatdagi Murojaatnomasi yangilanish yo'lidan borayotgan O'zbekiston ijtimoiy

[76] Абдуллаева И. Г. Миллий тараққиётнинг янги босқичида иқтисодий ва инновацион тафаккур уйғунлиги. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети. 2019. – 48 б.;

hayotida muhim siyosiy jarayon – xalq deputatlari mahalliy kengashlariga va Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga o'tkazilgan saylovlar davriga to'g'ri keldi. O'z Murojaatnomasida Prezidentimiz o'tkazilgan saylovlar bo'yicha fikrlarini bayon qilar ekan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar o'tkazilgan ushbu siyosiy jarayonda ham o'z ifodasini topganligini ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, «Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida o'tkazilgan saylovlar xalqimizning siyosiy faolligi, ongi va madaniyatini yana bir karra namoyish etib, Prezidentimizning yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birga quramiz deb ishonch bilan aytgan so'zlarining hayotiy ifodasiga aylandi. Xalqaro kuzatuvchilarning O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlarning xalqaro normalarga mos holda, demokratik tamoyillarga to'liq amal qilinib, erkin raqobat va erkin tanlovlar muhitida, siyosiy partiyalarning faolligi bilan o'tkazilganligi haqidagi ijobiy fikrlariga munosabat bildirar ekan, Prezidentimiz «Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida o'tgan ushbu saylovlar fuqarolarimizning jipsligi, faolligi va mas'uliyatini namoyon etgan yangi siyosiy muhit vujudga kelganligini ta'kidlagani bejiz emas.

Zero keyingi yillar tajribasi jamiyatimiz a'zolari siyosiy faolligi oshgani, ularning huquqiy madaniyati tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Endilikda aholining davlat faoliyatiga nisbatan jamotchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ham ijtimoiy-siyosiy faol bulish imkoniyatlari yaratildi. Bularning barchasi inson manfaatlarini islohotlarning asosiy mezoni sifatida e'tirof etish yangi O'zbekistonda rivojlangan fuqarolik jamiyatini bunyod etishda qanchalik muhim ekanligini bildiradi. [77]

Yangilanayotgan O'zbekiston hayotida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tavsifini qisqacha bayon qilib, Prezidentimiz BMT 72-sessiyasida ta'kidlagandiki «Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan

[77] Абдумаликов А. А. Фукаролик жамиятини ривожлантириш шароитида шахс информацион маданиятини шакллантириш. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Самарканд: Самарканд давлат университети, 2018. – 40 б.



bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, ulardan ko'zlangan maqsad – «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat». [78]

Yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan O'zbekistonda inson qadrini yanada oshirish, uning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda huquqiy va ma'naviy sohalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalari Prezidentimizning navbatdagi Murojaatnomasida belgilab berildi. Barcha sohalar taraqqiyoti va muvaffaqiyatining garovi bo'lgan axborot texnologiyalarining ahamiyatiga jiddiy e'tibor qaratib, Prezidentimiz raqamli texnologiyalar biz tanlagan yuksalish yo'lining keng imkoniyatlari manbai ekanligini uqtirdi. Ana shu maqsadda jamiyat taraqqiyotining zamonaviy qiyofasini belgilab beruvchi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, va so'zsiz, ushbu jarayonning talabi hamda tayanchi bo'lgan ilm-fan taraqqiyoti, ma'naviy-ma'rifiy yuksalish masalalari ham qamrab olindi.

Jamiyatimizda oila institutini yanada mustahkamlash, millatlararo munosabatlari yangi bosqichga ko'tarishga e'tibor qartilayotgani ham milliy yuksalishning muhim omillaridan biri bo'lmoqda. Ayni shu maqsadda keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko'rsatadi.

O'z Murojaatnomasida 2020-yil nomiga mos sohalar rivojiga e'tibor qaratar ekan, Prezidentimiz birinchi galda ilm-fan va ma'naviy rivojlantirishning poydevori bo'lgan ta'lim islohotlariga alohida e'tibor qilingan. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va yangilanish jarayonlari maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limni to'liq qamrab olib, ushbu tizimlar rivojllangan davlatlar tajribasiga asoslangan holda zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida uzviy aloqadorlikda rivojlantiriladi.

[78] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутки. – «Халк сўзи», 2017 йил 20 сентябрь.

Shuningdek, kasb-hunar ta'lim tizimi ham butunlay yangi asosda tashkil etilishi nazarda tutilgan. So'zsiz, Prezidentimiz yangi O'zbekistonni barpo etishda bilim va kasb-hunarni puxta egallagan yoshlarga ishonch bildirmoqda. Eng zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, bilim va tafakkur dunyosi keng bo'lgan, ma'naviyat va ma'rifat dunyosida namuna bo'la oladigan ana shunday yoshlarsiz O'zbekistonning kelajagini, jahon hamjamiyatidagi mustahkam o'rnini tasavvur etib bo'lmaydi.[79] Shunday ekan, bugungi kunga kelib ma'naviy barkamol, bilimli va yuksak iqtidorli yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish milliy yuksalishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri, yoshlarga oid davlat siyosati dinamikasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'layotgani aslo bejiz emas.[80]

E'tibor qiladigan bo'lsak, Prezidentimiz o'zining har bir chiqishida bu yo'nalishdagi rivojlanish odimlarini ilm-fan, ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotiga bog'liqligini alohida ta'kidlamoqda. Mazkur jabhada ham milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yana bir isbot talab qilmas haqiqat shuki, «biz milliy yuksalish sari aniq maqsad va vazifalarni belgilab olingan ekan har bir sohadagi islohotlarni amalga oshirish mexanizmini tushunadigan, kreativ fikrlaydigan, ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish ehtiyoji saqlanib qolaveradi, albatta. Shu maqsadda ta'lim tizimini jadal rivojlantirish borasida barcha imkoniyatlarni ishga solish, yetuk bilim olish va kasb-hunar o'rganish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish zaruriyatini anglash davr talabiga aylandi. Keyingi yillarda Prezident va ijod maktablari, iqtisoslashgan ta'lim muassasalari shakllanayotgani aynan ana shu talabni hisobga olish natijasidir. Ushbu tizim yurtimizda eng iqtidorli va etuk bilimli avlodni tarbiyalashning eng ilg'or yetakchi tuzilmasiga aylanib borayotgani isbotlaydigan misollar ko'p».[81]

---

[79] Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 512 б.

[80] Бўронова Д.Д. Ёшларга оид давлат сиёсати динамикаси ва муаммолари (Ўзбекистон мисолида): Сиёсий фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Тошкент: 2019. –192 б.

[81] Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. https://lex.uz/docs/5520855; Мактабгача таълим тизимида фаолият



«Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilajak islohotlar dasturiga alohida to'xtalar ekan, Prezidentimiz oliy ma'lumot olish uchun intiladigan yoshlarimiz uchun shart-sharoitlarni yanada qulay qilish, qabul kvotalarini oshirish hisobiga oliy ta'lim olishga imkoni bo'lgan maktab o'quvchilar sonini 50-60 foizga etkazish vazifasini qo'ydi».[82]

Jahon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashning yetakchi tarmog'i bo'lgan oliy ta'limning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligiga erishish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish mumkinligini ta'kidlab, iqtisodiyot sohasidagi muhim vazifalar aniqlab olindi.

---

кўрсатаётган ихтисослаштирилган мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида маълумот. https://mdo.uz/uzc/maktabgacha-talim-tizimida-faoliyat;

[82] Олий таълим тизимидаги устувор вазифалар белгиланди. https://president.uz/uz/lists/view/4424; «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон Фармони https://lex.uz/docs/4545884

## III. Milliy yuksalish asosiy tamoyillari

| № | yillar | Asosiy tamoyillar | Natijalar |
|---|---|---|---|
| 1 | 2017 | Tanqidiy tahlil | Jamiyat hayotidagi "og'riqli nuqtalar" ochiq-oydin tanqid qilinishi kerak |
| 2 | 2017 | Shaxsiy javobgarlik | Har bir rahbar uchun hayotiy qoidaga aylanishi zarur |
| 3 | 2017 | Qat'iy intizom | Qonun ustuvorligi va tartib-qoidalar mustahkamligini ta'minlash darkor |
| 4 | 2017-2023 | Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak | Harakatlar strategiyasining 1-ustuvor yo'nalishi – davlat va jamoat qurilishini takomillashtirish lozim |
| 5 | 2017-2023 | Inson manfaatlari – eng ustuvor | Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo'yildi. |
| 6 | 2017 | Xalq bilan muloqot | Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash davlat xizmati tashkil etildi |
| 7 | 2018 | Innovasiyalar | Tashqi savdo aylanmasini oshirish yo'lidagi islohotlar amalga oshirildi |
| 8 | 2021 | Ta'lim sifati | Ta'lim jarayonida jahon talablari darajasiga bosqichma-bosqich o'tishi yo'lidagi islohotlar bo'yicha qonun va qarorlar qabul qilindi |
| 9 | 1917-2023 | Diniy e'tiqod erkinligi | Tolerantlik tamoyillari asosida din va davlat aloqalari kuchaytirildi. |
| 10 | 1917-2023 | Millatlararo totuvlik | Ko'pmillatli davlat tamoyillari asosida jamiyat rivojlanmoqda. |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | 2023 | Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, tubdan yangilandi | Kuchli demokratik, ijtimoiy davlat qurish maqsad qilindi. |
| 12 | 2023 | Prezident saylovi o'tkazildi | Yangi Konstitutsiya asosida yangi muddatga saylandi. |

Bu borada asosiy e'tibor makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya jarayonlarini nazorat qilish, faol investisiya siyosatini izchil davom ettirish, bank tizimida islohotlarni davom ettirib, ushbu sohani tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan, xalq ishonchini oqlay oladigan moliyaviy hamkorga aylantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib, jahon bozoridan mustahkam o'rin egallash, etakchi sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo bilan ta'minlash, biznes muhitini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng ilg'or, samarali usullarini qo'llash va bu borada iqtisodiy erkinlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning zamonaviy va serdaromad tarmog'i bo'lgan turizmni rivojlantirish, urbanizasiya jarayonlarini jadallashtirgan holda aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish iqtisodiy o'sishning eng muhim yo'nalishlari deb belgilandi.

Ana shu mazmundagi strategik maqsadlarni amalga oshirish ijtimoiy sohada belgilangan rejalarimizning muvaffaqiyatini ta'minlash garovidir. Keyingi yillarda davlatimizning ijtimoiy sohadagi siyosatiga xalqni rozi qilish tamoyiliga amal qilgan holda aholining yordamga muhtoj qatlamlariga har tomonlama yordam berish ularni qo'llab-quvvatlash sohadagi vazifalarni bajarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu sohada islohotlar samaradorligini ta'minlash avvalambor, har bir fuqaroning o'z turmush sharoitidan rozi bo'lib yashamog'i, davlat va jamiyat ravnaqi birinchi galda xalq farovonligi bilan belgilanmog'i lozimligi, Prezidentimizning qaror va farmonlarida, Oliy Majlisga yo'llagan har bir Murojaatnomasida belgilab berilgan.

Bu borada, juda oqilona aytilgan fikrni keltirish ayni muddaodir: «Xalq boy bo'lsa – davlat boy bo'ladi». Bu da'vat hech shubhasiz, yangilanayotgan O'zbekiston uchun yuksalishning asosiy g'oyasi bo'lib qolmoqda. Ma'lumki,

bugungi kunda davlatimiz barcha imkoniyatlarini demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati bapro etish sari yo'naltirgandir. Bu borada rivojlangan demokratik davlatlarida davlat boshqaruvi, hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligi, fuqarolar erkinligi doirasida to'plangan tajribalar chuqur o'rganilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Gap fuqarolarimizning davlat va hokimiyat organlariga ishonchi ustida borar ekan, ana shu tizim faoliyatining ochiqligi, shaffofligi muhim ahamiyatga ega. Milliy yuksalish bilan bog'liq islohotlarda har bir shaxs huquqlarini himoyalash, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklari qonun bilan kafolatlanganligi muhim ahamiyatga ega. Bu jabhada "Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingani fikrimizni tasdiqlaydi.[83]

Ana shunday huquqiy me'yorlar asosida Prezidentimiz Murojaatnomasida nafaqat yuqori davlat organlari, balki quyi tizim boshqaruv organlari rahbarlari, jumladan, viloyat, tuman va shahar hokimlarining ham hisobdorligini qat'iy o'rnatish lozimligi ta'kidlandi.

Mamlakatimizda barqaror tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasida ichki va tashqi siyosat masalalariga to'xtalar ekan, Prezident har safar o'z Murojaatnomasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini qaror toptirish borasida belgilagan rejalarimiz, amalga oshirilajak chora-tadbirlarimizga e'tiborni jalb qiladi. Ayni shu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarimiz davlatimiz tinchligi va xavfsizligining, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborining kafolati ekanligi barchamizga ayon. Bu borada biz tanlagan tashqi siyosat yo'li uzoq va yaqin davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan

[83] «Фукароларнинг хукуклари ва эркинликларини бузадиган хатти-харакатлар ва карорлар устидан судга шикоят килиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси конуни. https://lex.uz/docs/116757; «Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолияти кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни //https://lex.uz/docs/1101278.



hamkorlik, ko'p qirrali sheriklik, yaqin qo'shnichilikka yo'naltirilgan tinchlik va hamjihatlik yo'lidir. Ayni shu yo'lda biz dunyoning rivojlangan davlatlari bilan birga turli darajadagi xalqaro tashkilotlar, progressiv harakatlar bilan sermahsul hamkorlik aloqalari o'rnatib, ushbu tashkilotlarning to'laqonli a'zosi sifatida o'z o'rnimizga, mavqeyimizga va ovozimizga ega bo'lib kelmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod Shavkat Mirziyoyevning O'zLiDPning nutqida ta'kidlanganidek, bundan besh yil ilgari Mamlakatimiz rahbari o'zining saylovoldi dasturini e'lon qilgan va unda mamlakatni yangilash bo'yicha maxsus strategiyani ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari muhim vazifa sifatida aniq-tiniq va xolisona belgilangan edi.

Harakatlar strategiyasi amalga oshirilgan besh yil, yani 2017–2021-yillarda O'zbekistonni 5 ta ustuvor yo'nalishida rivojlantirishga erishildi. Bu borada besh yilda 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod farmon va qarorlar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Mamlakat hayoti tubdan o'zgardi, turli sohalarda natijador islohotlar olib borildi.

Bunda ayniqsa «Davlat – inson uchun» tamoyilga amal qilina boshlangani, «xalqni rozi qilish» harakat qilinayotgani aslo bejiz emas. Aynan shu yillarda «Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi zarur» tamoyili asosida «mahallabay» ishlash tizimi joriy etildi, barcha davlat va nodavlat idoralar qoshida tashkilotlar faoliyatida ochiqlik-oshkoralikga erishish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Xalq hokimiyatchiligi g'oyasi va inson qadrini ulug'lash bo'yicha qator tizimli ishlarni samarali tashkil etish mexanizmi shakllandi. Bunda ayniqsa, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovasion rivojlantirish qonuniyatlariga alohida e'tibor qaratildi.[84]

Mamlakat hayotida o'tgan asr va o'n yilliklarda ustuvor bo'lgan avvalo davlat va jamiyat so'ngra inson manfaatlari bilan tamoyili o'zgartirishga erishildi. «Senat-jamiyat-davlat» tamoyiliga amal qilishga erishildi, «Xalqparvar davlat» g'oyasi

[84] Саиткосимов А. И. Фукаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий сохани инновацион ривожлантириш конуниятлари. Фалсафа фанлари д-ри (DSc) дис. автореф. – Самарканд: СамДУ, 2019. – 61 б.

asosida ishlash bu sohadagi barcha faoliyatning bosh mezong aylandi. Qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar va farmonlar amaliyotga ham ana shu me'zonga asoslanib ishlashga harakat qilishmoqda. Bugun jamiyatda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish, siyosiy partiyalar hamda nodavlat tashkilotlar fuqarolik institutlarining hayotidagi o'rni va ahamiyati muttasil oshirishga harakat qilinmoqda. Bunda ayniqsa «to'rtinchi hokimiyat» sanaladigan ommaviy axborot vositasida ta'sirlarining tobora oshirib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, keyingi yillarda qabul qilingan qarorlar va farmonlar bu yo'ldagi islohotlarning yangi bosqichga ko'tardi, buning uchun barcha asoslar bor. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda qonun ustuvorligi bilan bog'liq demokratik tamoyillarga amal qilish darajasini yanada baland ko'tarish uchun asos bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishda huquqiy madaniyatning fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.[85]

Shu bilan birga, butun mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy islohotlarning davomiyligini hayotbaxshligini ta'minlaydigan dastur va rejalar quyidagilar uchun mustahkam asos bo'lmoqda.

**Birinchidan,** hozirgi davrda mamlakatimizda aholi soni 35 mlndan ortdi, bu ko'rsatgich bo'yicha O'zbekiston jahonda 37 o'ringa ko'tarildi. Bunday sharoitda aholi uchun zarur xizmatlar ko'rsatish, oziq-ovqat masalalari nihoyatda dolzarblashib bormoqda.

**Ikkinchidan,** yurtimizda har yili 600 ming avlod vakillari mehnat bozorini to'ldirmoqda. Ular uchun munosib sharoit, ish joylari yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Uchinchidan,** jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot ko'lami ortmoqda, axborot texnologiyalari sohasi shiddat bilan o'sib bormoqda, biotexnologiya va suniy intelekt sohasi rivojlanmoqda. Innovatsion texnologiyalar va bilimli avlod iqtisodiyot rivojini belgilamoqda. Iqtisodiyot rivojini uskunalar emas, balki

[85] Насириддинова О.Т. Хуқуқий маданият – фукаролик жамиятини шакллантиришда муҳим омил.. Юрид. фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.– Тошкент: Тошкент давлат Юридик институти, 2009. – 149 б.



zamonaviy bilim va innovasiyalar belgilaydigan zamon keldi.

**To'rtinchidan,** butun jahonda iqlim o'zgarib, suv resurslari asta-sekin kamaymoqda va bu ushbu omillar bilan bog'liq sohalar uchun salbiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, suv tanqisligi muamosi nihoyatda dolzarblashayotganini qayd etish zarur.

**Beshinchidan,** dunyo miqyosida globallashuv muammolari, xalqaro terorizm, buyuk davlatchilik shovunizmi, ekstremizm xavfi ortmoqda. Bu esa jahondagi va mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlikka rahna solmoqda.

Bularning barchasi bugungi zamon muammolariga teran munosabatda bo'lishni talab qilmoqda. Va bu davlatimiz siyosatida yorqin aks etmoqda. Ayni paytda keyingi yillardagi yutuq va qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni ham hech kim rad etolmaydi.

Amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuq va natijalar, qo'lga kiritilgan marralarni nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyat ham bugun xolisona e'tirof etmoqda. Shu o'rinda ayrim raqamlarga e'tiborni qaratish buni yaqqol isbotlaydi. Xususan, so'nggi besh yilda iqtisodiy o'sish 24 foizga, sanoat – 34 foiz, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa, 3 barobarga ortdi, mamlakatdagi ishlovchi aholiga nisbatan 2,2 marta ko'paydi.

Bugungi kunda har 100 ta oilaga 162 ta televizor, 107 ta muzlatgich, 287 ta mobil telefon, 49 ta yengil avtomobil to'g'ri kelmoqda, oilalarning qariyb yarmi shaxsiy avtomobiliga ega.

Keyingi yillarda mamakatni yanada taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus strategiya ishlab chiqildi. Yaqinda «O'zbekiston» nashriyotida chop etilgan «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» asari mazkur strategiya to'la-to'kis asos etgan asosiy manbadir.

Xullas, yurtimiz rivojining hozirgi davrida uni taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda, islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida istiqlol yillaridagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni keyingi yillarda ham bardavom bo'layotganidan dalolat beradi.

## 3.3. Taraqqiyot strategiyasi – milliy yuksalishning ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida yurtimizni taraqqiy ettirishning eng muhim yo'nalishlari qatorida mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish masalalari ustivor ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas. Negaki, rivojlangan va farovon hududlar – barqaror taraqqiy etayotgan O'zbekiston davlati, baxtli yashayotgan xalq va boy mamlakat deganidir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishdagi dolzarb vazifalardan biri mamlakatimizning barcha hududlarida islohotlar bardavomligini ta'minlashdan iboratdir. Bu borada har bir iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-marifiy rivojini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[86]

Ushbu yo'nalishda avvalo, hokimliklar va mahalliy kengashlar uchun alohida tizimlarni shakllantirish, hokimlarning hisobdorligini belgilab qo'yish bu sohadagi eng muhim vazifalardan biriga aylandi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zLiDePning O'zbekiston Prezidentligiga nomzodi sifatida Respublikamizning barcha hudularida saylovchilar bilan o'tkazgan uchrashuvlardagi nutqlarida mamlakatimiz hududlarining bugungi kundagi rivojiga alohida ahamiyat qaratilganini ta'kidlashimiz lozim.

Masalan, mamlakatimizning muhim va ajralmas tarkibiy qismi Qorag'alpog'iston Respublikasining Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston strategiyasida alohida o'rin egallaganligi nihoyatda o'rinli va shubhasizdir. Ushbu Strategiyada bu yerda yashaydigan xalq bilan birgalikda fidokorona mehnat orqali Yangi

[86]Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2021; «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. https://lex.uz/docs/5841063



O'zbekistondagi Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etish vazifasi ham yuksak maqsadlardan biri sifatida belgilab olingani alohida ta'kidlangani aslo bejiz emas.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, Qoraqalpog'iston deganda barchamizning ko'z o'ngimizda o'ziga xos, betakror tabiatga ega bo'lgan bepoyon kengliklar, murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan, fidokorona mehnat qilib, ona Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan olijanob insonlar siymosi namoyon bo'ladi.

Qoraqalpog'istonning ulkan hududi bor, shahar va tumanlar, ovullar orasidagi masofa ham ancha uzoq. Mustaqillik yillarida qoraqalroq xalqi ham barcha sohalarda samarali mehnat qilib, ulkan yutuq va natijalari bilan yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shu paytga qadar qoraqalpog'istonlik minglab insonlar Vatanimizning yuksak orden va medallari, faxriy unvonlari bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi. Jumladan, o'tgan davr mobaynida bu zamindan etishib chiqqan Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qayiqbergenov, Ag'itay Adilov, Allaniyaz O'teniyazov, Gayratdin Xojaniyazov, Sarsenbay Seytnazarov, Anesiya Saitova, Musa Erniyazov singari fidoyi insonlar «O'zbekiston Qahramoni» oliy unvoniga sazovor bo'lishdi. Ularning sharafli hayoti va faoliyati yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Misol uchun, Allaniyaz O'teniyazov hayotlik chog'ida halol peshona teri bilan to'plagan shaxsiy mablag'i hisobidan ehtiyojmand odamlarga 42 ta uy-joy, 4 ta maktab, 4 ta bog'cha va 4 ta tibbiyot punktini qurib bergan.

Xorijiy mamlakatlardagi ko'plab insonlar ham bunday ulkan saxovat va bag'rikenglikka qoyil qolib, Allaniyaz O'teniyazovga xatlar yozishgan. Masalan, argentinalik millioner X.SaRun Allaniyaz og'aga yo'llagan maktubida uning ezgu ishlaridan saboq olib, o'zi ham bundan buyon oddiy insonlarga ko'mak berishga qaror qilganini qayd etadi. Hech shubhasiz, Allaniyaz O'teniyazov o'z eliga sadoqati va saxovati bilan qoraqalpoq xalqiga xos eng yaxshi qadriyatlarni butun dunyoga namoyon etdi. Shuning uchun, Nukus shahrining ko'rkam mavzelaridan

biriga bu ulug' insonning nomi berildi.[87] Qoraqalpog'iston zaminidan etishib chiqqan juda ko'plab taniqli olimlar, ijodkor va san'atkorlar o'zlarining noyob iste'dodi bilan yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoyib kelishmoqda. Ularning nomlarini shunchaki sanab chiqishning o'zi juda ko'p vaqtni oladi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri, «Ayqulash» milliy folklor ansambli, Igor Saviskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi tom ma'noda O'zbekiston san'atining faxri hisoblanadi. Bundan buyon ham qoraqalpoq tili va adabiyotini rivojlantirishga, qoraqalpoq xalqining madaniyati va san'atini mamlakatimiz va jahonda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda, hozirgi paytda «Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari» ko'p jildlik to'plami o'zbek tilida nashr qilinmoqda. Ayni vaqtda, butun dunyoda «Sahrodagi Luvr» deb shuhrat qozongan Saviskiy muzeyi bo'yicha AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiyaning etakchi ilmiy-madaniy muassasalari bilan hamkorlikda maxsus tadqiqotlar amalga oshirilib, chet tillarda kitob va albomlar nashr qilinadi. Xorijdagi nufuzli madaniyat markazlarida uning ko'rgazmalari tashkil etiladi. Bir paytlar Toshkentda qoraqalpoq madaniyati kunlari, Qoraqalpog'istonda o'zbek madaniyati kunlarini o'tkazish an'anasi mavjud edi. Endilikda ana shu yaxshi an'anani qayta tiklab, qoraqalpoq san'atini nafaqat poytaxtimizda, balki viloyatlarimizda ham namoyish etsak, o'ylaymanki, xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ladi. «Oddiy xalq orasidan etishib chiqqan mohir baxshi-jirovlar qoraqalroq xalqining boy va betakror xalq og'zaki ijodiyotini yuksak cho'qqiga ko'targanlar. Shuning uchun ham ikkinchi Xalqaro baxshichilik festivalini aynan Qoraqalpog'istonda o'tkazildi. Kuni kecha qoraqalpog'istonlik iste'dodli jirov Jonibek Riyazov festivalning bosh sovrini – Gran-Pri mukofotiga, baxshi Gulbahor Aximbetova esa ikkinchi o'ringa sazovor bo'lgani hammamizni quvontirdi. Nukus shahrida qoraqalpoq adabiyotining so'nmas yulduzi, O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi ochildi. Toshkent shahridagi muazzam Adiblar xiyobonida Berdaq, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov

[87]ЎзЛДПдан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Қоракалпоғистонлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь.



haykallarining o'rnatilishi qoraqalpoq xalqiga, uning betakror adabiyoti va madaniyatiga yuksak ehtiromimiz ramzi bo'ldi».[88]

Xususan, Sh.M. Mirziyoyevning Qoraqalpog'istonlik saylovchilar bilan 2021-yil 21-sentyabridagi uchrashuvida alohida ta'kidlanganidek: «O'zbek bilan qoraqalpoq – et bilan tirnoq» degan gap ham ayni haqiqat. Xudo taoloning o'zi qoraqalpoq va o'zbek xalqlarini taqqdirdosh qilib yaratgan va bu bebaho boylikni ko'z qorachig'idek asrash – barchamizning burchimizdir. «Oxirgi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,6 million gektar maydonga saksovul va sahro iqlimiga chidamli boshqa o'simliklar ekib, o'rmonzor barpo etishga erishdik. Yaratganning inoyati bilan O'zbekistonning barcha viloyatlari ishtirokida qisqa vaqt ichida ushbu tumanda qanday katta ishlarni amalga oshirilganini el-yurtimiz ko'rib turibdi»[89].

«Bundan besh yil avval Qoraqalpog'istonda jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi mamlakatimizda eng oxirgi o'rinda bo'lgan. Bugungi kunda esa, 9-o'ringa ko'tarildi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining atigi 4 foizi eksportga yo'naltirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yilda 30 foizga yetdi. Umumiy eksport hajmi 2011-2015-yillarga nisbatan 3,5 barobarga oshib, 2,1 milliard dollarni tashkil etdi. Agar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2016-yilgacha 15 million dollarga ham yetmagan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 100 million dollardan oshadi. Yoki, 25 yil davomida xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar soni 50 tani tashkil etgan bo'lsa, oxirgi besh yilda esa, 130 ta bunday yangi korxonalar ishga tushirildi. O'tgan besh yilda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 2 milliard dollardan ziyod 2 ming 500 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Hududda sanoatning jadal rivojlanishiga asosiy turtki bo'lgan to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish o'rtacha 3 barobarga o'sdi.Kichik biznes sub'ektlari soni 2 barobar ko'payib, qariyb 21 mingtaga etdi.

[88]ЎзЛиДеПдан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Қоракалпоғистонлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь

[89]ЎзЛиДеПдан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Қоракалпоғистонлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь

Bu davrda 83 mingta yangi doimiy ish o'rinlari yaratilib, o'rtacha ish haqi 2,8 barobarga oshib,2,7 million so'mga etdi.Maktabgacha ta'limda qamrov darajasi 28 foizdan 71 foizga etkazildi (115 ming nafar bolalar, bog'cha bilan qamrab olindi)».[90]

«Eng muhimi, qoraqalpoq diyorida yashayotgan zahmatkash insonlarning ko'nglida ertangi kunga ishonch uyg'ondi va u tobora mustahkamlanib bormoqda. Shahar va tumanlarda 14 ta yangi maktab va 32 ta tibbiyot muassasasi barpo etildi, 173 ta maktab va 101 ta tibbiyot muassasasi rekonstruksiya qilinib, ta'mirlandi. Shuningdek, o'tgan to'rt yil ichida 4 ta yangi oliygoh tashkil etildi. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida, qariyb 13 mingta xonadonli uy-joylar barpo etildi (oldingi besh yilga nisbatan 4 barobar ko'p). Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 40 foizdan 65 foizga etdi, 61 ta ovul va mahallada yashovchi 350 ming nafar aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Qayta tashkil etilgan Bo'zatov tumani markazida, Mo'ynoq tumani va barcha tuman markazlarida katta hajmdagi qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi». «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida, 81 ta olis qishloq va ovullarning qiyofasi tubdan o'zgardi. Umuman, o'tgan besh yil davomida Qoraqalpog'istonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga jami 17 trillion so'm yo'naltirdik. Shu jumladan, byudjetdan 4 trillion so'm, xalqaro moliya tashkilotlaridan 444 million dollar hamda 10 trillion so'm bank kreditlari ajratildi».[91]

Xuddi shunday yuksalish odimlarini «Xorazm viloyatidagi o'zgarishlar va yangilanishlarda ham yaqqol ko'rish mumkin. Prezidentimizning 2021-yil 22-sentyabrda ushbu viloyat saylovchilari bilan uchrashuvdagi nutqida keltirilgan quyidagi dalillar va raqamlarni buning yaqqol isbotidir, deyish mumkin: O'tgan davrda viloyatda 141 mingta yangi doimiy ish o'rinlari yaratildi. "Temir daftar"ga kiritilgan 17 mingta oila daromad manbai bilan ta'minlanib, kambag'allikdan

[90]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Қорақалпоғистонлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь.

[91]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Қорақалпоғистонлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь



chiqarildi. O'rtacha ish haqi qariyb 3 barobarga oshib, 2,5 million so'mga yetdi. O'tgan besh yilda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati 2 milliard dollar bo'lgan, 7 mingdan ziyod investitsiya loyihalari amalga oshirilib, yangi quvvatlar ishga tushirildi. Jumladan, Xivada yirik gilam ishlab chiqarish fabrikasi, Bog'ot, Yangiariq va Urganch shahrida trikotaj, Yangiariqda meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari o'z faoliyatini boshlab, minglab yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Tuproqqal'ada elektrdvigatel va avtomobil kuzovi panellari ishlab chiqarish bo'yicha yirik sanoat quvvatlari ishga tushirildi. Hududga jalb qilingan investitsiyalar 2,5 barobarga o'sdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoya hajmi 7 barobarga oshib, yiliga 150 million dollarga yetdi. Sanoat mahsuloti hajmi 1,7 barobarga ko'paydi, 64 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi».[92]

Bularning barchasi Xorazm viloyatidagi o'sish sur'atlarining darajasi va ko'lamini yaqqol namoyon etadi, albatta. Ayni paytda bu, mazkur hududni makmlakatimizni keyingi yillarda kompleks rivojlantirishning nihoyatda keng miqyosda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va islohotlarning tarkibiy qismiga aylanganidan dalolat beradi.

«Bunday yuksalish jarayonini yana quyidagilarda yaqqol ko'rish va kuzatish mumkin: keyingi yillarda viloyatda yetakchi sohalar bo'lgan to'qimachilik, avtomobilsozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish o'rtacha 2 barobarga o'sdi. Eksport hajmi oldingi 5 yilga nisbatan 2 barobarga oshib, 720 million dollarni tashkil etdi. Ko'p yillar davomida muammo bo'lib kelgan Toshsoha irrigatsiya tizimi 146 million dollar hisobiga rekonstruksiya qilindi. Natijada,191 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlariga suv yetib bordi. Paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2 barobarga, meva-sabzavot va pilla bo'yicha 3 barobarga oshdi. Viloyatda 100 million dollardan ziyod mablag' yo'naltirilib, 370 gektar zamonaviy issiqxonalar barpo etildi. Turizm sohasida 80 ta yangi mehmonxona qurildi, jami mehmon o'rinlari 2 barobarga

[92]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Хоразмлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 22 сентябрь.

oshdi. Xiva shahriga temir yo‘l etib bordi va yangi vokzal ishga tushirildi. Kichik biznes subyektlari 2 barobarga ko‘payib, ularning soni 22 mingdan ortdi. Maktabgacha ta’lim qamrovi 21 foizdan 65 foizga etkazildi (qo‘shimcha 71 ming nafar bolalar bog‘chaga qamrab olindi). Viloyatda 3 ta yangi oliygoh tashkil etildi. 6 ta yangi maktab qurildi va 205 ta maktab rekonstruksiya qilindi. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida, o‘tgan besh yilga nisbatan 3 barobarga ko‘p, ya’ni 12 ming xonadonli uy-joylar barpo etildi, yuqori kuchlanishli yangi elektr tarmoqlari qurilib, elektr ta’minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti darajasi 52 foizdan 80 foizga etdi, 503 ming aholi toza suv bilan ta’minlandi. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 89 ta qishloq va mahalla hamda barcha tuman markazlarini obod qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Davlat byudjetidan 2,4 trillion so‘m, xalqaro moliya tashkilotlaridan 226 million dollar, shuningdek, 4 trillion so‘m bank kreditlari ajratildi. Umuman, o‘tgan besh yil davomida Xorazmni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga jami 9 trillion so‘m yo‘naltirildi».[93]

«Mamlakatimiz hayoti va taraqqiyotida uning poytaxti – Toshkent shahrining alohida o‘rni va ahamiyati bor, albatta. Bu jihatdan O‘zbekiston Prezidentligiga O‘zLiDeP nomzodining Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvdagi nutqida keltirilgan quyidagi raqamlarga ham e’tibor beraylik: Respublikamizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi o‘tgan davrda poytaxtimizda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Toshkent shahri iqtisodiyotini izchil rivojlantirish borasida amalga oshirilgan choralar natijasida, so‘nggi besh yilda yalpi hududiy mahsulotaholi jon boshiga 2016 - yildagi 15 million so‘mdan 40 million so‘mga yetdi».[94]

“O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabt yetishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilm-u fan, san’at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘z ijodida yerishgan

[93]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Хоразмлик сайловчилар билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 22 сентябрь.

[94]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шахри сайловчилари билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 19 октябр



yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo‘shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. Matonatli xalqimiz esa azal-azaldan o‘zgarish va qiyinchiliklarga tayyor bo‘lgan. Bilamizki, jamiyat hech qachon bir joyda turmaydi va doim rivojlanish hamda yangilanishga intiladi. Shu sababli - qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar o‘zgaradi. Yoshlar esa - shu taraqqiyot va o‘zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch asosidir. Bugun o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida innovatsion g‘oya va loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan yoshlar juda ko‘pchilikni tashkil qilishi bizni, albatta, quvontiradi”.[95]

Tahlillarga ko‘ra, «2026 - yilga borib, poytaxt aholisi 3,2 million nafardan ortishi kutilmoqda. Yana yarim milliondan ziyod odam kuniga shaharga kelib ketadi. Bu o‘z navbatida, shahar infratuzilmasi, ta’lim, tibbiyot, jamoat transporti, uy-joy kommunal va boshqa barcha sohalarga yuklamani ancha oshishiga olib keladi. Shularni inobatga olib, kelgusi besh yilda Toshkent shahrini rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Jumladan, kelgusi besh yilda «Toshkent yashash uchun qulay shahar»ga aylanishi bo‘yicha barcha sharoitlar yaratiladi. Shahar hududi joriy yilda 8 ming gektarga kengaytirildi. Poytaxtning atxitektutasi va qiyofasini saqlab qolish maqsadida, ushbu hududda «Yangi Toshkent» konsepsiyasi amalga oshitiladi va bosqichma-bosqich shahat sharqiy yo‘nalishga qarab kengaytiriladi. Toshkent shahriga qo‘shilgan hududlarni yashash uchun har tomonlama qulay qilish maqsadida, alohida dastur qabul qilinib, bu yerda istiqomat qilayotgan 100 mingdan ziyod aholining yashash sharoiti yaxshilanadi. Ushbu hududlarda yangi korxonalar, sanoat zonalari, aholi dam olish maskanlari, iqtisodiy va ijtimoiy obyektlar quriladi. Shahar hududidagi avariya holatiga kelgan, 60-70 yil avval qurilgan ko‘p qavatli uylar o‘rniga, zamonaviy turar-joylarni barpo etish bo‘yicha «Innovatsiya dasturi» amalga oshiriladi. Bunda, ushbu uylarda yashaydigan aholini rozi qilib, ularga yangi uylardan maqbul takliflar berilishi shart. Jumladan, Bektemir tumanida 20 ming xonadonli zamonaviy massiv barpo

[95] Dilova.N.G. Sharq allomalarining ilmiy merosi - uchinchi renesans uchun katta imkoniyat // "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10. 510 b.

etilib, bog‘cha, maktab, tibbiyot muassasasi va dam olish markazlari quriladi. Yangi hayot tumanida infratuzilmaga yaqin hududda, yirik massiv shaklida 200 ta ko‘p qavatli uylar qurilib, 10 mingdan ortiq oilaning turmush sharoiti yaxshilanadi».[96]

Mamlakatimiz taraqqiyotining keyingi yillarda amalga oshirilgan hududlarni rivojlantirish strategiyasida Farg‘ona vodiysiga, unda yashaydigan xalq farovonligini yanada yangi bosqichga ko‘tarish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgani barchamizga ma’lum. Bu hududdagi barcha viloyatlar qatori, Farg‘ona viloyatidagi islohotlar va yangilanishlar jarayoni va ushbu sohada qo‘lga kiritilgan natijalar buning yaqqol dalilidir.

“Milliy tiklanish millat taraqqiyoti tarixining birinchi bosqichida ma’lum bir obyektib va subyektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qayta millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq jarayondir. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarmizning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining yuksalishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi va tadqiq etilishi, fan va ta’lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan bog‘liqdir. Tafakkurning o‘zgarishi va yuksalishi o‘z navbatida milliy g‘oyaning xalqmiz ongi va qalbidan qanchalik chuqur joy olayotganligi bilan o‘z o‘lchanadi”.[97]

«O‘zLiDePdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Sh.M.Mirziyoyevning Farg‘ona viloyati saylovchilari bilan 2021-yil 21-sentyabrdagi uchrashuvida so‘zlangan nutqda keltirilgan dalillar va raqamlar buni to‘la-to‘kis isbotidir, desak yanglishmaymiz. Avvalo, unda alohida ta’kidlanganidek, qadimiy va betakror Farg‘ona zaminida mard va olijanob, oqko‘ngil va mehmondo‘st, samimiy va oriyatli, ishchan va mirishkor xalq yashaydi. Shu sababdan ham, Farg‘ona «Oltin vodiyning gavhari» deb e’zozlanadi. Farg‘ona ahliga xos go‘zal fazilatlarni, bu saxovatli diyordan etishib chiqqan

[96]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шаҳри сайловчилари билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 октябрь.

[97] Zairov A.S. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari // Scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. 961 b.



davlat va jamoat arboblarini, olim-u ulamolar, shoir-u hofizlarni, tadbirkor va ishbilarmon odamlarning nomlarini ta’riflaydigan bo‘linsa, suhbat «Farg‘ona tong otguncha» ham tugamaydi. Aslida, unga zarurat ham yo‘q, chunki ularning ezgu ishlarini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi»[98].

Nutqda qayd etilganidek, bugungi kunda Marg‘ilon shahrida tashkil etilgan Ijodkorlar bog‘i, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov nomidagi Ijod maktabi, shoirning memorial muzeyi va muazzam haykali nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun mamlakatimizning adabiy-ma’naviy muhitiga, yoshlar tarbiyasiga beqiyos ta’sir o‘tkazmoqda. Bu borada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik siymolaridan biri – Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning hayoti va faoliyati alohida o‘rin tutadi. Barchamiz bu ulug‘ shaxs siymosida hamisha ilm-ma’rifatga, yangilikka intilgan, taraqqiy parvar inson timsolini ko‘ramiz. Furqat – Farg‘ona jadidlarining ma’naviy otasi bo‘lgan, desak, o‘ylaymanki, yanglishmagan bo‘lamiz. Ushbularni qayd etar ekan Prezidentimiz, mana, biz yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga harakat qilyapmiz, hech shubhasiz, agar mustamlaka tuzumining qatag‘on siyosati bo‘lmaganida, ushbu Renessansni ma’rifatparvar jadid bobolarimiz yaratgan bo‘lar edi, deya ta’kidlagani aslo bejiz emas. Shuning uchun ham Davlatimiz rahbarining betakror shoir, millatparvar, xalqimizni bir umr ilmu ma’rifatga, taraqqiyot va yorug‘ kelajakka chorlab o‘tgan shaxs – Zokirjon Furqatning el-yurtimiz oldidagi buyuk xizmatlarini inobatga olib, uning ijodini yanada keng ommalashtirish, Qo‘qon shahri markazidagi Furqat bog‘ida shoirning haykalini o‘rnatish, taklifi har tomonlama katta ahamiyatga ega bo‘ldi.[99]

“Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash. Milliy g‘oyani rivojlantirishning ijtimoiy-ahloqiy masalalari qatoriga kiruvchi mazkur tamoyilining mazmun - mohiyati jamiyatning rivojlanishida asrlar davomida yaratilgan qadriyatlardan oqilona foydalanish, uni

[98]ЎзЛиДеПдан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Фарғона вилояти сайловчилари билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21 сентябрь.

[99]ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг Фарғона вилояти сайловчилари билан учрашувида сўзланган нутк. 2021 йил 21сентябрь.

asrab-avaylash hamda yoshlar ongiga singdirish orqali kelajak avlodga yetkazib berishda o'z ifodasini topadi".[100]

Bularning barchasi, Yangi O'zbekiston g'oyasi va strategiyasi adolatli demokratik davlat qurishdan iboratligi va adolatli davlatning xususiyati shundayki, u avvalo qonun ustuvorligini qaror toptirishi kerakligi haqidagi Prezident xulosasining birgina Farg'ona viloyati misolidagi amaliyotda namoyon bo'layotganini anglatadi. Ayni paytda bu, Yangi O'zbekistonni barpo etish borasidagi faoliyatning birinchi kunidan «Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi», degan siyosatni, ya'ni, inson qadrini ulug'lash, inson manfaatini ta'minlash tamoyilini eng ustuvor vazifa sifatida belgilab olinganining ma'nakmazmuni va maqsad-muddaosini yaqqol namoyon qiladi. Ana shu xalqchil siyosatning natijasi sifatida bugungi kunda Farg'ona viloyatining qiyofasi ham, bu yerda yashayotgan odamlarning turmushi, hayotga qarashi ham butunlay o'zgarib bormoqda[101] va bu boradagi islohotlar hamda yangilanishlar keyingi yillarda ham o'z bardavomligini saqlab qolishi shubhasiz.

Xuddi shunday mamlakatimiz taraqqiyotida o'z o'rni va salmoqli ahamiyatga molik Surxondaryo viloyatini rivojlantirish masalalari ham Yangi O'zbekiston strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi, Respublikamiz hududlarini taraqqiy ettirish dasturining muhim bir yo'nalishi, desak xato qilmaymiz. O'zLiDePdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Sh.M.Mirziyoyevning Surxon vohasi saylovchilari bilan 2021-yil 7-oktyabrdagi uchrashuvida so'zlangan nutqda keltirilgan dalillar va raqamlar buni yaqqol isbotlaydi.

Surxon vohasi muqaddas dinimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan tabarruk zamin ekanini, barchamiz iftixor bilan tilga olamiz. Bu diyordan yetishib chiqqan Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Varroq Termiziy, Sobir Termiziy, Alouddin Attor, So'fi Olloyor singari buyuk va mashhur olimu ulamolar, shoir va adiblarning har biri haqida, soatlab gapirish mumkin. Albatta, ana shunday ajdodlarimiz xotirasiga

---

[100] Jaksimov I.T. Milliy-ma'naviy yuksalish jarayonining ijtimoiytarixiy masalalari va uni yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784. Toshkent. 2022. 50 b.

[101] ЎзЛДП дан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мир[illegible]нинг Фарғона вилояти сайловчилари билан учрашувида сўзланган нутқ. 2021 йил 21сентябрь.



yuksak ehtirom ko'rsatish bo'yicha keyingi yillarda katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Imom Termiziy va Hakim Termiziy ziyoratgohlari yangitdan qurildi va obod qilindi, Termizda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Oltinsoy tumanida mashhur shoir va ulamo So'fi Olloyor maqbarasi hashar yo'li bilan qisman obod qilingan. Endi bu maskanni yanada obod qilish, unga olib boradigan yo'l va kommunikasiyalar, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish – muhim vazifalardan biridir. Yana bir tabarruk maskan – Sulton Saodat majmuasida qancha sayyid va sayyidzodalar, aziz-avliyo zotlar dafn etilgani yaxshi ma'lum. Bu muborak qadamjoni tubdan obod etish boshlagan. Nasib etsa, ana shu qutlug' maskanlar yurtdoshlarimiz, chet ellik mehmonlar uchun ziyoratgohga aylanadi. Bu vohani gullatib-yashnatgan, uni dunyoga tanitgan eng buyuk daryo – bu o'lkaning mehnatkash va saxovatli xalqi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Buning tasdig'ini bu yerda keyingi besh yilda amalga oshiyilgan keng ko'lamli ishlar misolida ko'rish mumkin. Mehnatkash va matonatli voha ahli og'ir iqlim sharoitiga qaramasdan, fidokorona mehnat qilib, turli soha va tarmoqlarda ulkan natijalarga erishayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

"Ilgari milliy g'oya ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – ojizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi. Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham

quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi".[102]

«Oxirgi besh yildagi tub islohotlar va amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning barcha hududlari qatori, Surxondaryoda ham sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda. Buni har bir Surxon aholisi kundalik turmushida his qilmoqda, o'z mahallasida ko'rib, shukronalik bilan qo'llab-quvvatlamoqda desak bu ham haqiqat. Eng muhimi, odamlarimizning fikr-qarashlari o'zgardi, ularning ertangi kunga ishonchi, islohotlarimizga nisbatan dahldorligi oshdi»[103].

Bularning barchasi nafaqat butun mamlakatimiz, balki uning har bir hududida islohotlar va o'zgarishlarning bardavom bo'lishingi anglatadi, hamda bu jabhadagi zarur rejalar va dasturlar, ustuvor maqsadlar belgilab olinganidan dalolat beradi.

"Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy yetishiga shu kadar keng imkoniyat ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir".[104]

Mustaqil O'zbekistonimizni yangi marralar sari boshlab, jamiyatimizni milliy yuksalish yo'lida dadil qadam tashlashda Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlari bundan keyingi taraqqiyotimiz uchun ham dasturulamal bo'lib qolaveradi.

«Bu jihatdan islohotlarning «Inson – jamiyat – davlat» tamoyili asosida amalga oshirilayotganligi va unga tayanib ish ko'rilishi zarurligi ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi».[105]

